

88
135

J. LAXANOV

**O'ZBEKISTONNING
UMURTOQALI HAYVONLARI
ANIQLAGICHI**

TOSHKENT – 2013

UO'K: 591 (575.1)
KBK 28.693.3
L-25

L-25 J.L.Laxanov. O'zbekistonning umurtqali hayvonlari
aniqlagichi. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 224 bet.

ISBN 978-9943-10-983-4

Ushbu qo'llanma universitetlar biologiya fakultetining II kursida o'qitiladigan umurtqali hayvonlar zoologiyasi programmasi asosida yozilgan. Bu muayyan soha bo'yicha o'zbek tilida birinchi marta yozilgan qo'llanma bo'lib, respublikamizda tarqalgan umurtqali hayvonlarning sinfi, turkumi, oilasi, urug'i va turlarini aniqlash jadvali hisoblanadi. Har bir sinf va turkumni aniqlashdan oldin ularga qisqacha xarakteristika beriladi, so'ngra aniqlash jadvali boshlanadi.

Ushbu qo'llanmadan, talabalardan tashqari, o'rta maktablarning biologiya o'qituvchilari, o'rmon va qishloq xo'jaligi xodimlari va hayvonlar hayoti bilan qiziquvchi har qanday kasb egalari foydalanishi mumkin.

UO'K: 591 (575.1)
KBK 28.693.3

Taqrizchilar: B.S.Salimov – b.f.n., professor;
A.R.Jabborov – b.f.n., dotsent

ISBN 978-9943-10-983-4

© J.Laxanov, 2013.
© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

SO'Z BOSH

O'zbekistonning o'simlik va hayvonot olami nihoyatda xilma-xildir. U respublikamiz tabiiy boyligining muhim qismini tashkil etadi. O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlar alohida o'rin egallaydi. Yovvoyi holda yashaydigan umurtqali hayvonlardan xalq xo'jaligi uchun qimmatbaho mahsulotlar – go'sht, baliq mahsulotlari, qimmatbaho mo'yna, teri va boshqalar olinadi. Ko'pchilik umurtqali hayvonlar, ayniqsa, qushlar har xil zararkunandalarni qirib, o'rmon va qishloq xo'jaligiga katta foyda keltiradi.

Ko'pchilik parrandalar, qushlar va baliqlar ov obyekti hisoblanadi, baliq ovi esa sevimli sport mashg'ulotidir.

Hayvonlarning ayrimlari (ayniqsa, kemiruvchilar) qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi, turli yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi bo'lib hisoblanadi va hokazo. Bularning hammasi respublikamiz faunasi umurtqali hayvonlarini har tomonlamba o'rganish zarurligini taqozo etadi. Bu ishga mutaxassis zoologlardan tashqari, o'lkashunoslar, ovchilar, baliqchilar, yosh tabiatshunoslar va tabiat muxlislari ham jalb etilsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

Hayvonlarni o'rganishda ular qay'si tur yoki sistematik guruhga mansub ekanligini bilish nihoyatda zarurdir. Bu ishda aniqlagich katta yordam beradi.

Universitetlar va pedagogika institutlari o'quv programmasiga muvofiq, umurtqali hayvonlar zoologiyasi 2-kursda o'tiladi va ularning turlarini aniqlash uchun kam vaqt ajratiladi. Talabalar o'qituvchining yordamisiz birorta ham turni aniqlab ulgurmaydilar. Bundan tashqari, qo'riqxonalar xodimlari, ovchilar, o'rta maktab o'qituvchilari va o'quvchilari ham o'zbek tilida yozilgan aniqlagichga muhtoj. Ana shularni hisobga olib, ushbu qo'llanma N.P.Najimov va N.N.Kartashevlar «Zoologiya» darsligidagi sistematikaga asoslangan holda yozildi.

Qo'llanma o'zbek tilida birinchi marta yozilganligi sababli, albatta, kamchiliklardan xoli bo'lmaydi mumkin. Shuning uchun kitobxonlar o'z istaklari, mulohazalari va qo'shimchalarini ma'lum qilsalar, muallif ularga cheksiz minnatdorchilik bildiradi.

ANIQLAGICH DAN FOYDALANISH TARTIBI

Agar muayyan hayvon qaysi sistematik guruhga mansub ekanligi noma'lum bo'lsa, avvalo aniqlagich jadval yordamida u qaysi sinfga (masalan, qushlar sinfga) kirishi aniqlanadi. Keyin turkumlarni aniqlash jadvali yordamida qaysi turkumga (masalan, chumchuqsimonlar turkumiga) kirishi, oilalarni aniqlash jadvali yordamida qaysi oilaga (aytaylik, qarg'alar oilasiga), urug'larni aniqlash jadvali yordamida qaysi uruqqa (masalan, qarg'alar urug'iga) va nihoyat, turlarni aniqlash jadvali yordamida qaysi turga (aytaylik, qora qarg'a turiga) mansub ekanligi aniqlanadi.

Hayvonlarni aniqlash jadvallari dixtomik yo'nalish asosida tuzilgan. Ular bir necha juft teza va unga mazmunan qarama-qarshi bo'lgan antitezadan tuzilgan. Muayyan hayvon aniqlanayotganda, avval teza bo'yicha o'qiladi, agar uning belgilari bu punktga to'g'ri kelsa, navbatdagi punktni o'qishda davom etiladi. Agar birinchi punktning belgilar aniqlanayotgan hayvonning belgilariga mos kelmasa, u holda birinchi punktning yonida qavs ichida ko'rsatilgan qarshi punkt dan – antitezadan boshlab o'qish davom ettiriladi. Agar tezada hayvonning tanasi 25 sm dan uzun deyilgan bo'lsa, antitezada hayvonning tanasi 25 sm dan katta deyiladi va hokazo. Masalan, hayvon tanasining uzunligi 22 sm deyilgan bo'lsa, demak, ushbu belgisi antitezaga to'g'ri keladi.

Har bir jadval I raqami bilan boshlanadi. Bu teza raqamining yonida qavs ichida antiteza tartib raqami beriladi. Diqqat bilan teza va antitezadagi tekst o'qilib, hayvonning belgilari qaysi birigi mos kelishi aniqlanadi. Agar hayvonning belgilari tanlangan tezaga mos kelsa va undan keyin hayvonning nomi ko'rsatilsa, shu bilan aniqlash tugaydi. Bordi-yu, hayvonning nomi yozilmagan bo'lsa, aniqlash navbatdagi teza bo'yicha davom ettiriladi. To hayvonning turi ma'lum bo'lguncha aniqlash shu tarzda davom etadi.

Aniqlash jadvallarida sinf, turkum, oila va urug' nomlari yozilganidan keyin qavsda shularning beti ko'rsatiladi. O'sha betdan aniqlash davom ettiriladi. Agar turkumga, oilaga va uruqqa faqat bitta tur kirsa, u holda aniqlash jadvali berilmaydi. Hayvonning turi aniqlangandan keyin u O'zbekistonning qayerida tarqalganligi beriladi, xolos. Turning morfologik belgilari va biologiyasi ta'riflanmaydi.

Ushbu aniqlagichda O'zbekiston hududida uchraydigan umurtqali hayvonlar keltirilgan. Ular, asosan, umurtqali hayvonlar beshta sinfining vakillari bo'lib, taxminan 606 turi o'z ichiga oladi. Ularning 69 turi baliqlar, 2 turi suvda ham quruqda ham yashovchilar, 58 turi sudralib yuruvchilar, 378 turi qushlar va 99 turi sutemizuvchilar sinfiga mansub.

HAYVONLARNING SINFLARINI ANIQLASH JADVALI

1(2) Boshning yon tomonlarida suyakdan iborat jabra qopqog'i bilan yopilgan jabra yoriqlari bor, toq va juft suzgich qanotlari harakat organlari sifatida xizmat qiladi.

Suyakli baliqlar (Kocmuse pişis) – Osteichthyes (7-bet).

2(1) Jabra yoriqlari yo'q, besh panjali oldingi va orqa oyoqlari harakat organi bo'lib xizmat qiladi.

3(4) Terisi shilimshiq modda bilan qoplangan. Terisida epiteliy hosilalari (tangacha, pat, jun) bo'lmaydi. Barmoqlarida tirnoq yo'q.

Suvda ham quruqda yashovchilar (Zemnosobnnye) – Amphibia (28-bet).

4(3) Terisi ustida shilimshiq modda yo'q. Terisida epiteliy hosilalari (tangacha, qalqoncha, pat yoki jun) bo'ladi. Barmoqlarida, odatda, tirnoqlari bor.

5(6) Tanasi shox moddadan iborat qatlam, tangacha yoki qalqonchalar bilan qoplangan.

Sudralib yuruvchilar (Пресмыкающиеся) – Reptilia (30-bet).

6(7) Tanasi pat bilan qoplangan. Oldingi oyoqlari qanotga aylangan. Jag'larida tishlari yo'q.

Qushlar (Птицы) – Aves (50-bet).

7(6) Tanasi jun bilan qoplangan. Jag'larida tishlari bor.


Sutemizuvchilar (Млекопитающие) – Mammalia (158-bet).

SUYAKLI BALIQLAR SINFI (КОСТНЫЕ РЫБЫ) – OSTEICHTHYES


Baliqlar suvda yashovchi dastlabki umurtqali hayvonlar bo'lib, butun tana tuzilishi suv muhitida yashashga moslashgan. Suzgich qanotlari, odatda, parda bilan o'zaro tutashgan qattiq yoki yumshoq nurlardan tashkil topgan. Vertikal joylashgan dum, bitta yoki bir nechta orqa va anal suzgich qanotlari toq, ko'krak va qorin suzgich qanotlari juft suzgich qanotlardir.

Suyakli baliqlar terisida shilimshiq modda ishlab chiqaruvchi bir hujayrali bezlar ko'p bo'lib, odatda, suyak tangachalar bilan qoplangan. Ko'pchilik suyakli baliqlar tanasining ikki yoni bo'ylab yon chizig'i


o'tadi. Ichki skeleti asosan suyakdan tashkil topgan. Nafas olish organi jabralardir. Jabralari ustida suyakli jabra qopqog'i joylashgan. Baliqlarning xilma-xil shakliga ega bo'lishi ularning biologiyasiga, muhitga moslashuviga va genetik xususiyatlariga bog'liq.



1-rasm. Suzgich qanot nurlarining xillari:
a – tikantli; b – yumshoq (1-shoxlanmagan; 2 – tishchali; 3 – shoxlangan).




2-rasm. Baliqlarning jabrasi:
1 – jabra yoyi; 2 – jabra o'simtalari; 3 – jabra yaproqlari.



3-rasm. Baliqlar tashqi ko'rinishining sxemasi:

- 1 – orqa suzgich qanoti (1a – tikanli qismi; 1b – yumshoq qismi);
 2 – ko'krak suzgich qanoti; 3 – qorin suzgich qanoti; 4 – anal suzgich qanoti; 5 – dum suzgich qanoti; 6 – yon chizig'i; 7 – jabra qopqog'i; 8 – burun teshigi; 9 – dumining bandi.



4 - rasm. Baliqlarni o'lehash sxemasi:

- ac – tanasining uzunligi; ab – tanasining umumiy uzunligi; ad – boshining uzunligi; ae – tumshug'ining uzunligi; am – antidorsal masofa; ef – ko'zining diametri; ji – tanasining eng baland qismi; kl – tanasining eng past qismi; mt – orqa suzgich qanotining uzunligi; ne – postdorsal masofa; oc – dumi bandining uzunligi; qp – anal suzgich qanotining uzunligi; tr – ko'krak suzgich qanotining uzunligi; su – qorin suzgich qanotining balandligi; ts – ko'krak va qorin suzgich qanotlari orasidagi masofa.

Suyakli baliqlarni aniqlashda 1,2,3 va 4- rasmlardan hamda quyidagi o'lehamlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. *Tanasining uzunligi* – tumshug'ining uchidan dum suzgich qanotining asosigacha bo'lgan masofa (ac).
 2. *Tanasining umumiy uzunligi* – tumshug'ining uchidan dum suzgich qanotining uchigacha bo'lgan masofa (ab).
 3. *Boshining uzunligi* – tumshug'ining uchidan jabra qopqog'ining keyingi qirrasigacha bo'lgan masofa (ad).
 4. *Tumshug'ining uzunligi* – tumshug'ining uchidan ko'zining oldingi qirrasigacha bo'lgan masofa (ae).
 5. *Orqa va anal suzgich qanotlarining uzunligi* – shu qanotlarning oldingi va oxirgi qirralari o'rtasidagi masofa (mt, qp).
 6. *Ko'krak va qorin suzgich qanotlarining uzunligi* – qanotlarining asosidan uchigacha bo'lgan masofa (dr, su).
 7. *Dum bandining uzunligi* – anal suzgich qanotining asosidan dum suzgich qanotining asosigacha bo'lgan masofa (oc).
 8. *Antidorsal masofa* – tumshug'ining uchidan orqa suzgich qanotining birinchi shu'lasigacha bo'lgan masofa (ao).
 9. *Postdorsal masofa* – orqa suzgich qanotining keyingi asosidan dum suzgich qanotining asosigacha bo'lgan masofa (vertikal chiziq bo'ylab)(fs).
 10. *Tanasining eng baland qismi* – orqasining eng baland nuqtasidan qorinining eng past nuqtasi orasidagi masofa (ji).
 11. *Boshining balandligi* – boshi tanaga qo'shilgan joy (gh).
 12. *Orqa va anal suzgich qanotlarining balandligi* – eng uzun shu'lalarining uzunligi bilan o'lchanadi (mt, qp).
 13. *Ko'z orqasidagi bo'shliq* – ko'zning keyingi qirrasidan jabra qopqog'ining keyingi qirrasigacha o'lchanadi (fd).
 14. *Boshining yo'g'onligi (qaldligi)* – boshining eng keng qirralari orasidagi masofa.
 15. *Ko'zlar orasidagi masofa yoki peshana kengligi* – ko'zlarning ichki qirralari orasidagi masofa.
- O'zbekistondagi suvlarda yashaydigan baliqlarning hammasi *shu'la qanotlilar* – *Actinopterygii* kenja sinfiga kiradi. Bizdagi shu'la qanotlilar 2 ta katta turkumga bo'linadi.

SHU'LA QANOTLILARNING KATTA TURKUMLARINI ANIQLASH JADVALI

1 (2) Dum suzgich qanotining uski pallasi pastkisiga nisbatan katta (geteroserkal tip). Tanasi bo'ylab romb shaklidagi 5 qator suyak bo'rtmalar joylashgan.

Ganooidlar (Ганоидные) – Ganooidomorpha (11-bet).

2 (1) Dum suzgich qanotining ikkala pallasi ham deyarli bir-biriga teng (gomoserkal tip). Terisi suyak tangachalar bilan qoplangan yoki tangachalari bo'lmaydi.

Suyakdor baliqlar (Костистые) – Teleostei (12-bet).

Ganooidlar (Ganooidomorpha) katta turkumiga bitta – Oxyotrismonlar (Оксирообразные) – Acipenseriformes - turkumi kiradi.

Oxyotrismonlar turkumi (Acipenseriformes) suyakli baliqlarning eng primitiv guruhi hisoblanadi. Dum suzgichi geteroserkal tipda, boshi cho'ziq qazgich bilan tugaydi. Boshining pastki qismida ko'ndalang yoriq shaklida og'zi joylashgan. Og'zida tishlari yo'q. Tanasi bo'ylab 5 qator bo'lib suyak tangachalar joylashgan. Skeleti asosan tog'aydan tashkil topgan. Bosh skeleti ustidan qoplovchi suyaklar bilan yopilgan.

Oxyotrismonlar turkumi bitta osyotrlar (Oseporoide) – Acipenseridae oilasini o'z ichiga oladi. Bu oila vakillarining belgilari turkum belgilari bilan bir xil bo'ladi. O'zbekistonda bu oilaning 2 ta urug'ining vakillari ma'lum.

Osyotrlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'i konussimon yoki uchburchak shaklda bo'lib, yassi emas, qirrası doiraga o'xshaydi va qalin bo'ladi. Ko'zlari yaxshi rivojlangan. Jabra qopqog'i va ko'zlari orasida sachratqichi bor.

Osyotrlar (Osepori) – Acipenser (11-bet).

2 (1) Tumshug'i yassi va juda serbar bo'lib, uning qirrası yupqa va o'tkirdir, Sachratqichi yo'q.

Soxta kurakburunlar (Потаноморфы) – Pseudoscaphirhynchus (12-bet).

Osyotrlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Yon tomondagi konussimon bo'rtmalari 50 tadan ko'p. Tumshug'i kalta, to'mtoq.

Bakra baliq (um) – Acipenser nudiiventris Lovetzky

Bu baliq Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryoda yashagan.

2 (1) Yon bo'rtmalari 50 tadan kam. Tumshug'i uzun.

Sevryuga – Acipenser stellatus Pallas

Bu baliq Orol dengizida yashagan.

Soxta kurakburunlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Tanasining orqasida 9-14 ta, yon tomonlarida 30-36 ta tikanli bo'rtmalar bor. Tumshug'ining uchida, odatda, o'tkir tangachalari bor.

2 (3) Voyaga yetganlarida yaxshi rivojlangan dum ipi bo'ladi. Tumshug'ining uchida 1-5 ta o'tkir tikanchalar bor.

Katta qilquruq (Амударьинский большой лопатонос) – Pseudoscaphirhynchus kaufmanni Bogd.

Amudaryoning quyi oqimi bilan Panj daryosi oralig'ida yashaydi.

3 (2) Dum ipi bo'lmaydi. Tumshug'ining uchida tikanchalar bo'lmaydi yoki ular yaxshi rivojlanmagan.

Toshbakra (kichik qilquruq) – Амударьинский малый лопатонос) – Pseudoscaphirhynchus hermanni Kessl.

Amudaryoda Termizdan uning quyi oqimigacha va Amu-Buxoro kanalida tarqalgan.

4 (1) Tanasining orqasida 15-22 ta, yon tomonlarida 37-46 ta tikani bor. Tumshug'ining uchida tikanlar yo'q.

Filbo'yin (Sirdaryo qilquruqi) – Сыдарьинский лопатонос) – Pseudoscaphirhynchus fedchenko Kessl.

Sirdaryoda Farg'onadan uning quyi oqimigacha tarqalgan.

SUYAKDOR BALIQLAR KATTA TURKUMI (КОСТИСТЫЕ РЫБЫ) – TELEOSTEI

Suyakdor baliqlar suyakli baliqlarning yuksak darajada rivojlangan guruhi hisoblanadi. Dumı teng pallali bo'ladi. Terisi yupqa suyak tangachalar bilan qoplangan. Ba'zilarida tangachalar bo'lmaydi. Bosh skeleti va umurtqalari suyakka to'liq aylangan.

O'zbekistonda tarqalgan baliqlarning ko'pchiligi suyakdor baliqlar bo'lib, ular 8 turkumga mansub.

Suyakdor baliqlarning turkumlarini aniqlash jadvali

1 (12) Qorin suzgich qanotlari ko'krak suzgich qanotlaridan ancha keyinda, ya'ni tanasining o'rtasida joylashgan. Orqa suzgich qanoti bitta bo'lib, unda qattiq nurlar bo'lmaydi, bo'lsa ham 2 tadan oshmaydi.

2 (3) Qorinning o'rtasida o'tkir taroq hosil qiluvchi tikansimon tangachalar qatori bor, yon chizig'i yo'q.

Seldsimonlar (Сельдеобразные) – Clupeiformes (26-bet).

3 (2) Qorinning o'rtasida o'tkir taroq hosil qiluvchi tikansimon tangachalar qatori yo'q. Yon chizig'i bor.

4 (5) Orqa suzgich qanotining orqasida yumshoq, nursiz yog' suzgich qanotchasi bor. Mo'ylab yo'q.

Lososinonlar (Лососообразные) – Salmoniformes (26-bet).

5 (4) Orqasida yumshoq, nursiz yog' suzgich qanotchasi yo'q. Mo'ylabi bor.

6 (11) Orqa suzgich qanotining uzunligi tanasi uzunligining yarmidan kam. Undagi nurlar 50 taga yetmaydi.

7 (8) Orqa suzgich qanoti anal suzgich qanotining ustida joylashgan.

Choransimonlar (Щукообразные) – Esociformes (26-bet).

8 (7) Orqa suzgich qanoti anal suzgich qanotidan oldinda joylashgan.

9 (10) Yon chizig'i yo'q. Boshida tangachalari bo'lmaydi.

Zog'oratishtsimonlar (Карпообразные) – Cyprino-dontiformes (14-bet).

10 (9) Yon chizig'i bor. Boshida tangachalari bo'lad.

Zog'orabaliqsimonlar (Карпообразные) – Cypriniformes (14-bet).

11 (6) Orqa suzgich qanoti tanasining yarmidan uzun. Undagi nurlar 50 tadan ko'p.

Ilorboshsimonlar (Змееголообразные) – Ophiocephali-formes (22-bet).

12 (1) Qorin suzgich qanotlari ko'krak suzgich qanotlaridan oldinda yoki ulardan ozgina keyinda joylashadi. Qorin suzgich qanotlari dumga nisbatan boshga yaqin joylashadi.

13 (4) Orqa suzgich qanotining oldingi qismida tikanchalar joylashadi. Qorin suzgich qanotlarida kuchli, o'tkir tikanchalar bor.

Tikanchaliqsimonlar (Копукообразные) – Gasterosteiformes (26-bet).

14 (13) Orqa suzgich qanotining oldida tikanchalar yo'q. Qorin suzgich qanotlarida tikanchalar bo'lmaydi.

Olabug'asimonlar (Окунеобразные) – Persiiformes (27-bet).

ZOG'ORATISHTSIMONLAR TURKUMI (КАРПОЗУБООБРАЗНЫЕ) – CYPRINODONTIFORMES

Bular mayda baliqlar bo'lib, terisi sikloid tangachalar bilan qoplangan. Yon chizig'i yo'q yoki sust rivojlangan. Suzgich qanotlarida suyak nurlar bo'lmaydi. Mo'ylabchalari yo'q. Og'zida tishlari bor. Bu turkumga *Pesilalar (Poecilidae)* oilasi kiradi. MDHda *Gambuziya*

(*Gambusia Pocy*) urug'i va *oddiy gambuziya – G. affinis* (Baird et Girard) turi bor. Bu baliqchalar 1925-yilda Shimoliy Amerikadan keltirilgan. Bezgak pashshasining lichinkasiga qarshi kurashish maqsadida O'rta Osiyo, Kavkaz, Ukrainadagi, shu jumladan, O'zbekistondagi suv havzalarida iqlimlashtirilgan.

ZOG'ORABALIQSIMONLAR TURKUMI (КАРПООБРАЗНЫЕ) – CYPRINIFORMES

Bu turkumga kiruvchi baliqlar juda xilma-xil va turli shaklda bo'ladi. Qorin suzgich qanotlari ko'krak suzgich qanotidan keyinda joylashgan. Orqa suzgich qanoti bitta. Yon chizig'i, odatda, yaxshi rivojlangan.

Zog'orabaliqsimonlar turkumi 2 ta kenja turkumga bo'linadi.

Zog'orabaliqsimonlar turkumining kenja turkumlarini aniqlash jadvali

1 (2) Terisi tangachalar bilan qoplangan. Boshi yalpoq emas. Jag'larida tishlari yo'q.

Zog'orabaliqlar (Карпоые) – Cyprinoidei (15-bet).

2 (1) Terisida tangachalar bo'lmaydi. Boshi yalpoq, jag'larida tishlari bor. Orqa suzgich qanoti juda kichik.

Laqqalar (Сомые) – Siluroidei (21-bet).

Zog'orabaliqlar kenja turkumi (Карповые) – Cyprinoidei

Tanasi va boshi, odatda, yon tomondan qisilgan. Terisi tangachalar bilan qoplangan. Jag'larida tishlari yo'q. Oxirgi jabra yoylarida oziqni maydalovchi tomoq tishlari bo'ladi. Tomoq tishlarining soni va shakli zog'orabaliqlar kenja turkumini aniqlashda katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda tarqalgan zog'orabaliqlar 2 ta oilaga bo'linadi.

Zog'orabaliqlar kenja turkumining oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Og'zi atrofidagi mo'ylabchalari 2 juftidan oshmaydi. Gavdasi yon tomondan qisilgan.


Zog'orabaliqlar (Карповые) – Cyprinidae (15-bet).

2 (1) Og'zi atrofidagi mo'ylabchalari 3 juftidan kam bo'lmaydi. Gavdasi, odatda silindrsimon shaklda bo'ladi.

Eshvoy baliqlar (Вьюновые) – Cobitidae (19-bet).

Zog'orabaliqlar oilasi (Карповые) – Cyprinidae

Terisi sikloid tangachalar bilan qoplangan. Tomoq tishlari 1-3 qator bo'lib joylashgan. Ular bir qatorda 8 tadan ortiq bo'lmaydi (5-rasm).




5-rasm. Zog'orabaliqlarning tomoq tishlari:
a – bir qatorli; b – ikki qatorli; d – uch qatorli.

Zog'orabaliqlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (30) Jabra pardalari boshining ikki yon tomoni o'zaro qo'shilmaydi. Jabra ustunchalari jabra yoylarida lentaga o'xshab qo'shilmasdan, yakka-yakka joylashgan.
- 2 (5) Orqa suzgich qanoti uzun bo'lib, unda 14 tadan ko'p tarmoqlangan nur bo'ladi. Orqa va anal suzgich qanotlarining birinchi nurlari qirrali bo'ladi.
- 3 (4) Og'zi atrofida 2 juft mo'ylabchalari bor.
Zog'orabaliqlar (Karpus) – Cyprinus L.
Turi oddiy *zog'ora baliq (Cazan, karp) – C. carpio L.* O'zbekistondagi hamma suv havzalarida tarqalgan.
- 4 (3) Og'zi atrofida mo'ylabchalari bo'lmaydi.
Tobonbaliq (Karpac) – Carassius Iarocki.
Turi *kumushrang tobonbaliq (Серебряный карась) – C. auratus gibelio* Bloch. Amudaryo va Sirdaryoda hamda ularning irmoqlarida yashaydi.
- 5 (2) Orqa suzgich qanotidagi tarmoqlangan nurlar 14 tadan oshmaydi. Anal suzgich qanotida tikanli nur bo'lmaydi.
- 6 (15) Og'zi atrofida mo'ylabchalar bo'ladi.
- 7 (10) Orqa chiqaruv teshigi va anal suzgich qanotining atrofi yo'g'onlashgan yirik tangachalar bilan qoplangan (6-rasm).
- 8(9) Og'zi atrofida ikki juft mo'ylabchalari bor.
Qorabaliqlar (Mapunki) – Schisothorax Heckel.
Turi *oddiy qorabaliq (Mapuka obyknovennas) – S. intermedius* Mc Clelland. O'zbekistonda hamma tog' daryolarida va katta buloqlarda yashaydi.
- 9 (8) Og'zi atrofida bir juft mo'ylabchalari bor.
Osmanlar (Osmаны) – Diptychus Steindachner
Turi *yalang'och osman – Diptychus dubowskii* Kessler

Chirehliq daryosi va uning irmoqlarida yashaydi.



6-rasm. Oddiy qorabaliqning anal suzgich qanoti va anal teshigi atrofidagi yirik tangachalar.

10 (7) Orqa chiqaruv teshigi va anal suzgich qanotining atrofidagi tangachalar yirik-maydaligi va qalinligi jihatidan qorin tomondagi boshqa tangachalardan farq qilmaydi.

11 (14, 31) Og'zi atrofidagi mo'ylabchalari 2 juft. Yon chizig'ida gi tangachalar 51-61 ta.

12 (13) Pastki jag'ining oldingi qirradi o'tkirlashgan va tog'ay bilan o'ralgan. Og'zi ko'ndalang yoriq shaklda. Mo'ylabchalari 1-2 juft.

Xramulyalar (Xramulyu) – Varicorhinus Rüppel.
Turi *Samarqand xramulyasi (Самаркандская храмула) – Varicorhinus capoeta heratensis* Kessler. Respublikamizning hamma daryo va ko'llarida uchraydi.

13 (12) Pastki jag'i yarim oysimon bo'lib, o'tkirlashmagan va tog'ay bilan qoplangan. Orqa suzgich qanotida 8 ta, anal suzgich qanotida 5-6 ta tarmoqlangan nurlari bo'ladi.

Mo'ylabli baliqlar (Yevau) – Barbus Guvier.
Turi *Turkiston mo'ylabli baliqi (Туркестанский яев) – Barbus capito conocephalus* Kessler. Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoda yashaydi.

14 (11) Og'zi atrofida bir juft mo'ylabchalari bor.

15 (5) Og'zi atrofida mo'ylabchalari bo'lmaydi.

16 (17) Orqa suzgich qanotining oxirgi tarmoqlangan nuri tikanga aylangan.

Parraklar (Омрогушка) – Sapoetobrama Berg.

Turi *parrak (Омрогушка) – Capoetobrama kuschakevitchi* Kessler. Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryoda va ularning irmoqlarida yashaydi.

17 (16) Orqa suzgich qanotida tikanga aylangan nur bo'lmaydi.

18 (19) Anal suzgich qanotida 20 ta dan ortiq tarmoqlangan nurlar bo'ladi.

Oqchalar (Лейт) – Abramis Guvier.

Turi *Orol oqchasi (Лейт) – Abramis brama* L. Orol dengizida, Sirdaryo va Amudaryoda tarqalgan.

19 (18) Anal suzgich qanotida tarmoqlangan nurlar soni 20 ta dan kam bo'ladi.

20 (23) Anal teshigining oldida tangachalar bilan qoplanmagan ochiq joy bor.

21 (22) Qornidagi tangacha bilan qoplanmagan (ochiq) joy qorin suzgich qanotlarining asosigacha borib yetadi.

Bistryankalar – Alburnoides Seiteles (19-bet).

22 (21) Qornidagi tangacha bilan qoplanmagan (ochiq) joy qorin suzgich qanotlarining asosigacha borib yetmaydi.

Moybaliqlar (Шлеу) – Chalcalburnus Berg.

Turi *Orol moybaliq'i (Аральская шлеу) – Chalcalburnus chalcoides aralensis* Guild. Orol dengizida, Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimida hamda Zarafshon daryosida tarqalgan.

23 (20) Anal teshigining oldida tangacha bilan qoplanmagan (ochiq) joy bo'lmaydi.

24 (25) Yon chizig'idagi tangachalar soni 70 ta dan ortiq.

Oqqayroqlar (Жерех) – Aspius Agass

Turi *qizil labli oqqayroq (Аральский краснозубый жерех) – Aspius aspius* Kessler. Orol dengizida, Sirdaryo bilan Amudaryoda yashaydi.

25 (24) Yon chizig'idagi tangachalar soni 60 ta dan ko'p emas.

26 (27) Orqa suzgich qanoti qorin suzgich qanotlarining asosidan keyinda joylashgan.

Qizilqanoqlar (Красноперка) – Scardinius Bonaparte.

Turi *qizilqanoqli baliq (Красноперка) – Scardinius erythrophthalmus* L. Qoraqalpog'istondagi ko'llarda, Sirdaryoning quyi oqimida tarqalgan.

27 (26) Orqa suzgich qanoti qorin suzgich qanotlari asosining ustida joylashgan.

28 (29) Orqa suzgich qanotidagi tarmoqlangan nurlar soni, odatda, 9 ta dan kam bo'lmaydi.

Qizilko'zlar (Помса) – Rutilus Rafinesgne.

Turi *oddii qizilko'z (помса) – Rutilus rutilus* L. Orol dengizida, Sirdaryoda va Amudaryoda tarqalgan.

29 (28) Orqa suzgich qanotidagi tarmoqlangan nurlar soni, odatda, 8 ta dan oshmaydi.

Oq chebaklar (Елпс) – Leuciscus Cuvier.

Turi *Zarafshon oq chebasi (Запафшанский елпс) – Leuciscus lehmanni* Brandt. Sirdaryoda, Zarafshon daryosida va Amudaryoda tarqalgan.

30 (1) Jabra pardalari boshining ikki yon tomonida o'zaro qo'shilib ketadi. Jabra ustunchalari jabra yoylarida lentachaga o'xshab bir-biri bilan qo'shilib ketadi.

Xumbosh baliqlar (Толмолобука) – Hypophthalmichthys Blecker

Turi *Amur xumboshi (Толмолобука) – Hypophthalmichthys molitrix* Valenciennes. O'zbekistonga Amur daryosidan olib kelinib iqlimlashtirilgan.

31 (11) Og'zi atrofidagi bir juft mo'ylabchalari bor. Yon chizig'idagi tangachalar soni 50 ta dan kam.

32 (33) Yon chizig'idagi tangachalar soni 37-42 ta.

Qumballiqlar (Искра) – Gobio Guvier

Turi *Turkiston qumbalig'i (Туркестанский некарь) – Gobio gobio lepidolaemus* Kessler. Amudaryoda, Qashqadaryoda, Zarafshon, Sirdaryo, Norin va Qoradaryolarda yashaydi.

33 (32) Yon chizig'idagi tangachalar soni 43-54 ta.

Oq anurlar (Бенсе аырыс) – Stenopharyngodon Steindacher.

Turi *oq anur (Бенсü аырыр) – Stenopharyngodon idella* Valehcinnes. Amur daryosidan O'zbekistonga keltirilib, suv havzalarida iqlimlashtirilgan.

Bistryankalar – Alburnoides Seiteles (19-bet).

Bistryankalar urug'ining turklarini aniqlash jadvali

1 (2) Qornidagi kili qorin suzgich qanotidan to anal teshigigacha tangachalar bilan qoplanmagan.

Oddii bistryanka – Alburnoides bipunctatus Bonaparte. Zarafshon daryosining irmoqlarida hamda Qashqadaryoda tarqalgan. № 135575

2 (1) Qornidagi kili tangachalar bilan qoplangan.

3 (4) Yon chizig'idagi tangachalar soni 37-43 ta.

Turi *chiziqli bistryanka* (*Полосатая быстрижка*) – *Alburnoides taeniatus* Kessler. Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryosi, Norin va Qoradaryolarda yashaydi.

4 (3) Yon chizig'idagi tangachalar soni 50-54 ta.

Toshkent bistryankasi (*Ташкентская верховодка*) – *Alburnoides oblongus* Bulgakov.

Sirdaryo va uning irmoqlarida, Chirchiq, Oris sohilidagi Bodom daryolarida tarqalgan.

Eshvoylar oilasi (Вьюны) – Cobitidae

Tanasi uzunroq, silindr shaklidagi mayda baliqlar bo'lib, og'zi atrofida 3-5 juft mo'ylabchalari bor. Burun teshiklari naychalarga ochiladi. Bu oiladan Zarafshon vodiysida 2 ta urug'ining turlari uchraydi.

Eshvoylar (Вьюны) oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Boshi bir oz yassi, ko'zining ostida burmali tikani yo'q.

Yalangbaliqlar (*Голуцы*) – *Nemachilus Hasselt* (20-bet).

2 (1) Boshi yon tomonidan qisilgan. Ko'zining ostida tikani bor. Orqa uzgich qanotidan keyinda teridan iborat taroq joylashadi.

Tikanbaliqlar (*Шиповки*) – *Cobitis* L.

Turi *tikanbaliq* (*Переднезубчатая шиповка*) – *Cobitis aurata* Filippi Sirdaryo, Norin, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryoda tarqalgan.

Yalangbaliqlar (Голуцы) urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Orqa suzgich qanotida tarmoqlangan 7 ta nuri bor. Terisida tangacha va tikanchalar yo'q.

Tojli yalangbaliq (*Требенчанский голец*) – *Nemachilus malapterurus* Kessler.

Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon, Sangzor daryolarida uchraydi.

2 (3) Terisi mayda tikanchalar yoki tangachalar bilan qoplangan.

Buxoro yalangbaliq'i (*Бухарский голец*) – *Nemachilus amudarjensis* Pass.

Surxon, Zarafshon va Norin daryolarida yashaydi.

3 (2) Terisida tangacha va tikanchalar yo'q. Anal suzgich qanotida tarmoqlangan faqat bitta nur bor.

Kushakevich yalangbaliq'i (*Голец Кушакевича*) – *Nemachilus kuschakewitchi* Herzenstein.

Norin daryosida va Qoradaryoda tarqalgan.

4 (1) Orqa suzgich qanotida tarmoqlangan 8-9 ta nur bor.

5 (6) Ko'krak suzgich qanotlarining uchi qorin suzgich qanotlarining asosigacha yetadi.

Amudaryo yalangbaliq'i (*Амударьинский голец*) – *Nemachilus oxianus* Kessler.

Amudaryo, Surxon, Zarafshon va Sirdaryo (Qoradaryo) da tarqalgan.

6 (5) Ko'krak suzgich qanotlarining uchi qorin suzgich qanotlarining asosigacha yetmaydi. Ko'krak suzgich qanotlari 4-5 shu'lali.

Tibet yalangbaliq'i (*Тибетский голец*) – *Nemachilus stoliczkae* Steindachner.

Amudaryo, Qashqadaryo, Zarafshon va Sirdaryoning o'rta va yuqori oqimlarida yashaydi.

Laqqalar kenja turkumi

Terisida tangachalar bo'lmaydi. Boshi yassi bo'lib, og'zida tishlari bor. Anal suzgich qanoti dumining asosigacha yetadi. Orqa suzgich qanoti juda mayda bo'lib, 6 ta nuri bor. O'zbekistondagi suv havzalarida bo kenja turkumning 2 ta oilasining turlari yashaydi.

Laqqalar kenja turkumining oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Anal suzgich qanoti juda uzun bo'lib, 70-90 ta shu'lasi bor.

Laqqalar (*Comosse*) – *Sitaridae* (21-bet).

2 (1) Anal suzgich qanoti kalta bo'lib, shu'lalari 1 ta dan ortmaydi. *Laqqachalar* (*Comuxi*) – *Sisoridae* (21-bet).

Laqqalar oilasi (Comosse) – Sitaridae

Bular yirik baliqlar bo'lib, chuchuk suvlarda yirtqich hayot kechiradi. Orqa suzgich qanoti juda kichik bo'lib, shu'lalari 5 tadan oshmaydi. Anal suzgich qanoti juda uzun. O'zbekistondagi hamma daryolarda *Laqqa* – *Sitarus* L. urug'i va *oddiy laqqa* (*Com*) – *Sitarus glanis* L. turi yashaydi.

Laqqachalar oilasi (Comuxi) – Sisoridae

Bular tog' daryolarida yashaydi. Orqa suzgich qanotidan keyin yog' suzgich qanoti joylashgan. Anal suzgich qanoti ham kichik. Sirdaryo bilan Amudaryoning yuqori oqimlarida *Turkiston laqqachasi* (*Туркестанский комус*) – *Clyptosternum* Mc. *Glelland* urug'i va *Typocmanский комус* – *Clyptosternum reticulatum* Mc. *Glelland* turi yashaydi.

ILONBOSHIMONLAR TURKUMI (ЗМЕЕГОЛОВЫЕ) — OPHIOCEPHALUFORMES

Bular ancha yirik baliqlar bo'lib, tanasi cho'ziq, oldingi qismi silindr shaklda, keyingi qismi esa yon tomonidan qisilgan. Orqa va anal suzgich qanotlari juda uzun. Orqa suzgich qanoti dum suzgich qanotining asosigacha yetadi. Bu turkum faqat bitta nominal oilani (Ophiocephalidae), bitta urug'ni (*Ophiocephalus Bloch*) va bitta *ilonbosh* (*Змееголов*) — *Sphiocephalus argus Cantor* turini o'z ichiga oladi. Amur hududidagi daryo va ko'llarda tarqalgan. O'zbekistondagi suv havzalarda iqlimlashtirilgan.

OLABUG'ASIMONLAR TURKUMI (ОКУНЕОБРАЗНЫЕ) — PERCIFORMES

Bular dengizlarda va chuchuk suvlarda yashaydigan yirtqich baliqlardir. Ko'pchiligida orqa suzgich qanoti 2 ta bo'ladi. Bulardan oldingisida qattiq, tikanli, tarmoqlanmagan shu'lalar bo'ladi. Anal suzgich qanotida 1-3 ta gacha tikanli nuri bor. Qorin suzgich qanotlari ko'krak suzgich qanotlarining tagida yoki ulardan keyinroqda joylashgan. O'zbekistonda uchraydigan olabug'asimonlar 4 ta oilaga bo'linadi.

Olabug'asimonlar turkumining oilalarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Qorin suzgich qanotlari o'zaro qo'shilib ketib, so'rg'ich disk hosil qiladi.
Buqabaliqlar (*Буковые*) — *Gobiidae* (23-bet).
- 2 (1) Qorin suzgich qanotlari o'zaro qo'shilmaydi va so'rg'ich disk hosil qilmaydi.
3 (4) Yon chizig'i yo'q.
Aterinlar (*Атериновые*) — *Atherinidae* (24-bet).
- 4 (3) Yon chizig'i bor.
- 5 (6) Tanasi ktenoid (orqa qirrası tishchali) tangachalar bilan qoplangan.

Olabug'alar (*Окуновые*) — *Percidae* (24-bet).

- 6 (5) Tanasi tangachalar bilan qoplanmagan. Ba'zan mayda tikanchalar bilan qoplangan bo'ladi.

Toshbuqalar (*Гилривобриды*) — *Cottidae* (25-bet).

Buqabaliqlar oilasi (Бучки) — Cobiidae

Bularning qorin suzgich qanotlari bir-biriga qo'shilib ketib, so'rg'ich disk hosil qiladi.

Buqabaliqlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (4) Ikkinchi orqa suzgich qanotida 10 tadan, anal suzgich qanotida 9 ta dan ortiq tarmoqlangan yumshoq shu'lalari bor.

- 2 (3) Tanasi bir oz yumaloq. Tangachalari mayda, ko'ndalang qatoridagi tangachalar soni 45 ta dan ortiq bo'ladi.

Buqabaliqlar (*Бучки*) — *Neogobius Ijima* (23-bet).

- 3 (2) Tanasi va boshi yon tomondan bir oz siqilgan. Tangachalari yirik, ko'ndalang qatoridagi tangachalar soni 45 tadan kam.

Nayburunli buqabaliqlar (*Губоконосные бучки*) — *Proterorhinus Smith*.

Turi susik buqabaliq (*Бучок-щучка*) — *Proterorhinus marmoratus Pallas*. Orol dengizida yashaydi.

- 4 (1) Ikkinchi orqa va anal suzgich qanotida 7-9 ta dan shu'lasi bor.
Uzundamli buqabaliqlar (*Длиннохвостые бучки*) — *Pomatoschistus Gill*.

Orol dengizida *bubir buqabaliq'i* (*Бучок бубырь*) — *Pomatoschistus caucasicus Krawtcheko* turi uchraydi.

Buqabaliqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Tangachalari nisbatan yirik. Ko'ndalang qatoridagi tangachalar soni 55 ta dan kam. Orqa suzgich qanotining oldida yirik qora dog'i bor.

Yumaloq buqabaliq (*Бучок-круляк*) — *Neogobius melanostomus Pallas*.

Orol dengizida yashaydi.

- 2 (1) Tangachalari nisbatan mayda, ko'ndalang qatoridagi tangachalar soni 55 ta dan ko'p. Orqa suzgich qanotining oldida yirik qora dog'i yo'q.

3 (4) Ikkinchi orqa suzgich qanotining balandligi oldidan orqaga tomon pasayib boradi. Boshining eni balandligiga teng.

Qum buqabaliq'i (*Бучок-песчанок*) — *Neogobius fluviatilis Pallas*. Orol dengizida yashaydi.

- 4 (3) Ikkinchi orqa suzgich qanoti bir xil balandlikda yoki orqaga tomon balandlashib boradi. Boshi yassilashgan.

- 5 (6) Ikkinchi orqa suzgich qanoti boshidan oxirigacha bir xil balandlikda. Peshamasining kengligi ko'zining diametriga teng. Orqasida 5 ta ko'ndalang qoramtir chizig'i bor.

Bukir buqabaliq (*Бучок-золотая*) — *Neogobius kessleri Günther*

Orol dengizida yashaydi.

6 (5) Ikkinchi orqa suzgich qanotining keyingi qismi baland. Peshanasining kengligi ko'zining diametridan kichik. Orqasida ko'ndalang qoramtir chiziqilar yo'q.

Shirmon buqabalig'i (Ширман) – *Neogobius syrmian Nordmann*
Orol dengizida yashaydi.

Aterinlar oilasi – Atherinidae

Ikkita orqa suzgich qanoti bir-biridan yaxshi ajralgan. Yon chizig'i yo'q. Orol dengizida bu oilaning aterinlar (*Atherina Guvier*) urug'i va aterina (*Atherina mochon Guvier*) turi yashaydi.

Olabug'alar oilasi (Окуновые) – Percidae

Orqa suzgich qanoti, odatda, ikkita, lekin ba'zan ular bir-biriga qo'shilib ketadi. Anal suzgich qanotida 1-2 ta tikanli shu'lasini bor. Qorin suzgich qanotida 1 ta tikan va 5 ta yumshoq shu'lasini bo'ladi. O'zbekistonda olabug'alar 3 ta urug'ining vakillari tarqalgan.

Olabug'alar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Orqa suzgich qanotlari bir-biriga qo'shilib ketgan.

Toshbozlar (Epuu) – *Acerina Guvier*.

Turi *oddiy toshboz (Epu)* – *Acerina cernua L.* Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryoning quyi ko'llarida yashaydi.

2 (1) Orqa suzgich qanotlari bir-biriga qo'shilmagan.

3 (4) Ikkinchi orqa suzgich qanotida 12-16 ta shu'lasini bor. Yon chizig'idagi tangachalar 70 ta dan kam, ular dum suzgich qanotiga yetmaydi.

Olabug'alar (Oquyu) – *Perca L.*

Turi *oddiy olabug'a (Oquy)* – *Perca fluviatilis L.* Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida yashaydi.

4 (3) Ikkinchi orqa suzgich qanotida 19-24 ta shu'lasini bor. Yon chizig'idagi tangachalar 70 ta dan ko'p. Yon chizig'i suzgich qanotiga gacha davom etadi.

Slalar (Cyodaku) – *Lucioperca Guvier*.

Turi *oq sla (Cyodak)* – *Lucioperca lucioperca L.* Orol dengizida, Amudaryo va Sirdaryo hamda Surxondaryoda yashaydi.

Toshbuqalar oilasi (Подкаменщиковые) – Cottidae

Bular kichik baliqlar bo'lib, tanasi dumiga tomon torayib borib, ko'krak suzgich qanotlari, odatda, katta bo'ladi. O'zbekistonda Toshbuqalar (*Cottus L.*) urug'ining 3 ta turi uchraydi.

Toshbuqalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Oldingi va keyingi burun teshiklari uchi bir xil uzunlikdagi teri naychalarga ochiladi.

Noyburunli toshbuqa (Трубконосый подкаменщик) – *Cottus nasalis Berg.*

Bu baliq Sirdaryo vodiysida yashaydi

2 (1) Faqat oldingi juft burun teshiklari naychalarga ochiladi. Keyingi jufti bevosita teriga ochiladi.

3 (4) Tanasi tangachalar bilan qoplanmagan, ba'zan ko'krak suzgich qanotlarining tagida mayda tikanchalar bo'ladi.

Oddiy toshbuqa (Подкаменщик) – *Cottus gobio L.*

Faqat Chirechiq daryosida tarqalgan.

4 (3) Tanasi mayda tikanchalar bilan to'liq qoplangan.

Turkiston toshbuqasi (Туркестанский подкаменщик) – *Cottus spinolosus Kessler*.

Sirdaryoning yuqori oqimida, Chimkentda uchraydi.

CHO'RTANSIMONLAR TURKUMI (ЩУКООБРАЗНЫЕ) – ESOCIFORMES

Chuchuk suvlarda yashaydigan yirtqich baliqlar hisoblanadi. Qorin suzgich qanotlari ko'krak suzgich qanotlaridan ancha keyinda joylashgan. Orqa suzgich qanoti ancha keyinda bo'lib, anal suzgich qanotining ustida joylashgan.

Orol dengizida, Amudaryo va Sirdaryoda, Aydarko'lda *oddiy cho'rtan-baliq (Шука)* – *Esox lucius L.* yashaydi. U *cho'rtanlar* – *Esox L.* urug'iga, *cho'rtansimonlar* – *Esocidae* oilasiga kiradi.

ТИКАНБАЛИҚСИМОНЛАР TURKUMI (КОЛЮШКООБРАЗНЫЕ) – GASTEROSTEIFORMES

Mayda baliqlar bo'lib, tanasi yon tomondan qisilgan. Orqa suzgich qanotining oldingi qismidagi shu'lalari bir-biri bilan qo'shilmagan va o'tkir, qattiq tikanchalar qatorini hosil qiladi.

Orol dengizida, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida *Orol tikanchaliq'i (Манас юзгач қолшоққал)* – *Pungitius platygaster Kessler* turi yashaydi. U *to'qiz ignali tikanchaliqlar (Десямигзелье қолшоққал)* – *Pungitius Coste C.* urug'iga va *tikanbaliqlar (Қолшоққал)* – *Sasterosteiidae* oilasiga kiradi.

SELDSIMONLAR TURKUMI (СЕЛЪДЕОБРАЗНЫЕ) – CLUPEIFORMES

Ko'krak suzgich qanotlari jabra qopqog'idan keyinda joylashgan. Boshida tangachalar bo'lmaydi. Yon chizig'i va mo'yilblari yo'q. O'zbekistonda *seldlar oilasi* (Сельдевые) – *Clupeidae*, *Seldlar* (*Clupea L.*) urug'iga kiruvchi *Sataka* – *Clupea harengus L.* Turi uchraydi. U Orol dengizida yashaydi.

LOSOSSIMONLAR TURKUMI (ЛОСОСЕОБРАЗНЫЕ) SALMONIFORMES

Orqa suzgich qanotidan keyin yumshoq, seret yog' suzgich qanoti joylashgan. Orqa suzgich qanotida 7-16 ta, anal suzgich qanotida 7-19 ta yumshoq shu'falari bor. Qorin suzgich qanotlari orqa suzgich qanotining tagida joylashgan.

Orol dengizida, Amudaryo va Sirdaryoda *Lososlar* – *Salmonidae* oilasiga va *Lososlar* – *Salmo L.* urug'iga mansub bo'lgan *Gulmoy* yoki *Forel* – *Salmo trutta L.* turi yashaydi.

SUVDA HAMDA QURUQDA YASHOVCHILAR SINFI – AMPHIBIA

Suvda hamda quruqda yashovchilar quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlar ichida eng soddasi bo'lib, suvda yashovchi ajdodlarning belgilarini hali o'zida saqlab qolgan bo'ladi. Metamorfоз yo'l bilan rivojlanadi. Lichinkasi (itbaliq) faqat suvda yashaydi.

Voyaga yetgan ko'pchilik amfibiyalarning ikki juft oyog'i bo'ladi. Terisi ustida epiteliy hosilalari bo'lmaydi. Lekin u shilimschiq modda bilan qoplangan. Lichinkalarida tarmoqlangan tashqi jabralar bo'ladi. Voyaga yetganlarida bu jabralar reduksiyaga uchraydi. Bular o'pka va terisi orqali nafas oladi, shuning uchun ham terisi ustida hosilalar (tangachalar, soch, jun) bo'lmaydi. Tana temperaturasi tashqi muhitga bog'liq, chunki bu hayvonlar sovuqqonlilar guruhiga kiradi.

O'zbekistonda suvda hamda quruqda yashovchilarning 2 turi yashaydi, ular dumsizlar turkumiga mansubdir.

DUMSIZLAR TURKUMI (БЕСХВОСТЫЕ) – ESCAUDATA

Suvda hamda quruqlikda yashovchilarning dumsizlar turkumiga kiradigan vakillarining tanasi yerbar, kalta va yalpoq bo'lib, dumi bo'lmaydi. Oldingi oyoqlari kalta, keyingi oyoqlari uzun va sakrashga moslashgan. Lichinkalari (itbaliq) ning tanasi yumaloq yoki oval shaklda bo'lib, dumi uzun va yon tomondan qisilgan.

O'zbekistonda uchraydigan suvda hamda quruqlikda yashovchilar ikkita oilaga mansub.

Dumsizlar turkumining oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Tilining orqa uchi kesilmagan. Yuqorigi jag'ida tishlari yo'q.

Qurbaqalar (Жабы) – *Bufo* *viridis* (29-bet).

2 (1) Tilining orqa uchi ayri, ikkiga bo'lingan. Yuqorigi jag'ida tishlari bor.

Baqalar (Лягушка) – *Rana* *viridis* (29-bet).

Qurbaqalar oilasi (Жабы) – Bufonidae

Tanasi serbar va kalta, keyingi oyoqlari ancha yo'g'on, boshi yalpoq bo'ladi. Terisida bo'rtmalar bor. Ko'z qorachig'i gorizontaal yoriq shaklida. Keyingi oyoqlarning barmoqlari orasida suzgich pardasi yo'q. Tishi bo'lmaydi.

O'zbekistonda bu oilaning qurbaqalar urug'i – *Bufo* Laur. va *yashil qurbaqa* (*Зеленая жаба*) *Bufo viridis* Laur. turi yashaydi.

Baqalar oilasi (Лягушка) – Ranidae

Keyingi oyoqlari oldingisiga nisbatan uzun va baquvvat bo'ladi. Oldingi oyoqlarining barmoqlari orasida suzgich pardasi bo'lmaydi. Yuqorigi jag'ida tishlari bo'ladi.

O'zbekistonda bu oilaning bittagina baqalar urug'i (*Rana L.*) va *ko'l baqasi* (*Олепная лягушка*) – *Rana ridibunda* Pallas turi yashaydi.

Suvda va quruqda yashovchi dumsiz hayvonlarning lichinkalarini aniqlash jadvali

1 (2) Orqa chiqaruv teshigi tanasining o'ng tomonida joylashgan. Dum tanasidan 1,5 marta uzun.

Ko'l baqasi (*Олепная лягушка*) – *Rana ridibunda* Pallas.

2 (1) Orqa chiqaruv teshigi tanasining o'rtasida joylashgan. Ko'zlarining orasi burnining orasiga nisbatan 1,5 marta keng.

Yashil qurbaqa (*Зеленая жаба*) – *Bufo viridis* Laur.

SUDRALIB YURUVCHILAR SINFI – REPTILIA

Sudralib yuruvchilar haqiqiy quruqda yashovchi umurtqali hayvonlar hisoblanadi. Tanasi bosh, bo'yin, qorin va dum qismlariga bo'linadi. Besh barmoqli to'rtta oyog'i harakat organi bo'lib xizmat qiladi (ba'zilar oyoqsiz bo'lishi ham mumkin). Terisida hech qanday bezlar yo'q va shox tangachalar yoki qalqonchalar bilan qoplangan. Tana temperaturasi o'zgaruvchan. Skeleti to'liq suyaklangan. Bosh skeletining ensa qismida bitta ensa bo'rtmasi bo'ladi.

Sudralib yuruvchilarni aniqlash vaqtida terisini qoplagan tangacha va qalqonchalar katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda sudralib yuruvchilarning 58 turi yashaydi. Ular 2 turkumga mansub.

Sudralib yuruvchilarning turkumlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasi suyak qalqon ichida joylashgan va qalqonlari ustida shox plastinkalar bor.

Toshbaqalar (Чепенaxu) – Chelonia (30-bet).

2 (1) Terisi mayda shox tangachalar yoki bo'rtmalar bilan qoplangan.

Tangachalilar (Чешуйчатые) – Squamata (31-bet).

TOSHBAQALAR TURKUMI (ЧЕПЕНАХИ) – CHELONIA

Toshbaqalar sudralib yuruvchilarning qadimgi guruhi hisoblanadi. Tanasi pishiq qalqon ichida joylashgan. U bo'rtib chiqqan orqa va yassiroq qorin qalqonlariga bo'linadi. Jag'i shox moddadan iborat tumshuq bo'lib, tishi yo'q.

O'zbekistonda bittagina turi – cho'l toshbaqasi (*Стенная чепенaxa – Testudo horsfieldi* Gray yashaydi. U quruqlik toshbaqalari (*Сухонимные чепенaxu) – Testudo L.* urug'iga, bitta nominal oilaga (*Testudinidae*) va yashirin bo'yinli toshbaqalar (*Cryptodira*) kenja turkumiga mansubdir.

TANGACHALILAR TURKUMI (ЧЕШУЙЧАТЫЕ) – SQUAMATA

Tangachalilarning terisi shox moddadan tuzilgan tangachalar, qalqonchalar yoki bo'rtmalar bilan qoplangan. Jag'larida tishi bor.

O'zbekistonda tangachalilarning 57 turi uchraydi. Ular 2 ta kenja turkumga bo'linadi.

Tangachalilarning kenja turkumlarini aniqlash jadvali

1 (2) Odatda, oyoqlari bo'ladi. Agar oyoqlari bo'lmasa, ko'zlarida harakatchan qovoqlari bo'ladi.


Kaltakesaksimonlar (Ящерицы) – Lacertilia (31-bet).

2 (1) Oyoqlari yo'q. Qovoqlari qo'shilib ketadi va ko'zining tashqi yaltiroq pardasini tashkil qiladi.

Ilonlar (Змеи) – Serpentes (43-bet).

Kaltakesaksimonlar kenja turkumi – Lacertilia

Sudralib yuruvchilarning asosiy guruhi bo'lib, odatda, dum va oyoqlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ba'zilarining oyog'i bo'lmasligi ham mumkin.



7-rasm. Kaltakesaklarning boshida qalqonchalarning joylashishi: a – tildan ko'rinishi; b – yon tomondan ko'rinishi; 1 – jag'lar oralig'i; 2 – burun oldi; 3 – burun orqasi; 4 – burun-reshana; 5 – reshana oldi; 6 – reshana; 7 – reshana-tepa; 8 – tepa-oraliq; 9 – ensa; 10 – tepa; 11 – chukka usti; 12 – ko'z usti; 13 – kiprik usti; 14 – yonoq; 15 – chukka markazi; 16 – quloq; 17 – lab usti; 18 – iyak osti; 19 – labning pasti; 20 – pastki jag' qalqonchalari; 21 – burun teshigi; 22 – quloq teshigi.

Kaltakesaksimonlarni aniqlashda boshidagi qalqonchalarning joylashishiga va soniga (**7-rasm**) e'tibor beriladi. O'zbekistonda kaltakesaksimonlarning 21 turi yashaydi. Ular 6 oilaga bo'linadi.

Kaltakesaksimonlarning oilalarini aniqlash jadvali

1 (6) Boshi ustki tomondan noto'g'ri shakldagi mayda qalqonchalar, tangachalar yoki bo'rtmachalar bilan qoplangan.

2 (3) Harakatchan qovoqlari yo'q. Ko'zlari yaltiroq shox parda bilan qoplangan.

Gekkonlar (Гекконовые) – Gekkonidae (33-bet).

3 (2) Ko'zlari harakatchan qovoqlar bilan o'ralmagan. Ko'zlarida yaltiroq shox parda yo'q.

4 (5) Burun teshiklari ko'zining oldingi qirrasiga nisbatan tumshug'ining uchiga yaqin joylashgan.

Agamalar (Агамовые) – Agamidae (36-bet).

5 (4) Burun teshiklari tumshug'ining uchiga nisbatan ko'zlarining oldingi qirrasiga yaqin joylashgan.

Echkekarlar (Ечкекаровые) – Varanidae (38-bet).

6 (1) Boshi ustki tomondan simmetrik joylashgan yirik (shox moddadan tuzilgan) qalqonchalar bilan qoplangan.

7 (9) Tanasi ilonsimon bo'lib, oyoqlari yo'q. Tanasining ikki yon tomonida uzun burmalar bo'ladi.

Ur-chuqsimonlar (Веремеицевоые) – Anguillidae (38-bet).

8 (7) Oyoqlari bor.

9 (10) Tangachalari cherepitsa singari joylashgan. Orqa va qorin tangachalari bir xil shaklda.

Ssinklalar (Сцинковые) – Scincidae (38-bet).

10 (9) Orqa va qorin tangachalari shakli va joylanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Haqiqiy kaltakesaklar (Настоящие ящерицы) – Lacertidae (39-bet).

Gekkonlar oilasi (Гекконовые) – Gekkonidae

Gekkonlar mayda kaltakesaklar bo'lib, tanasi bir oz yassi, ko'zlari yirik, lekin harakatchan qovoqlari bo'lmaydi. Ko'z qorachig'i, odatda, vertikal joylashgan. Terisi mayda donasimon bo'rtmachalar bilan qoplangan.



8 - rasm. Har xil gekkonlar orqa oyoq barmoqlarining tuzilishi:

a – ssinksimon gekkonniki; b – gekkonchankiki;

d – yalang'och barmoqli gekkonniki.

Gekkonlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (4) Keyingi oyoq barmoqlarining yon tomonlarida shox moddadan iborat o'simtalar bo'ladi (7-rasm, a).

2 (3) Dumi ustining asosiy qismi rombsimon mayda tangachalar, uchi bir qator yirik cherepitsasimon plastinkalar bilan qoplangan. Barmoqlarining tagida mayda bo'rtmachalar bo'ladi.

Ssinksimon gekkonlar (Сцинковые gekkonы) – Terato-scincus Stranch.

Turi *ssinksimon gekkon (Сцинковый gekkon) – Teratoscincus scincus* Schl. O'zbekistondagi qumli cho'llarda tarqalgan.

3 (2) Dumining usti bir tekis mayda tangachalar bilan qoplangan. Barmoqlarining tagida ko'ndalang plastinkalar bo'ladi.

Taroq barmoqli gekkonlar (Гребенчатые gekkonы) – Crossobamon Beut.

Turi *taroq barmoqli gekkon (Гребенчатый gekkon) – Crossobamon evermanni* Wieg. Respublikamizning janubiy va g'arbiy tumanlarida tarqalgan.

4 (1) Keyingi oyoq barmoqlarining yon tomonlarida shox moddadan iborat o'simtalar bo'lmaydi (8-rasm, b,d).

5 (6) Keyingi oyoq barmoqlarining uchi yon tomondan qisilmagan. Barmoqlari to'g'ri.


Gekkonchalar (Геккончики) – Alsophylax Fitzinger (34-bet).

6 (5) Keyingi oyoq barmoqlarining uchi yon tomondan kuchli qisilgan. Barmoqlari qiyshiq.

Yavdoq barmoqli gekkonlar (Голопалые gekkonы) – Gymnodactylus Spix (35-bet).

Gekkonchalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (5) Tanasining orqa tomonida cherepitsasimon mayda tangachalar orasida shox moddadan iborat yirik bo'rtmalar bo'ladi yoki orqasi butunlay bo'rtmachalar bilan qoplangan (9-rasm, a).



9 - rasm. Har xil gekkonlarning dumidagi tangachalar:

a - kulrang gekkonniki; b - kaspiy gekkonniki.

2 (4) Tanasining orqa tomonidagi bo'rtmachalar tartibsiz joylashgan. Orqasida qoramir ko'ndalang chiziqlar bor.

3 (4) Dumi yassi tangachali halqalar bilan qoplangan.

Chiyildoq gekkoncha (*Пискливый gekkonчик*) - *Alsophylax pipiens* Pall.

Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

4 (2) Tanasining orqa tomonida uch qirrali bo'rtmachalar qator bo'lib joylashgan. Orqasida chiziq va dog'lar yo'q.

Qalqonli gekkoncha (*Панцирный gekkonчик*) - *Alsophylax loricated* Strauch.

Xovos yaqinida topilgan.

5 (1) Tanasining orqa tomoni bir xil silliq tangachalar bilan qoplangan. Tangachalar orasida bo'rtmachalar bo'lmaydi.

Silliq gekkoncha (*Плавкий gekkonчик*) - *Alsophylax laevis* Nikol.
Yerniz atrofidagi tog'-qilarda yashaydi.

Yaydoq barmoqli gekkonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (3) Dumidagi tangachalar ketma-ket joylashgan segmentlar hosil qiladi. Segmentlarning har biri orasida, dumining ustida yirik, qirrali, uch o'rtli tangachalar bo'rtmachalar joylashgan.

Kulrang gekkon (*Серый золотистый gekkon*) - *Gymnodactylus raucosus* Strauch.

Rеспублиkamizdagi g'orlarda, uylar shipida yashaydi.

2 (1) Dum segmentlarining oldingi qismi ustki tomondan silliq mayda tangachalar, keyingi qismi esa yirik, qirrali, tikansimon tangachalar bilan qoplangan (9-rasm, b).

3 (4) Orqasidagi uch qirrali yirik bo'rtmachalar ensa va boshining yon qismlariga cha yetib boradi. Ko'zlarining orqasida 8-10 ta tangacha joylashgan.

Kaspiy gekkoni (*Каспийский золотистый gekkon*) - *Gymnodactylus caspius* Eichw.

O'zbekistomning janubiy va g'arbiy tumanlarida tarqalgan.

4 (3) Orqasidagi uch qirrali yirik bo'rtmachalar oldingi oyoqlardan oldinga o'tmaydi.

Turkiston gekkoni (*Туркестанский золотистый gekkon*) *Gymnodactylus fedtschenkoi* Strauch.

Turkiston, Zarafshon, Nurota tizma tog'larida tarqalgan.

Agamalar oilasi (*Агамовые*) - *Agamidae*

Agamalarining boshi uchburchak yoki yumaloq shaklda bo'ladi. Tanasini bir oz yalpoq. Oyoqlari va dumi yaxshi rivojlangan. Boshining uch ko'p mayda tangachalar yoki bo'rtmachalar bilan qoplangan. Ko'z qora chig'iri yumaloq. Agamalar oilasi 2 ta uruqqa bo'linadi.

Agamalar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Boshining ikki yonida nog'ora pardasi yaxshi ko'rinish turadi. Boshni ustki tomondan uchburchak shaklda ko'rinadi.

Agamalar (*Агамы*) - *Agama* Daudin (36-bet).

2 (1) Nog'ora pardasi ko'rinmaydi. Boshi ustki tomondan yumaloq shaklda ko'rinadi.

To'garakboshlar (*Крылозловки*) - *Phrynoscephalus* Kaup (36-bet).

Agamalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Bo'yini orqasidan va dumining oldingi qismi ustidan aniq ajralgan taroq o'tadi. Dumi yon tomondan qisilgan.

Pavlovskiy agamasi (Azama Pavlovskozoa) - Azama pavlovskii
Gernov et Dubinin.

Turkiston tizma tog'larida uchraydi.

2 (1) Tanasining orqa qismida tarog'i yo'q. Dumi yumaloq yoki yassi.

3 (6) Dumidagi tangachalar ko'ndalang qator bo'lib joylashib, halqa hosil qilgan.

Turkiston agamasi (Typkemanickaa azama) - Azama tehmanni
Nikolskii.

O'zbekistonning janubidagi tog'li tumanlarda uchraydi.

4 (5) Dumining oldingi qismidagi tangachalar halqasi segment bo'lib joylashgan va har bir segmentda 2 tadan halqa bor.

Kavkaz agamasi (Kavkazickaa azama) - Azama caucasica Fischer
O'zbekistonning janubida uchraydi.

5 (4) Dumining oldingi qismidagi tangachalar halqasi segment hosil qiladi va har bir segmentda 3 tadan halqa bo'ladi.

Himolay agamasi (Himalayickaa azama) - Azama himalayana
Steind.

Surxondaryo viloyatidagi tog'larda uchraydi.

6 (3) Dumidagi tangachalar egri qator hosil qilib joylashgan va halqa hosil qilmaydi.

Cho'l agamasi (Chennaa azama) - Azama sanguinolenta Pallas.

O'zbekistondagi tekislik va cho'llarda yashaydi.

To'garakboshlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Og'iz burchaklarida kalta teri burmalari bor.

Qizilquloq (Yuacnaa kryzozozoa) - Phrynocephalus mustaceus Pallas.

O'zbekistonning cho'l tumanlarida tarqalgan.

2 (1) Og'iz burchaklarida teri burmalari yo'q.

3 (4) Sonlarning keyingi qirrasida va dumining asosiy qismi yonlarida uzun oq tikanli tangachalar qator bo'lib joylashgan. Dumi yassi.

Qum to'garakboshi (Pechanaa kryzozozoa) - Phrynocephalus interscapularis L.

Respublikamiz cho'llarida tarqalgan.

4 (3) Sonlarida va dumida tikanli tangachalar yo'q, dumi yumaloq bo'ladi yoki faqat asosiy qismi yassi bo'lishi mumkin.

5 (6) Bo'yining uski yuzasida ko'ndalang joylashgan chuqur teri burmasi bor. Keyingi oyoqlarining 3-va 4-barmoqlari yonida tikanli tangachalardan hosil bo'lgan taroqchalar joylashgan.

Tugay to'garakboshi (Tachpnaa kryzozozoa) - Phrynocephalus belliocepus Pallas.

Respublikamizdagi taqir cho'llarda tarqalgan.

6 (5) Bo'yining ustida aniq ajralib turadigan ko'ndalang teri burmasi yo'q.

7 (8) Orqasi bo'ylab baland ko'tarilgan ikki qator tangachalar joylashgan. Ko'zlarning orasidagi tangachalar soni 17 ta dan oshmaydi.

Xentog' to'garakboshi (Xentaynickaa kryzozozoa) - Phrynocephalus rossikovi Nikolskii.

Xorazmda va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

8 (7) Orqasida baland ko'tarilgan tangachalar qatori yo'q. Ko'zlarning orasidagi tangachalar soni 20 ta dan ortiq.

9 (10) Ko'krigidagi va dumining uchidagi tangachalar taroqli bo'ladi.

Gajakum to'garakboshi (Kryzozozoa sermuxosnka) - Phrynocephalus guttatus Gmel.

Qoraqalpog'istonning shimolida yashaydi.

10 (9) Ko'krigidagi tangachalar silliq.

11 (12) Ensa qismidagi tangachalar tepadagi tangachalarga nisbatan 2-3 marta yirik bo'ladi. Orqasidagi ba'zi tangachalarning uchi yuqoriga bukilgan.

Ko'piz to'garakboshi (Zakacniickaa kryzozozoa) - Phrynocephalus raddai Boettg.

Janubiy Qizilqumda tarqalgan.

12 (11) Ensa qismidagi tangachalar mayda bo'lib, bosh qismidagi tangachalardak keladi. Orqadagi tangachalarning uchi yuqoriga bukilmagan.

Matrap to'garakboshi (Chennaa kryzozozoa) - Phrynocephalus reticulatus Eichw.

O'zbekistonda bu turning uchta kenja turi yashaydi, ular Farg'ona vodiyyida, Surxondaryo viloyatida va Qizilqumda tarqalgan.

Echkemalar oilasi (Варановые) – Varanidae

Bular MDH hududida tarqalgan kaltakesaklarning eng kattasi hisoblanadi. Tanasining uzunligi 160 sm gacha yetadi. Oyoqlari va dumi yaxshi rivojlangan. Boshi ustki tomondan mayda qalqonchalar bilan qoplangan. Tili uzun, uchi ikkiga ajralgan. Ko'z qorachig'i yumaloq. MDHda va O'zbekistonda echkemalarning nominal urug'i (*Varanus Merrem*) va bo'z echkemalar turi (*Serpis varan* – *Varanus griseus Daud*) tarqalgan.

Urchuqlilar oilasi (Веретенниковые) – Anguidae

Bular oyoqsiz kaltakesaklardir, tanasi ilonsimon bo'ladi. Boshi simmetrik joylashgan yirik qalqonchalar bilan qoplangan. Qovoqlari harakatchan. O'zbekistonda sariqilon urug'iga (*Ophisaurus Daudin*) mansub sariqilon turi (*Jemomyzus*) – *Ophisaurus apodus Pallas* tarqalgan.

Ssinklalar oilasi (Сцинковые) – Scincidae

Boshi simmetrik joylashgan yirik qalqonchalar bilan qoplangan. Terisidagi tangachalar yumaloq yoki romb shaklida, orqa va qorin qismini qoplagan tangachalar bir xilda. O'zbekistonda ssinklarning uchta urug'i uchraydi.

Ssinklarning urug'larini aniqlash jadvali

1 (4) Ustki va pastki qovog'i qo'shilmagan va harakatchan.
2 (3) Orqa chiqaruv teshigining oldida bir nechta mayda tangachalar joylashgan. Pastki qovog'ida yaltiroq disk bor. Burun teshiklarining har biri bitta qalqoncha bilan o'ralgan.

Mabuyalar (Mabuya) – *Mabuya Fitzin*.

Bizda *olintang mabuya* turi (*Золотистая мабуя*) – *Mabuya aurata* L. tarqalgan.

3 (2) Orqa chiqaruv teshigining oldida ikkita yirik qalqoncha joylashgan. Pastki qovog'ida yaltiroq disk yo'q. Burun teshiklarining har biri 2 ta qalqoncha orasida joylashgan.

Uzun oyoqli ssinklalar (Длиннонозие сцинки) – *Eumeces Wiegmann*
Turi uzun oyoqli ssink (*Длиннонозуй сцинк*) – *Eumeces schneideri* Daudin. O'zbekistonning markaziy va janubiy tumanlarida tarqalgan.

4 (1) Ustki va pastki qovoqlari bir-biri bilan qo'shilib ketgan. Ko'z yuzasida yaltiroq parda hosil bo'ladi.

Ilonqayruqlar (Позозлы) – Ablepharus Licht (39-bet).

Ilonqayruqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasining o'rtasida aylanasiga joylashgan tangachalar soni 25 tadan ko'p.

2 (1) *Qizil ilonqayrug'i (Азиатский золотозлы)* – *Ablepharus alaicus* (Ponchatinsky).

Tashkent viloyatidagi tog'larda yashaydi.

3 (4) Tanasining o'rtasida aylanasiga joylashgan tangachalar soni 25 tadan kam.

4 (4) Dumi tanasidan 1,5 marta uzun.

5 (1) *Ilonqayrug'i (Пустынный золотозлы)* – *Ablepharus deserti* Strauch.

Respublikamizda keng tarqalgan.

6 (3) Dumining uzunligi tanasiga nisbatan 1,5 martadan oshmaydi. Tanasining o'rtasidagi qatorida 20-22 ta tangachalar bo'ladi.

7 (1) *Qizil ilonqayrug'i (Азиатский золотозлы)* – *Ablepharus brandti* Strauch.

O'zbekistonning markaziy va janubiy tumanlarida yashaydi.

ASL KALTAKESAKLAR OILASI

(НАСТОЯЩИЕ ЯЩЕРИЦЫ) – LACERTIDAE

Boshi ustki tomondan simmetrik joylashgan yirik qalqonchalar bilan qoplangan. Qornida va yon tomonlarida cherepitsasimon joylashgan tangachalar yoki bo'rtmachalar bor. Son teshiklarining bo'lishi kaltakesaklarga xos belgidir.

Kaltakesaklarning urug'larini aniqlash jadvali


1 (2) Burun teshiklari 2-3 ta burun qalqonchalari bilan o'ralgan. Burun teshiklari birinchi ustki lab qalqonchasiga tegib turadi. Burun qalqonchalari bo'rtma hosil qilmaydi. Peshana qalqoni enli va silliq bo'ladi.

Kaltakesaklar (Ящерицы) – *Lacerta* L.


Biri tez kaltakesak (*Примская ящерица*) – *Lacerta agilis* L. Respublikamizning shimoli-sharqida uchraydi.

2 (1) Burun teshiklari 3-4 ta burun qalqonchasi bilan o'ralgan bo'lib, birinchi ustki lab qalqonchasiga tegmaydi. Burun qalqonchalari bo'rtma hosil qiladi. Peshana qalqonchasi bor, o'rtasida egatcha bo'ladi.

Kaltakesakchalar (Яууьку) – Eremias Wiegmann (41-bet).



10-rasm. To'r kaltakesakchanning orqa oyoq barmoqlari.



11-rasm. O'rtacha kaltakesakcha sonining pastki yuzasi:
1 - son teshiklari; 2 - boidir qismining pastki yuzasidagi qalqonchalar.

Kaltakesakchalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Orqa oyoqlarining hamma barmoqlarida yoki faqat uchta tangachalar tomonlari bo'ylab yassi, o'tkir, uchburchak shox

2 (3) Orqa oyoqlarining uchinchi va to'rtinchi barmoqlari tagida taroqchalar bo'lmaydi. Ko'z osti qalqonchasi og'iz qirrasiga tegmaydi.

To'r kaltakesakcha (*Cemyamaa яууьку*) – *Eremias grammica* Licht.

O'zbekistonning shimoli-g'arbiy tumanlarida tarqalgan.

3 (2) Orqa oyoqlarining uchinchi va to'rtinchi barmoqlari tagida taroqchalar bo'ladi. Ko'z osti qalqonchasi og'iz qirrasiga tegib turadi.

Targ'il kaltakesakcha (*Полооамас яууьку*) – *Eremias scripta* Strauch.

Respublikamizdagi cho'llarda yashaydi.

4 (1) Orqa oyoqlarining barmoqlari yonida shox tangachalar taroq'li bo'lmaydi.

5 (4) Sonlari pastki yuzasining ko'p qismi bir qator ko'p qirrali yirik yassi shox qalqonchalar bilan qoplangan; bular atrofdagi qalqonchalariga nisbatan uch marta yirik bo'ladi (11-rasm).


6 (7) Dumining 9-10 halqalaridagi tangachalar soni 15 ta dan kam. Dumining ustki yuzasidagi tangachalar uchi o'tkir taroq hosil qiladi.

Chiziqli kaltakesakcha (*Пунейчамас яууьку*) – *Eremias lineolata* Nikol'skii.

O'zbekistondagi tekisliklarda tarqalgan.

7 (6) Dumining 9-10 halqalaridagi tangachalar soni 15 ta dan ko'p. Orqasi bo'ylab 4 yoki 6 qator qoramtir chiziq o'tadi.

O'rtacha kaltakesakcha (*Среюная яууьку*) – *Eremias intermedia* Strauch.



12-rasm. Har xil kaltakesakchalar boshining oldingi qismi:
a - ildam kaltakesakcha; b - shitraux kaltakesakchasi; 1 - peshana oldi qalqonchasi; 2 - peshana oraliq qalqonchasi.

Respublikamizdagi qumliklarda yashaydi.

8 (9) Ko'z usti qalqonchasi peshana va tepa-peshanasidagi shox bo'rtmalar qatoridan ajralmagan. Ko'z osti qalqonchasi og'iz qirrasiga tegmaydi.

Qorako'zchali kaltakesakcha (Черноглазчатая ящурка) – Eremias nigrocellata Nikol'skii.

Surxondaryo viloyatidagi cho'lllarda tarqalgan.

9 (8) Ko'z usti qalqonchasi peshana va tepa-peshanasidagi shox bo'rtmalar qatoridan ajralgan.

10 (13) Burun-peshana va peshana oldi qalqonchalarining orqasida kichkinagina peshana-burun oraliq qalqonchasi yo'q (12-rasm).

11 (12) Peshana qalqonchasining o'rtasida ariqcha bor. Dumii, odatda, tanasidan 1,5-2 marta uzun.

Ildam kaltakesakcha (Быстрая ящурка) – Eremias velox Pallas.

Respublikamizning tog'li tumanlaridan tashqari hamma joyda keng tarqalgan.

12 (11) Peshana qalqonchasi silliq yoki ariqchasi yaxshi bilinmaydi. Dumii, odatda, tanasidan uzun emas.

Nikolskiy kaltakesakchasi (Ящурка Никольского) – Eremias nikolskii Bedriagai.

Farg'ona vodiysi tog'larida tarqalgan.

13 (10) Peshana-burun va peshana oldi qalqonchalarining o'rtasida uchburchak shakldagi kichik peshana-burun oraliq qalqonchasi bor.

Tojik kaltakesakchasi (Таджикская ящурка) – Eremias regeli Bedriagai.

Surxondaryo viloyatidagi tog' etaklarida tarqalgan.

14 (5) Sontlarining pastki yuzasida 2-3 qator qalqonchalar bor, tashqi qator qalqonchalari atrofdagi qalqonchalarga nisbatan uch martadan ortiq yirik emas.


Rang-barang kaltakesakcha (Разноцветная ящурка) – Eremias arguta Pallas.

Respublikamizda keng tarqalgan.


ILONLAR KENJA TURKUMI (ЗМЕИ) – SERPENTES

Tanasi uzun, oyoqsiz sudralib yuruvchilar hisoblanadi. Ba'zilarida orqa oyoqlarining tirmoqsimon rudimenti bo'ladi. Ustki va pastki qovoqlari yo'qolib ketgan. Ko'zlari harakatsiz yaltiroq parda bilan qoplangan. Terisi shox tangachalar va qalqonchalar bilan qoplangan.

Qalqonchalari tanasining qorin qismida ko'ndalang joylashgan. Ilonlarni aniqqatda tanasidagi tangachalarning soni, boshidagi qalqonchalarning joylashish holati katta ahamiyatga ega (13-14-rasmlar).



13-rasm. Ilonning boshida qalqonchalarning joylashishi: a – ustidan ko'rinishi; b – pastdan ko'rinishi; c – yonidan ko'rinishi: 1 – jag' oraliq'i; 2 – burun oraliq'i; 3 – peshana oldi; 4 – peshana; 5 – bosh usti; 6 – ko'z usti; 7 – iyak osti; 8 – pastki lab; 9 – qorin; 10 – pastki jag'; 11 – burun; 12 – yonog'i; 13 – ko'z oldi; 14 – ko'z orqasi; 15 – birinchi chakka qatori; 16 – ikkinchi chakka qatori; 17 – lab usti; 18 – ko'z osti qalqonchalari.



14-rasm. Ilon tanasidagi tangachalar qatorini sanash.

Ilonlarning oilalarini aniqlash jadvali

- (2) Ko'zlari shox qalqonchalar bilan o'ralgan bo'lib, ular orasidan qoramtir dog'dek ko'rinib turadi. Orqa va qorin tomonlari bir xil tangachalar bilan qoplangan. Umumiy ko'rinishi chuvalchangsimon.
Ko'rilonlar (Cnemidophorus) – Typhlopidae (45-bet).
- (1) Ko'zlari shox qalqonchalar bilan o'ralmagan va yaxshi ko'rinadi. Tanasining orqa tomoni mayda tangachalar bilan, qorin tomoni ko'ndalang joylashgan qalqonchalar bilan qoplangan.
- (4) Qorin qalqonchalari ensiz bo'lib, tanasining pastki qismini butunlay qoplamaydi. Anal teshigi atrofida orqa oyoqlarining tirnoqsimon rudimentlari bo'ladi.

Bo'g'ma ilonlar (Viperidae) – Boidae (45-bet).

- (3) Qorin qalqonchalari enli bo'lib, tanasining qorin qismini butunlay qoplaydi. Orqa oyoqlarning rudimentlari yo'q.
- (10) Tumshug'ining yon tomonida, burun teshiklari bilan ko'zlarning orasida chuqurcha bo'lmaydi.
- (9) Boshining oldingi qismi ustki tomondan simmetrik joylashgan yirik qalqonchalar bilan qoplangan. Ko'z qorachig'i yumaloq.
- (8) Yuqorigi jag'ining oldingi qismida uzun zahar tishlari bo'lmaydi.

Suvilonlar (Vespa) – Colubridae (46-bet).

- (7) Yuqorigi jag'ining oldingi qismida uzun zahar tishlari bo'ladi.
Aspidlar (Acnoidae) – Elapidae (48-bet).
- (6) Boshining oldingi qismi ustki tomondan mayda tangachalar yoki qalqonchalar bilan qoplangan. Ko'z qorachig'i vertikal joylashgan.

Qora ilonlar (Taeniopidae) – Viperidae (48-bet).

- (5) Tumshug'ining yon tomonida – burun teshiklari bilan ko'zlarining orasida chuqurcha bo'ladi. Chuqurchaning diametri burun teshigining diametridan katta.

Shaqildiq ilonlar (Amphiscolopidae) – Grotalidae (49 bet).

Ko'rilonlar oilasi (Сленозмейка) – Typhlopidae

Tanasi kichik bo'lib, yomg'ir chuvalchanglariga o'xshaydigan ilon. Tanasi cherepitasimon silliq tangachalar bilan qoplangan. Kaltagina dumi tikancha bilan tugaydi. Ko'zlari shox qalqonchalar bilan o'ralgan. O'zbekistonda bu oilaning bitta nominal urug'i – *Typhlops Opper* va bitta *ko'rilon* turi *Typhlops vermicularis* Mer. tarqalgan bo'lib, Turkiston tizma tog'laridan topilgan.

Bo'g'ma ilonlar oilasi (Удавовые) – Boidae

Qorin tomonidagi ko'ndalang joylashgan qalqonchalar butun qorin qismini qoplamaydi. Orqa oyoqlarining barmoqsimon rudimentlari bor. Ko'z qorachig'i vertikal joylashgan.

O'zbekistonda *bo'g'ma ilonchalar (Viperidae) – Erix* Daudin urug'ining ikkita turi tarqalgan.

Bo'g'ma ilonchalarning turlarini aniqlash jadvali

- (2) Ko'zlari yuqoriga qaragan. Ko'zlarining orasidagi masofa ko'z bilan og'iz burchagi orasidagi masofaga nisbatan ancha kichik.

Qum bo'g'ma ilonchasi (Pescariya yodavaya) – Eryx miliaris Pallav.

O'zbekistonning cho'l tumanlarida tarqalgan.

- (1) Ko'zlari yon tomonga qaragan. Ko'zlarining orasidagi masofa ko'z bilan og'iz burchagi orasidagi masofaga teng yoki undan bir oz katta. Qorin tomonida qora dog'lar bor.

Shuq bo'g'ma ilonchasi (Bosmoniya yodavaya) – Eryx tataricus Lohb.

Respublikamizdagi tog' etaklarida va cho'llarda yashaydi.

Suvilonlar oilasi (Ужовые) – Colubridae

Tanasi uzun va ingichka bo'lib, bo'yni boshidan yaxshi ajralib turadi. Dumi ingichka va uchi o'tkirlashgan. Boshi simmetrik joylashgan yirik qalqonchalar bilan qoplangan. Qorin qalqonchalari tanasining butun qorin tomonini qoplab turadi. O'zbekistonda bu oilaning 5 ta urug'i tarqalgan.

Suvilonlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- (2) Tanasining orqa tomonini qoplab olgan tangalar ustida aniq tutilib turadigan taroqchalari bor.

Suvilonlar (Vespa) – Natrix Leur.

Turi *suvilon (Водная уж)* – *Natrix tessellata* L.

O'zbekistondagi hamma suv havzalarida yashaydi.

Asl chuporilonlar (Позы) – Coluber L.(47-bet).

- (4) Yuqori jag'ida tishlari o'zaro bir xil masofada joylashgan. Peshana qalqonchasining yon qirralari tekis bukilimgan.

O'rmdolovchi chiporilonlar (Лазяющие полозы) – Elaphe Fitzinger (47-bet).

6 (8) Tanasining o'rtta qatorida 17 ta tangacha bo'ladi.
Qum ilonlari (Песчаные змеи) – Psammophis Fitzinger.

Turi o'qilon (*Смуглая змея*) – *Psammophis lineolatum* Brandt.
Respublikamizning cho'llarida va tog' etaklarida tarqalgan.

7 (3) Ko'z qorachig'i urchuqsimon uzun, vertikal joylashgan.

8 (9) Tanasining o'rtta qatorida 19-21 ta tangacha bo'ladi. Orqa tomonining o'rtta qatoridagi tangachalar serbar bo'ladi. Burun teshiklarining har biri ikkita qalqoncha orasida joylashgan.
Boygalar (Бойзу) – Boiga Fitzinger.

Turi boygа – *Boiga trigonatum* Schneider. Respublikamizning janubidagi Sherobod atrofida topilgan.

9 (8) Tanasining o'rtta qatorida, odatda, 17 ta tangacha bo'ladi. Yuqorigi jag' tishlari bir-biridan oraliq bilan ajralgan va ikki guruh bo'lib joylashgan.

Bo'ritishlar (Волкозубы) – Lycodon Boie
Turi ko'ndalang yo'lli bo'ritish (*Поперечнополосатый волкозуб*) – *Lycodon striatum* Schaw. Chirchiq, Bekobod, Samarqand va Termiz atroflaridan topilgan.

Asl chiporilonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali
1 (4) Tanasining o'rtta qatoridagi tangachalar soni 21 ta dan kam bo'lmaydi.

2 (3) Ko'zlari yuqorigi lab qalqonchalariga tegmaydi.
Xoldor chiporilon (Памутский полоз) – Coluber tyria L.
O'zbekistonning cho'l tumanlarida yashaydi.

3 (2) Ko'zlari yuqorigi lab qalqonchalariga tegib turadi.
Rang-barang chiporilon (Разноцветный полоз) – Coluber ravergieri Men.

Respublikamizda keng tarqalgan.
4 (1) Tanasining o'rtta qatoridagi tangachalar soni 19 ta dan ko'p bo'lmaydi.

5 (6) Ko'zlari yuqorigi ikkita lab qalqonchalariga tegib turadi.
Keyingi ko'z osti qalqonchasi bo'lmaydi.

Qizil chiziqli chiporilon (Краснополосый полоз) – Coluber rhodorhachis Ian.

Respublikamizdagi tog' etaklarida uchraydi.

6 (5) Ko'zlari yuqorigi labning bitta qalqonchasiga tegadi. Ko'z orqa qalqonchasining tagida cho'ziq ko'z osti qalqonchasi bor.

Ko'ndalang, yo'lli chiporilon (Поперечнополосатый полоз) – Coluber karelini Brandt.

O'zbekistonning cho'l tumanlarida tarqalgan.

O'rmdolovchi chiporilonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali
1 (2) Tera qalqonchasi pastga, ko'z orqa qalqonchasiga tegib turadi.

To'rt chiziqli chiporilon (Четырехполосый полоз) – Elaphe quatuorlineata Lacép.

Ustyurtda uchraydi.

2 (1) Tera qalqonchasi pastki ko'z orqa qalqonchasiga tegmaydi.
Guldor chiporilon (Узорчатый полоз) – Elaphe

Respublikamizda keng tarqalgan ilon.
Aspidoflar oilasi (Аспидовые) – Elapidae

Boshi yirik qalqonchalar bilan qoplangan. Chakkа qalqonchasi bo'lmaydi. Yuqorigi jag'ining oldingi qismida yirik tashar tishlari bor. Ikki qator dum osti qalqonchalari bo'ladi.

O'zbekistonda ko'zoynakli ilonlar – *Naja Laureri* – *Naja neja* L. yashaydi.

Qora ilonlar oilasi (Гадюковые) – Viperidae
Tanasi serbar, boshli yalpoq, uchburchak shakl tangachalar bilan ushki tomondan (xuddi yalpoq, uchburchak shakl tangachalar bilan qoplangan. Ko'z qorachig'i vertikal joylashgan. O'zbekistonda 2 ta urug'ining turlari tarqalgan.

Qora ilonlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali
1 (2) Dumining pastki tomonida 2 qator dum osti qalqonchalari bor.

Qora ilonlar (Гадюка) – Vipera Laur (48-bet).
2 (1) Dumining pastki tomonida bir qator dum osti qalqonchalari bor.

Charxilonlar (Эфа) – Echis Merren
Turi qum charxiloni (*Песчаная эфа*) – *Echis carinata* Schneider.

O'zbekistonning janubiy tumanlarida yashaydi.

Qora ilonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali
1 (2) Ko'zlarining ushki tomonida mayda tangachalar joylashgan. Dum osti qalqonchalari 40 juftdan ortiq.
Ko'lvor ilon (Гюрза) – Vipera lebetina L.

Turkiston, Zarafshon, Nurota, Hisor, Ko'hitang tog'larida tarqalgan.

2 (1) Dum osti qalqonchalari 20 juftga yetmaydi. Boshining eng keng joyi og'iz burchagi bilan tumshug'ining uchigacha bo'lgan masofadan kam.

Dasht qora iloni (Cnemidax zardoka) – Vipera ursini Bonaparte.
Chirechiq vodiysida, Xovos atrofiga, Chotoql tog'larida yashaydi.

Shaqildiq ilonlar oilasi (Ямкорояные) – Crotalidae
Ko'zi bilan burun teshigi o'rtasida chuqurcha bo'ladi. Boshi uchburchak shaklda bo'lib, ustki tomoni yirik qalqonchalar bilan qoplangan. Tangachalarning ustida taroqchalar bo'ladi. Dumining ostida ikki qator dum osti qalqonchalari bor. O'zbekistonda bosh ilonlar urug'i *Ancistradon Beauvois* tarqalgan. Uning *bush ilon (Обыкновенный цунномордунус) – Ancistradon halys Pallas* turi yashaydi.

QUSHLAR SINFI – AVES

Qushlar umurtqali hayvonlarning o'ziga xos va aniq ajralgan sinfidir. Qushlarning tuzilishi uchishga moslashgan. Bo'yin qismi yaxshi qiyilib turadi. Boshining oldingi qismida shox plastinkalar bilan qoplangan tumshug'i bor. Jag'larida tish bo'lmaydi. Oldingi oyoqlari qanotga aylangan. Qushlarning oyoqlari yerda yurish, shox-shabbada tinmay turish, oziqni ushlash, suvda suzish kabi vazifalarni bajaradi. Tovuq va tovon oldi suyaklarning pastki qatori qo'shilishi natijasida maxsus suyak – sevka hosil bo'lgan. Barmoq falangalari sevkaga tutashadi. Qushlarning, odatda, 4 ta barmog'i bo'ladi. Bulardan 3 tasi oldinga va bittasi orqaga qaragan. Lekin yashash sharoitiga qarab, barmoqlarning joylashishi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, qizilishton va kakkularning ikkita barmog'i oldinga, ikkitasi orqaga qaragan bo'ladi. Jarqaldirg'ochlarning to'rtta barmog'i ham oldinga qaragan.

Qushlarning dumi yelpig'ich shaklda bo'lib, dum'aza suyagiga tutashgan. Dum'aza suyagining ustida dum usti bezi joylashgan. Qushlarning terisida ter bezlari yo'q. Dum bezining yog'i patlarni namlanishdan saqlaydi va ularni yog'lab turadi. Qushlarning terisi par va pat bilan qoplangan. Patlar tana temperaturasini saqlashda va uchishda juda katta rol o'ynaydi. Patlari bir necha xilga bo'linadi:

1. *Qoquv patlari* qanotlarining asosiy uchishi yuzini tashkil qiladi va qanot-kafit suyaklariga joylashgan bo'ladi. Ular *katta qoquv patlariga* hamda *bilak suyaklariga* birikkan *kichik qoquv patlariga* bo'linadi.

2. *Rul patlari* – dumni hosil qiladi.

3. Qanotning *ustki qoplovchi patlari* – qoquv patlarini ustidan yopib turadi.

4. Qanotning *pastki qoplovchi patlari* – qoquv patlarini pastki tomondan qoplab turadi.


5. Dum patlarini *ustki va pastki tomondan qoplab turuvchi patlar*.

6. *Kontur patlar* – tanani qoplab turuvchi patlar.

7. *Par* – patlar orasida va ostida joylashadi.


Qushlarning skeleti naysimon va g'ovak suyaklardan tuzilgan. Qanotlarini harakatga keltiruvchi muskullar ko'krak toji suyagiga birikkan.

Qushlarni aniqlashga kirishishdan oldin tana qismlarning, patlarning nomi va o'lchamlarini yaxshi bilish kerak. Buning uchun 15-16-rasmlardan foydalaniladi. Qushlarni aniqlash vaqtida quyidagi o'lchamlar e'tiborga olinadi.



15-rasm. Qushning tana qismi va patlarining nomi:

- 1 – tumshug'ining usti; 2 – og'iz burchagi; 3 – tumshug'ining pasti;
 4 – peshanasi; 5 – boshining usti; 6 – ensasi; 7 – bo'yining orqa qismi;
 8 – yelkasi; 9 – orqasi; 10 – kichik qoquv patlari; 11 – beli; 12 – dumining ustki qoplovchi patlari; 13 – rul patlari; 14 – katta qoquv patlari;
 15 – dumining osti; 16 – orqa barmog'i; 17 – tashqi barmog'i; 18 – o'rta barmog'i; 19 – ichki barmog'i; 20 – sevkasi; 21 – soni; 22 – qorni;
 23 – qanotning tashqi qoplovchi patlari; 24 – ko'kragi; 25 – yelka patlari; 26 – chakkasi; 27 – tomog'i.



16-rasm. Qushning tana qismlarini o'lchash usullari:

- a – qanotning uzunligi; b – dumining uzunligi;
 c – sevkasining uzunligi; d – tumshug'ining uzunligi.

1. Qanotning uzunligi – qanoti yig'ilgan holatda kafk buklamidan to uchigacha;


2. Dumining uzunligi – o'rta rul patlarining teridan chiqish joyidan uzun rul palarning uchigacha;

3. Sevkasining uzunligi – sevkaning son bilan birlikkan oldingi qismining chuqurchadan o'rta barmoqning asosigacha;

4. Tumshug'ining uzunligi – peshanasidagi parlardan yoki burun teshiklarining oldingi qirrasidan to tumshug'ining uchigacha. Kerakli o'lehamlar lineyka, shtangensirkul yoki o'lchov lentasi (ruletka) bilan olinadi.

Qushlarning turkumlarini aniqlash jadvali

1 (4) Tumshug'ining qirralarida ko'ndalang plastinkalar yoki shox moddadan iborat tishchalar bor (17-rasm).



17-rasm. Yovvoyi o'rdak (a) va cheraqning (b) boshi:
 1 – tumshug'ining chetidagi plastinkalar; 2 – tumshug'ining chetidagi tishchalar.

2 (3) Sevkasi 200 mm dan kalta. Tumshug'i to'g'ri.
G'ozsimonlar (Плаμμυγακομοειδές) – Anseriformes (79-bet).

3 (2) Tumshug'i o'rtaidan pastga egilgan.


Qitil g'ozsimonlar (Φαλακκομοειδές) – Phoenicopteriformes (87-bet).

4 (1) Tumshug'ining qirralarida ko'ndalang plastinkalar yoki shox moddadan iborat tishchalar yo'q.

5 (10) Barmoqlari suzgich parda bilan o'zaro tutashgan. Pardaning oldingi ehti botib kirgan bo'lishi mumkin, lekin bu holda o'rta va ichki barmoqning yarmidan kalta bo'lmaydi.


6 (7) To'rta barmog'i ham suzgich parda bilan o'zaro tutashgan.
Saqoqushsimonlar (Heυκακομοειδές) – Pelicaniformes (86-bet).

- 7 (6) Faqat uchta barmog'i suzgich parda bilan o'zaro tutashgan.
- 8 (9) Sevikasi oldingi tomondan ko'ndalang joylashgan shox plastinkalar bilan qoplangan. Dumi sevkasidan 2 marta uzun.
Balichisimonlar (Чайкообразные) – Lariformes (76-bet).
- 9 (8) Sevikasi oldingi yuzasining ko'pchilik qismi to'rsimon. Dumi sevkasidan ikki baravardan ortiq uzun emas.
- 10 (5) Barmoqlari orasida to'liq suzgich parda bo'lmaydi. Agar parda bo'lsa, u faqat barmoqlarning asosini tutashitirib turadi.
- 11 (16) Oldingi uchta barmog'ining har birida suzgich teri burmalari bo'ladi (18-rasm, b, d).
- 12 (13) Har bir barmog'ining suzgich pardasi yaxlit bo'lib, qirralari to'g'ri va tekis, tirnoqlari yassi bo'ladi (18-rasm, d)
Qo'ng'irsimonlar (Позанкообразные) – Podicipediformes (78-bet).
- 13 (12) Har bir barmog'ining suzgich pardalari bo'lakchalı (18-rasm, e, g).
- 14 (15) O'rtacha kattalikdagi qush. Qanotining uzunligi 300 mm dan, sevkasining uzunligi 110 mm dan oshmaydi. O'rtı barmog'i sevkasiga teng yoki undan ozroq kalta.
Suvmoshaksimonlar (Пастушкообразные) – Ralliformes (62-bet).
- 15 (14) Kichik qushlar bo'lib, qanotining uzunligi 150 mm dan oshmaydi.
Balchıqsimonlar (Ржанкообразные) – Charadriiformes (65-bet).
- 16 (11) Barmoqlari suzgich parda bilan tutashgan.
- 17 (18) Ko'zlari boshining oldida joylashgan va oldinga qaragan. 1- va 2-katta qoquv patlarining tashqi qirrası o'yıq bo'ladi.
Yaraloqqushlar (Сокообразные) – Strigiformes (100-bet).
- 18 (17) Ko'zlari boshining yon tomoniga joylashgan va yonga qaragan. 1- va 2-katta qoquv patlarining tashqi qirrası o'yilmagan.
- 19 (20) Ilmoqsimon tumshug'ining asosi ochiq ranglı qattıq teri – qanshar (voskovitsa) bilan qoplangan. Burun teshiklari voskovitsa ustida joylashadi (19-rasm) Tirnoqlari o'tkir va ilmoqsimon.
Kunduzgi yirtqıchlar (Сokolобразные) – Falconiformes (91-bet).
- 20 (19) Voskovitsasi yo'q. Agar voskovitsasi bo'lsa, tumshug'i va tirnoqlari ilmoqli bo'lmaydi.
- 21 (22) Hamma to'rtala barmog'i oldinga qaragan.
Uzunqanotsimonlar (Сипухеобразные) – Apodiformes (105-bet).



18-rasm. Har xil qushlar barmog'ining tuzilishi:
a – qarg'aniki; b – qashqaldoqnik; c – chomganiki; d – balchiqchiniki;
e – qoravoyniki; f – qizilishtonniki; g – aylanadigan barmoq.

- 22 (21) Barmoqlari boshqacha joylashgan.
- 23 (26) Ikkita barmog'i oldinga, ikkitasi orqaga qaragan.
- 24 (25) Orqaga qaragan barmoqlarning tirnog'i bir xil uzunlikda, tumshug'ining uchi bir oz bukilgan.
Kakkusimonlar (Кукушкообразные) – Cuculiformes (102-bet).
- 25 (24) Orqaga qaragan barmoqlarning tirnoqlari kattaligi bilan bir-biridan farq qiladi. Tumshug'i to'g'ri.



19 - rasm. Lochin (a) bilan qarchig'ay (b) tumshug'ining tuzilishi:
1 — shox qismi; 2 — voskovitsasi.

Qiziltorsimonlar (Дятлообразные) — Piciformes (106-bet).

26 (23) Uchta barmog'i oldinga, bittasi orqaga qaragan. Orqa barmog'i bo'lmagligi ham mumkin.

27 (28) Rang qo'ng'ir-sariq va qoramir dog'li. Boshida qora va oq dog'li uzun kokili bor.

Ko'kqarg'asimonlar (Пакуюобразные) — Coraciiformes (103-bet).

28 (27) Rang boshqacha. Qora va oq dog'li, qo'ng'ir-sariq kokili yo'q.

29 (30) Tumshug'i kichik, lekin og'zi juda keng, og'iz kesigi ko'zidan keyinga o'tadi. Tumshug'ining usti bo'ylab oldinga qaragan yirik qilsimon patlar joylashgan (20-rasm).

Tentakushimonlar (Козодообразные) — Caprimulgiformes (103-bet).


30 (29) Og'iz kesigi ko'zidan orqaga o'tmaydi. Qilsimon patlari bo'lsa, og'iz burchaklarida joylashadi.

31 (32) Sonining pastki qismi pat bilan qoplanmagan, ko'zi atrofi va yuganchasi (o'zdechikasi) patsiz.

Laylaksimonlar (Аустрообразные) — Ciconiiformes (88-bet).

32 (31) Sonining pastki qismi, ko'zi atrofi va yuganchasi pat bilan qoplanmagan.

33 (34) Birinchi katta qoquv patlari, odatda, ikkinchisidan uzun yoki unga teng. Qizqushlarda (chibistlarda) u ikkinchisidan kalta va uzun, kokili bo'ladi.



20 - rasm. Tentakushning boshi va o'rta barmog'ining tirmog'i.

Balchiqsimonlar (Ржанкообразные) — Stradiiformes (65-bet).

34 (33) Birinchi katta qoquv patlari ikkinchisidan kalta.

35 (36) Orqa barmog'i yo'q.

Tuvuloqsimonlar (Профообразные) — Otidiiformes (64-bet).

36 (39) Yirik qushlar. Tumshug'i og'iz burchagidan uchigacha 60 mm dan kalta bo'lmaydi.

Turnasimonlar (Журавлеобразные) — Gruiformes (64-bet).

38 (37) Kichik va o'rta katta kattalikdagi qush. Tumshug'i og'iz burchagidan uchigacha 45 mm dan oshmaydi.

Savmoshaksimonlar (Пасмушкообразные) — Ralliformes (62-bet).

39 (40) Orqa barmog'i yo'q yoki yaxshi rivojlanmagan. Sevikasi butunlay yoki old tomondan pat bilan qoplanmagan. Qanoti uzun va o'tkir, dum patlarining o'rtasidagisi uzun.

Balduruqsimonlar (Рябкообразные) — Pterocletiformes (61-bet).

40 (39) Orqa barmog'i normal rivojlangan. Dum patlarining o'rtadagisi uzun emas.

41 (42) Burun teshiklari ustki tomondan bir oz teri o'sintasi (kunduzgi yirtqichlarniki kabi) bilan qoplanmagan (21-rasm).

Kaptarsimonlar (Тоубеобразные) — Columbigiformes (59-bet).

42 (41) Burun teshiklari teri o'sintasi bilan qoplanmagan.

43 (44) Orqa barmog'i boshqa barmog'laridan yuqorida joylashgan. Orqa barmog'ining tirmoqsiz uzunligi o'rta barmog'ining tirmoqsiz uzunligidan (1/3) ortiq emas.

Tovusimonlar (Курообразные) — Galliformes (58-bet).

46 (45) O'rtta va tashqi barmoqlarining asosi qo'shilmaydi (22-rasm). Agar boshi, dum usti va qorin tomoni havorang bo'lsa, qanoti 100 mm dan oshmaydi.

Chumchuqsimonlar (Воробьинообразные) – Passeriformes (107-bet).

TOVUQSIMONLAR TURKUMI (КУРООБРАЗНЫЕ) – GALLIFORMES

Bu turkumga kiradigan qushlar tanasining pishiqligi, yerni kavlash uchun moslashgan to'ntoq tirnoqli oyoqlari baquvvatligi, uski tomoni qirra bo'lib chiqqan o'rtacha uzunlikdagi tumshug'i pishiqligi va qanoti katta hamda yumaloqligi bilan xarakterlanadi. Hamma tovuqsimonlar jo'ja ohadigan qushlardir. Bularda jinsiy dimorfizm kuchli rivojlangan, erkagi ko'pincha yirik va chiroyli tiniq rangli bo'lishi bilan urg'ochilaridan farq qiladi. Tovuqsimonlarning hammasi o'troq holda yashaydi. Faqat bitta turi – bedana kelib ketuvchi qushlar guruhiga kiradi. O'zbekistonda bu turkum qirg'ovullar oilasining vakillaridan tarqalgan.

Qirg'ovullar oilasi (Фазановые) – Phasianidae

Qirg'ovullar kichik va ko'pchiligi o'rtacha kattalikdagi qushlar bo'lib, sevkasi patsiz, erkagining sevkasida ko'pincha parsimon o'sinta bo'ladi.

Qirg'ovullar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Dumi qanotidan uzun, o'tkir, ponasimon (250 mm dan oshadi). Yon rul patlari o'rtadagilardan ancha kalta.

Qirg'ovullar (Фазанси) – Phasianus L.


Turi oddiy qirg'ovul (*Фазан*) – *Phasianus colchicus L.* O'zbekistondagi hamma to'qayzorlarda tarqalgan.

2 (1) Dumi ancha kalta va ponasimon emas. Qanotidan kalta bo'lib, 220 mm dan oshmaydi. Yon rul patlari deyarli o'rtadagilariga teng.

3 (4) O'lehami katta, qanoti 240 mm dan, sevkasi 60 mm dan uzun.

Utlarlar (Утраси) – Tetraogallus Gray

Turi Himolay ulari (*Тетраогаллуи улар*) – *Tetraogallus himalayensis Gray.* O'zbekistondagi baland tog'larda – Tyanshan, Turkiston tizma tog'i va Boysun tog'ida yashaydi.




21 - rasm. Kaptarning boshi:
1 – voskovitsasi; 2 – burun teshigi.

44 (43) Orqa barmog'i qolgan barmoqlari bilan bir xil balandlikda joylashgan. Orqa barmog'ining tirnoqsiz uzunligi o'rtta barmog'ining tirnoqsiz uzunligidan (1/3) ortiq.

45 (46) O'rtta va tashqi barmoqlarining asosi qo'shilib ketadi (22-rasm, b). Agar barmoqlari qo'shilmasa, boshi, dum usti va butun qorin tomoni havorang bo'ladi.

Ko'kqarg'asimonlar (Кораккообразные) – Coraciiformes (103-bet).



22 - rasm. Chumchuqsimonlar (a) bilan ko'kqarg'asimonlarning (b) barmog'i.

Kaptarlar (Тоғоғу) – Columba L. (60-bet).

2 (1) Sevkasining ustki qismi son patlari bilan yopilmagan, ochiq. Rul patlarining uchi oqish. Dumining orqa cheti ponasimon, bo'rtib chiqqan.

Musichalar (Тоғауғу) – Streptopelia Brandt. (61-bet).

Kaptarlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanotlarida oq dog'lar bor, lekin qora ko'ndalang targ'il chiziq yoki dog'lar bo'lmaydi. Bo'yining yon tomonlarida oqchil dog'lari bor.

Gov kaptar (Вэхур) – Columba palumbus L.

O'zbekistonning faqat tog' o'rmonlarida uya quradi.

2 (1) Qanotlarida va bo'yinda oq dog'lar bo'lmaydi. Qanotlarida qora ko'ndalang chiziq yoki qora dog'lar bo'ladi.

3 (4) Dumining uchi oldida serbar ko'ndalang oq chiziq bor.

Tog' kaptari (Скаучиёу зоғуёу) – Columba rupestris Pallas

Respublikamiz tog'li tumanlarining sharqiy qismida uchraydi.

4 (3) Dumining uchi oldida serbar ko'ndalang oq chiziq yo'q.

5 (6) Jig'ildon va bo'yin patlarida metallisimon yaltiroq rang bor.

Qanotlarida 2 ta qoramtir chiziq bor. Tumshug'i qora.

Ko'k kaptar (Сизёу зоғуёу) – Columba livia L.

Respublikamizda keng tarqalgan.

6 (5) Jig'ildon patlarida metallisimon yaltiroq rang yo'q. Qanotlarida ko'ndalang qoramtir dog'lar bo'ladi. Tumshug'i, ayniqsa, uning uchi oqish bo'ladi.

7 (8) Boshining usti kulrang, yelkasi va dumining usti bir xil rangda, qanotining osti kulrang.

Klintax – Columba oenas L.

Respublikamizning sharqiy tumanlarida uya quyadi.

8 (7) Boshining usti atirgulsimon. Dumining uchi va orqasining keyingi qismi oldingi qismiga nisbatan ochiqroq rangda, hatto oqish. Qanotining osti oq yoki oqish bo'ladi.

Qora kaptar (Бурёу зоғуёу) – Columba eversmanni Bonaparte.

O'zbekistondagi tog' etaklarida va daryolar yaqinida yashaydi.

Musichalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Tanasining orqa tomoni va qanotining ustki yopuvchi patlari bir xil rangda emas, pat chetlaridan oqchil yoki taram-taram oq patlari bor.

4 (3) O'lehami kichik, qanoti 200 mm dan, sevkasi 60 mm dan oshmaydi.

5 (6) Oyoqlari to'q qizil rangda. Bo'yini qora halqa bilan o'ralgan. Katta qoquv patlarining yelpig'ichlarida ko'ndalang chiziq yoki to'q, bir xil rangda.

Kakliklar (Кекэку) – Alectoris Kaup.

Turi kaklik (*Кекэку или каменная куропатка*) – *Alectoris kakekik* Falk. O'zbekistondagi hamma tog'li tumanlarda va Qizilqum tog'larida yashaydi.

6 (5) Oyoqlari boshqacha rangda, bo'yinda qora halqasi yo'q. Katta qoquv patlarining yelpig'ichlari ko'ndalang chiziq bo'ladi.

7 (8) Qanoti 120 mm dan uzun. Rul patlari 6 juft.

Cho'l tovuqchalari (Пустынные куропатки) – Ammoperdix Gould.

Bitta turi – cho'l kaklik (*Пустынная куропатка*) – *Ammoperdix griseogularis* Brandt bor. U Mang'ishloq, Ustyurt, Qizilqum tog'lari, Nurota, Turkiston va Zarafshon tizma tog'lari etaklarida tarqalgan.

8 (7) Qanoti 120 mm dan, sevkasi 30 mm dan kalta, rul patlari ustidan yopiqch patlar bilan to'liq qoplangan.

Bedanalar (Пепенелы) – Coturnix Bonnat.

Turi *bedana (Пепенелы) – Coturnix coturnix* L. O'zbekistonda keng tarqalgan.

KAPTARSIMONLAR TURKUMI (ГОЛУБЕОБРАЗНЫЕ) – COLUMBIFORMES

O'rtacha kattalikdagi qushlar bo'lib, qanotlari baquvvat va o'tkir. Tumshug'i ustining asosida yumshoq teri bo'rtmasi bor. Sevkasi old tomondan ko'ndalang qalqonchalar, orqa tomondan ko'p burchakli plastinkalar bilan qoplangan. O'zbekistonda bitta oilasining vakillari uchraydi.

Kaptarlar oilasi (Тоғоғуёуёу) – Columbidae.

Oila belgilari turkum belgilariga aynan o'xshash. O'zbekiston faunasida kaptarlarning ikkita urug'i uchraydi.

Kaptarlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Sevkasining ustki qismi son patlari bilan qoplangan. Rul patlarining uchi qoramtir bo'lib, orqa qirrası deyarli tekis.

2 (3) Qanotining uzunligi 185 mm dan ko'p, tomog'i zangsimon qo'ng'ir.

Katta musicha (Большая зорница) – Streptopelia orientalis Latham.

Respublikamizning faqat tog'li joylarida uyalash davrida yashaydi.

3 (2) Qanotining uzunligi 185 mm dan kam, tomog'i och push-tirang yoki och kulrang. Respublikamiz tog'li tumanlarida uy quradi.

Odatdagi musicha (Обыкновенная зорница) – Streptopelia turtur L.

O'zbekistonda keng tarqalgan.

4 (1) Tanasining orqa tomoni va qanotining yopuvchi patlari bir xil rangda.

5 (6) Qanoti 160 mm dan uzun, qanotining pastki yopuvchi patlari oq yoki oqchil.

Qumri (Кальчакная зорница) – Streptopelia decaocta L.

O'zbekistonning baland daraxtzorlarida tarqalgan.

6 (5) Qanoti 150 mm dan katta, qanotining osti kulrangda.

Kichik musicha (Малая зорница) – Streptopelia senegalensis L.

O'zbekistonda keng tarqalgan.

BULDURUQSIMONLAR TURKUMI (РЯБКОБРАЗНЫЕ) – PTEROCLETIFORMES

O'rtacha yirik qushlar bo'lib, qanotlari uzun va uchli, sevkasi kalta, pat bilan qoplangan, bo'yini va tumshug'i kalta. Orqa barmoqlari yo'q yoki yaxshi rivojlanmagan. Cho'l, dastida va tog'li joylarda yashaydi. Bu turkumga bitta *bulduruqlar (Рябковые) – Pterocletidae* oilasining vakillari kiradi.

Bulduruqlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Orqa barmog'i yo'q. Sevkasi va barmoqlari pat bilan qoplangan.

Savbulduruqlar (Саджа) – Syrrhaptes Illiger.

Turi *savbulduruq (Саджа) – Syrrhaptes paradoxus* Pallas. Respublikamizning dasht tumanlarida, tog'lar etagida va Qizilqumning shimoli-sharqiy qismida uya quradi.

2 (1) Qoldiq holda bo'lsa ham, orqa barmog'i bor. Barmoqlari pat bilan qoplanmagan.

Bulduruqlar (Рябка) – Pterocles Temminck (62-bet).

Bulduruqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qorin tomoni oq. Qanoti 220 mm dan uzun.

Oqbovor (Белобрюхий рябок) – Pterocles alchata L.

2 (1) Qorin tomoni qora, qanoti 220 mm ga yetmaydi.

Qora'bovor (Чернобрюхий рябок) – Pterocles orientalis L.

Bularning ikkalasi ham respublikamizning cho'l va dashtlarida uya qo'yadi.

SVMOSHAKSIMONLAR TURKUMI (ПАКТИШКОБИЕ) – RALLIFORMES

O'rtacha va kichik o'lehamdagi qushlardir. Tanasi yon tomondan bir oz qisilgan. Qanotlari kalta va to'rttoq. Sontlarning pastki qismi pat bilan qoplanmagan. Sevkasining oldingi tomoni ko'ndalang qalqon-chalar bilan qoplangan. Bu turkum bitta *Suvmoshaklar (Rallidae)* oilasini o'z ichiga oladi.

Suvmoshaklar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Oldingi barmoqlarida qattiq, bo'lmali suzgich pardasi bor. Tumshug'i oq, peshanasida oq rangli ochiq joy bor.

Qashqaldoqlar (Лысыца) – Fulica L.

Turi *qashqaldoq (Лысыца) – Fulica atra* L. O'zbekistonda gi deyarli hamma suv havzalarida uchraydi.

2 (1) Oldingi barmoqlarida bo'lmali suzgich pardasi yo'q, tumshug'i oq emas va peshanasida oq joyi yo'q, bor bo'lsa, qizil rangda.

3 (4) Peshanasida ochiq joy bo'lib, u qizil rangda. Sevkasi 45 mm dan uzun. Rul patlari qora.

G'ozqanjir-lar (Камышица) – Gallinula Brisson.

Turi *g'ozqanjir, suv tovug'i (Камышица) – Gallinula chloropus* L. Respublikamizning hamma daryolari irmoqlarida uya quradi.

4 (3) Peshanasida ochiq joy yo'q. Sevkasi 45 mm dan kichik. Dum boshqacha rangda.

5 (6) Tumshug'ining uzunligi taxminan sevkasiga teng, burun teshigining keyingi qirasidan 30 mm dan uzun.

Suvmoshaklar (Пачыука) – Rallus L.

Turi *oddiy suvmoshak (Бодяной пачыуок) – Rallus aquaticus* L.

O'zbekistonda deyarli hamma daryolarda tarqalgan.

6 (5) Tumshug'i sevkasidan kalta bo'lib, uzunligi 30 mm ga yetmaydi.

7 (8) Qanoti 130 mm dan, sevkasi 36 mm dan uzun. Qo'ltig'idagi patlari sarg'ish rangda.

Tartarlar (Коромель) – Crex Bechstein.

Turi *tartar (Коромель) – Crex crex L.* Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

8 (7) Qanoti 130 mm dan, sevkasi 36 mm dan kalta. Qo'ltig'idagi patlari qoramtir yoki oq.

Pogonishlar (Погоньшар) – Porzana Vieill. (63-bet).

Pogonishlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dum osti patlari oqish-sarg'ish.

Oddiy pogonish (Погоньшар) – Porzana porzana L.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Dum osti patlari qoramtir-kulrang, oq chiziqlari yoki dog'lari bor.

3 (4) Birinchi katta qoquv patining tashqi yelpig'ichi oqish. Qo'ltiq patlari oq dog'li qoramtir.

Mitti pogonish (Погоньшар кроука) – Porzana pusilla Pallas.

4 (3) Birinchi katta qoquv patining tashqi yelpig'ichi qoramtir. Qo'ltiq patlari qoramtir bo'lib oq dog'lari yo'q.

Kichik pogonish (Малый погоньшар) – Porzana parva Scopoli

Mitti va kichik pogonishlar respublikamizdagi qamishzor suvlarda uya qo'yadi.

TURNASIMONLAR TURKUMI

(ЖУРАБЛЕОБРАЗНЫЕ) – GRUIFORMES

Yirik qushlar hisoblanadi. Oyoqlari, bo'yini va tumshug'i uzun bo'ladi. Sevkasining oldingi tomoni ko'ndalang joylashgan seibar qalqonchalar bilan qoplangan. Keyingi barmog'i oldingilaridan bir oz batanda joylashgan. Sonining pasiki qismi pat bilan qoplangan. O'zbekiston faunasida bu turkumning bitta nominal oilasi (*Gruidae*) va ikkita urug'i uchraydi.

Turnalar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'i 70 mm dan uzun. Boshining yon tomonlarida uzun patlar tutami yo'q.

Turnalar (Журабу) – Grus L.

Turi *kub'ang turna (Серый журавль) – Grus grus L.* Respublikamizning dasht tumanlarida tarqalgan.

2 (1) Tumshug'i 70 mm dan kalta. Boshining yon tomonlarida uzun oq patlar tutami bo'ladi.

Kichik turnalar (Журабу-красавка) – Anthropoides Vieillot

Turi *kichik go'zal turna (Красавка) – Anthropoides virgo L.* O'zbekistonda faqat qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

TUVALOQSIMONLAR TURKUMI

(ДРОФООБРАЗНЫЕ) – OTIDIFORMES

Tuvaloqlar uch barmoqli yirik qushlardir. Sonining pastki qismi patsiz bo'ladi. Dum bezi rivojlanmagan. Respublikamizning cho'l va dasht tumanlarida, ya'ni ochiq joylarda yashaydi. Bu turkum bitta *tuvaloqlar (Дрофуиде) – Otidae* oilasining vakillarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda 3 uruqqa mansub turlari uchraydi.

Tuvaloqlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Yirik qushlar bo'lib, qanoti 450 mm dan, sevkasi 110 mm dan uzun. Kalta qoquv patlari qora rangda.

Tuvaloqlar (Дрофа) – Otis L.

Turi *oddiy tuvaloq (Дрофа) – Otis tarda L.* Mirzacho'lda, Turkiston, Nurota tizma tog'lari etaklarida, qushlar uchib o'tishi davrida esa respublikamizda ham uchraydi.

2 (1) O'rtacha yirik qushlar bo'lib, qanoti 450 mm dan, sevkasi 110 mm dan kalta. Katta qoquv patlari bir xil qora bo'lmasdan, ola-chipor rangda.

3 (4) Qanotining uzunligi 350 mm dan, sevkasini 90 mm dan oshmaydi. Eng chetdagi rul patlari qoramtir chiziqli oq rangda.

Bizg'aldoq (Сипенем) – Tetrax Leach.

Turi *oddiy bizg'aldoq (Сипенем) – Tetrax tetrax L.*

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

4 (3) Qanoti 350-450 mm, sevkasi 80-120 mm uzunlikda. Eng chetdagi rul patlari qizg'ish-sariq bo'lib, qoramtir ko'ndalang chiziqlari bor. Bo'yining yon tomonlari yuqorisida uzun qora patlar tutami bor.

Yo'rg'a tuvaloqlar (Дэксек) – Chlamydotis Lesson

Turi *yo'rg'a tuvaloq (Дэксек) – Chlamydotis undulata Jacquin.* Qizilqumda va respublikamizning ochiq dastlarida yashaydi.

10 (9) Barmoqlarida teri bo'rtmalari yo'q. lekin suzgich pardasi bo'lishi mumkin.

11 (12) Tumshug'ining uchi yuqoriga keskin bukilgan.

Bigiztumshuqlar (Шукоксиооку) — Recurvirostra L.

Turi bigiztumshuq, qora olaqanot (Шукоксиооку) — Recurvirostra avosetta L. Orol dengizining janubiy qirg'oqlarida va Amudaryo vodiysida uya quradi. Boshqa tumanlarda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

12 (11) Tumshug'ining uchi keskin yuqoriga bukilmagan.

13 (20) Orqa barmog'i yo'q.

14 (15) Sevkasi 80 mm dan uzun.

Katta qiziloyoqlar (Ходыюооку) — Himantopus Brisson.

Turi katta qiziloyoq (Ходыюооку) — Himantopus himantopus L.

Amudaryo, Sirdaryo bo'ylarida va Zarafshon etaklarida uya quradi.

15 (14) Sevkasi 80 mm dan uzun emas.

16 (17) Tumshug'i 45 mm dan uzun.

Qiziloyoqlar (Кыюку-ооку) — Haematopus ostralegus L. Amudaryo vodiysida, Surxondaryoda uya quradi hamda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

17 (16) Tumshug'i 45 mm dan kalta.

18 (19) Tumshug'i sevkasi bilan bir xil uzunlikda.

Moshaklar (Песохиоку) — Galidris Meirem (72-bet).

19 (18) Tumshug'i sevkasidan ancha kalta.

Rjankalar (Ржюку) — Sharadrius L. (70-bet).

20 (13) Orqa barmog'i bor.

21 (22) Qanotining bukilgan joyida kalta tikani bor. Ko'zi oldida teri bo'rtmasi bor.

Bezatilgan qizqushlar (Крәкәеиооәе уюооәе) — Lobivanellus Gray.

Turi hind qizqushi (Крәкәеиооәе уюооәе) — Lobivanellus indicus Bodd. O'zbekistonning janubiy tumanlariga ba'zan uchib kiradi.

22 (21) Qanotining bukilgan joyida tikani yo'q. Ko'zi oldida teri bo'rtmasi bo'lmaydi.

23 (24) Ensasida uzun kokili bor. Orqasida ko'k-metallsimon yaltiroq rang bo'ladi.

Qizqushlar (Уюооәе) — Vanellus Brisson

Turi oddiy qizqush (Уюооәе) — Vanellus vanellus L.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

24 (23) Boshida kokili yo'q. Orqa tomoni metallsimon yaltilamaydi.

25 (26) Katta qoquv patlari bir xil qora rangda.

Torg'oqlar (Крәкәеиоку) — Chetusia Bonaparte (75-bet).

26 (25) Katta qoquv patlari qora rangda emas.

27 (30) Tumshug'ining uchi pastga egilgan.

28 (29) Qanoti 145 mm dan, sevkasi 35 mm dan uzun.

Uzunburun baliqchilar (Крәкәеиоәеиоәе) — Numenius Brisson (74-bet).

29 (28) Qanoti 145 mm dan, sevkasi 35 mm dan kalta.

Moshaklar (Песохиоку) — Calidris Merrem (72-bet).

30 (27) Tumshug'ining uchi pastga egilmagan.

31 (32) Qo'litiq patlari bir xil qora rangda bo'ladi.

Tuleslar (Туәәәәе) — Squatarola Civ.

Turi tules (Туәәәәе) — Squatarola squatarola L. Amudaryoning quyiqoqimida va Orol dengizining janubida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

32 (31) Qo'litiq patlari bir xil qora rangda emas.

33 (34) Tumshug'i kalta, to'g'ri va qattiq bo'lib, uchi konussimon o'tkirdir.

Kamsharkalar (Кәкәеиоәкәкә) — Arenaria Brisson.

Turi kamsharka (Кәкәеиоәкәкә) — Arenaria interpres L.

Amudaryoning quyiqoqimida uya qurishi mumkin. Respublikamizning tekislik territoriyasida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

34 (33) Tumshug'i yumshoq, uchi to'mtoq.

35 (38) Dumining usti bir xil oq rangda.

36 (37) Rul patlari oq rangda yoki ko'ndalang qoramtir chiziqli.

Balchiqchilar (Уәәәәә) — Tringa L. (71-bet).

37 (36) Rul patlari qora rangda, ba'zan ularning asosi oq bo'ladi, lekin ko'ndalang chiziqlari yo'q.

Veretniklar (Bepemeиоку) — Limosa Brisson (75-bet).

38 (35) Dumining usti bir xil oq rangda emas.

39 (40) Dumining usti qoramtir-oq bo'lib, ko'ndalang oq yo'llari bor.

40 (41) Tumshug'i 50 mm dan kalta.

Moshaklar (Песохиоку) — Calidris Merrem (72-bet).

41 (42) Tumshug'i 50 mm dan uzun.

42 (43) Qanoti 185 mm dan kalta. Tumshug'i to'g'ri va uchi qisman kengaygan.

Loyxo rakisimon veretemiklar (Белкосоидные веретеники) – Limnodromus Wied.

Turi *Osiyo loyxo rakisimon veretemi (Азиатский белкосоидный веретеник) – Limnodromus semipalmatus Blyth.* Bu qushcha respublikamizga shimoli-sharq tomondan ba'zan to'satdan uchib keladi.

43 (42) Qanoti 185 mm dan uzun. Tumshug'i yuqoriga bir oz bukilgan va uchi kengaymagan.

Veretemiklar (Веретеники) – Limosa Brisson (75-bet).

44 (39) Dumining usti tanasining orqa tomoni bilan bir xilda oq emas.

45 (46) Sevkasi 36 mm dan uzun.

Turxantlar (Турханы) – Philomachus Merrem.

Turi *turxtan (Турханы) – Philomachus pugnax L.* O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

46 (45) Sevkasi 36 mm dan kalta.

47 (48) Tumshug'ining ko'p qismi yassilashgan va serbar, uchi bir oz pastga egilgan. Tumshug'i sevkasidan 1,5 marta uzun.

Gryazoviklar (Грязовики) – Limicola Koch.

Turi *gryazovik (Грязовик) – Limicola falcinellus Pontoppidan.* O'zbekistonda uchib o'tish vaqtida uchraydi.

48 (47) Tumshug'i yassi emas va uchi pastga egilgan.

49 (50) Katta qoquv patlarining ichki yelpig'ichlarida yirik oq dog'lar bor.

Perevozchiklar (Певозочники) – Actitis Illiger.

Turi *chivildoq baltchiqchi (Певозочник) – Actitis hypoleucis L.*

Respublikamizdagi deyarli hamma daryolar bo'yida uya quradi.

50 (49) Tumshug'i qisman yuqoriga qarab bukilgan. Kichik qoquv patlarining uchi oq.

Morodunkalar (Мородунки) – Xenus Kaup.

Turi *morodunka (Мородунка) – Xenus cinereus Gullenstatd.* Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

52 (51) Tumshug'i yuqoriga qarab bukilmagan. Kichik qoquv patlarining uchi oq bo'lmaydi, lekin ba'zan chetlari oq bo'lishi mumkin. *Moshaktar (Мешактары) – Callidris Merrem (72-bet).*

Rjankalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Tanasining orqa tomonida oq yoki yumshoq sariq dog'lar bor.

2 (3) Qo'ltiq patlari oq rangda.

Oltin rang rjanka (Золотистая ржанка) – Charadrius aprincarius L.

Respublikamiz territoriyasida qushlar uchib o'tishi davrida to'satdan paydo bo'lib qoladi.

3 (2) Qo'ltiq patlari kulrang.

Qo'ng'ir qanotli rjanka (Бурыкылая ржанка) – Charadrius dominicus Muller

Qushlar uchib o'tishi davrida to'satdan ko'rinish qoladi.

4 (1) Tanasining orqa tomonida oq yoki sariq dog'lari yo'q.

5 (14) Qo'ltiq patlari oq yoki asosi qoramtir rangda.

7 (8) Birinchi katta qoquv patining o'zagi oq. Boshqalariniki qoramtir.

Kichik qorayoqa (Малый зыек) – Charadrius dubius Scopoli.

8 (7) Hamma katta qoquv patlari o'zaginging faqat uchi oq.

Qorayoqa (Талынчынык) – Charadrius hiaticula L.

9 (6) Rul patlari, odatda, bir xil rangda, chetdagilarida keskin oq yoki qo'ng'ir yo'lbolmaydi.

10 (11) Eng cheki 2-3 ta rul patlari tiniq oq. Qanoti 120 mm dan uzun emas.

Oqyoqa (Морской зыек) – Charadrius alexandrinus L.

Respublikamizning g'arbiy tumanlaridagi suv bo'ylarida uya quradi.

11 (10) Chetdagi rul patlari tiniq oq emas. Qanoti 120 mm dan uzun.

12 (13) Qanotining pastki qoplovchi patlari qisman qo'ng'ir rangda. Tumshug'ining burun atrofidagi balandligi 5 mm dan ancha kam.

Sariyoqa (Качуцкуну зыек) – Charadrius asiaticus Pallas.

Respublikamizning g'arbiy tumanlarida uya quradi.

13 (12) Qanotining pastki qoplovchi patlari oq. Tumshug'ining burun atrofidagi balandligi 5 mm dan kam emas.

Yo'g'on tumshuqli qorayoqa (Тошмоқнаош зыек) – Charadrius leucelautii Lesson. O'zbekistonning g'arbiy tumanlaridagi yalangliklarda uya quradi.

14 (5) Qorin patlari boshqa rangda. Tumshug'i 20 mm dan kalta *Xrustan – Charadrius morienellus L.*

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Balchiqchilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Kichik qoquv patrlarining deyarli hammasi oq. *Qiziltoyoq balchiqchi (Трапезник) – Tringa totanus L.*
Orol dengizining janubida, Amudaryoning quyi oqimida uya quradi.
 - 2 (1) Kichik qoquv patrlari boshqacha rangda.
 - 3 (6) Tumshug'i 45 mm dan uzun.
 - 4 (5) Kichik qoquv patrlari ko'ndalang oqish yo'lli. *Sa'va – Tringa erythropus Pallas.*
Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
 - 5 (4) Kichik qoquv patrlarida ko'ndalang yo'llar yo'q. *Katta balchiqchi (Большо́й зу́йм) – Tringa nebularis Gunnerus.*
O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida, yozda ayrim nusxalari uchraydi.
 - 6 (3) Tumshug'i 45 mm dan kalta.
 - 7 (8) Birinchi qoquv patrlarining o'zagi qo'ng'ir rangda. Qo'ltiq patrlari qoramir bo'lib, ko'ndalang oqish yo'lli. *Qoraqarot balchiqchi (Черныш) – Tringa ochropus L.*
Respublikamizning g'arbiy qismida uya quradi. Boshqa joylarda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
 - 8 (7) Birinchi katta qoquv patrlarining o'zagi oq. Qo'ltiq patrlari tiniq oq yoki ko'ndalang qora yo'lli bo'ladi.
 - 9 (10) Tanasining orqa qismi qoramir, faqat dumining usti oq. Qo'ltiq patrlari ko'ndalang qoramir yo'lli. *Fifi – Tringa glareola L.*
O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida, ba'zan yozda ayrim nusxalari uchraydi.
 - 10 (9) Orqasining faqat kurak oralig'i qoramir, qolgan qismi va dumining usti, qo'ltiq patrlari oq, ko'ndalang qoramir yo'lli. *Ko'l balchiqchisi – (Попуе́йник) – Tringa stagnatilis Bechstein.*
Respublikamizning shimoliy tumanlarida uya qurishi mumkin, qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
- Moshaklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali**
- 1 (4) Dumidagi hamma uski qoplovchi patrlari oq yoki sang'ish-qoramir nuqtalari bo'lishi mumkin.
 - 2 (3) Tumshug'i sevkasidan uzun. *Qiziltoyoq moshak (Краснозобник) – Calidris testacea Pallas.*
Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

- 3 (2) Tumshug'i sevkasidan uzun emas.
- 4 (1) Dumining hamma uski qoplovchi patrlari qoramir yoki faqat yon tomondagilari oq.
- 5 (8) Ichkaridagi kichik qoquv patrlarining ba'zilari oq.
- 6 (7) O'rta barmog'ining uzunligi (tirmog'i bilan birgalikda) sevkasining uzunligidan kam yoki unga teng. *Qoratomoq moshak (Чернозобник) – Salidris alpina L.*
O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismida uya quradi.
- 7 (6) O'rta barmog'ining uzunligi (tirmog'i bilan birgalikda) sevkasining uzunligidan kam emas.
- 8 (5) Kichik qoquv patrlarining hammasi asosan qoramir rangda.
- 9 (10) Tashqi rul patrlari oq.

Oq dumli moshak (Белохвостый чернозник) – Calidris temminckii Leister.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

10 (9) Tashqi rul patrlari qo'ng'ir rangda.

11 (12) O'rta barmog'i (tirmog'i bilan) sevkasiga teng yoki undan bir oz uzun. Birinchisidan tashqari, hamma katta qoquv patrlarining o'zagi qoramir.

Uzun barmoqli moshak (Длиннопалый чернозник) – Calidris subminuta Middendorff. Respublikamizga ba'zan sharqiy tumanlaridan uchib keladi.

12 (11) O'rta barmog'i (tirmog'i bilan) sevkasidan kalta. Katta qoquv patrlari o'zaginging ko'p qismi oqroq bo'ladi.

Chumchuq-moshak (Кызул-сопобе́й) – Calidris minutus Leister
Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Loyxo'raklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (8) Eng chetki rul patrlari o'rtadagilariga nisbatan 2 baravar ensiz.
- 2 (3) Chetdagi 5 juft rul patrlarining eni bir xilda va uchining kengligi 1 mm ga teng.

Osiyo loyxo'ragi (Азиатский берак) – Gallinago stenura Bonaparte

O'zbekistonning g'arbiy qismida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

3 (2) Chetdagi 5 juft rul patrlarining kengligi har xil, eng chetdagi jufti juda kambar bo'lsa ham, kengligi 1 mm dan ortiq.

4 (5) Jig'ildoni va kuragi ochiq-qo'ng'ir rangda, ko'ndalang oq gullari bor. Ikkinchi va uchinchi katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining qirrasini oq.

Tog' dupeli (Горный дупель) – *Gallinago solitaria* Hodson.

Respublikamizning sharqiy tumanlarida qishlaydi.

5 (4) Jig'ildoni va ko'kragi ochiq sarg'ish rangda bo'lib, bo'yiga qarab joylashgan qoramir rasmlari bor. Ikkinchi va uchinchi katta qoquv patlarining tashqi yelpig'ichlarini qirrasini qoramir.

6 (7) Qanoti 144 mm dan kalta. Eng chetdagi rul patlarining kengligi 3 mm atrofida bo'ladi.

O'rmon dupeli (Лесной дупель) – *Gallinago megala* Swinhoe.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

7 (6) Qanoti 144 mm dan uzun, eng chetdagi rul patlarining kengligi 3 mm dan ortiq.

8 (1) Eng chetdagi rul patlari kengligi jihatidan o'rtadagi rul patlaridan deyarli farq qilmaydi.

9 (10) Eng chetdagi rul patlari deyarli butunlay oq yoki uchi serbar oq bo'ladi. Qanoti 136 mm dan, sevkasi 35 mm dan uzun.

Dupel – *Gallinago media* Latham

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

10 (9) Eng chetdagi rul patlari ochiq kulrang bo'lib, qoramir rasmi bor. Qanoti 136 mm dan, sevkasi 35 mm dan kalta.

Oddiy loyxo'vak (Бекас) – *Gallinago gallinago* L.

Respublikamizdagi botqoqliklarda uya quradi, qisman qishlaydi.

Uzunburun balchiqchilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Boshining usli qoramir bo'lib, o'rtasidan bo'yiga qatab oqish chiziq o'tadi.

O'rtacha uzunburun balchiqchi (Средний кронынен) – *Numenius phaeopus* L.

2 (1) Boshining usti bir xil qoramir bo'lib, oqish chizig'i yo'q. Boshining ustidagi patlarining o'rtasi qoramir, chetlari oqish bo'ladi.

3 (4) Qanoti 270 mm dan uzun bo'lmaydi. Sevkasi 70 mm dan kalta.

Ingichka tumshuqli balchiqchi (Тонкоклювый кронынен) – *Numenius tenuirostris* Vieillot.

Respublikamizning janubiy tumanlarida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

4 (3) Qanoti 270 mm dan, sevkasi 70 mm dan uzun.

Katta uzunburun balchiqchi (Большой кронынен) – *Numenius arquata* L.

O'zbekistonning faqat g'arbiy tumanlarida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Veretenniklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Rul patlarining asosi oq, qoigan qismi qora. Qo'ltig'i oq.

Katta veretennik (Большой веретеник) – *Limosa limosa* L.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida, ba'zan yozda va qishda ham uchraydi.

2 (1) Rul patlari qo'ng'ir bo'lib, oqish ko'ndalang chiziqlari bor.

Kichik veretennik (Малый веретеник) – *Limosa lapponica* L.

Qushlar uchib o'tishi davrida faqat Zarafshon vodiysida uchragan.

Torg'oqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Rul patlari oq, uchida qora dog'lari bor. Oyoqlari qora, ko'zlarining ustidan oq chiziq (qosh) o'tadi.

Torg'oq (Креветка) – *Chettusia gregaria* Pallas.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Rul patlari oq, uchida qora dog'lari yo'q. Oyoqlari sariq, ko'zlarining ustidan oq chiziq o'tmaydi.

Sivtorg'oq (Белохвостая мазанга) – *Vanellochettusia leucura* Licht.

Respublikamiz tekisliklaridagi suv havzalarida uya quradi.

BALIQCISIMONLAR TURKUMI – LARIFORMES

Bular o'rtacha yirik qushlar hisoblanadi. Tanasi uzun, qanotlari uzun va o'tkir, oyoqlari ancha kalta. Oldingi uchta barmoqlari orasida suzgich pardasi bo'ladi. Orqa barmog'i yo'q yoki yaxshi rivojlanmagan.

O'zbekistonda bu turkumga mansub baliqchilar oilasining vakillari uchraydi va ular 5 ta urug'ni tashkil etadi.

Baliqchilar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'ining usti ostiga nisbatan uzun va uchi pastga egilgan. Dumining uchi tekis.

Baliqchilar (Чайка) – *Larus* (77-bet).

2 (1) Tumshug'ining ustki va ostki qismi bir xil uzunlikda, uchi pastga egilgan. Dumi, odatda, ayrisimon.

- 3 (4) Qanoti 360 mm dan uzun.
Chegravalat (Чегрвалат) – Hydroprogne Kaup.
 Bitta turi – *chegrava – Hydroprogne caspia Pallas* bor.
 Amudaryoning quyi oqimidagi ko'llarda uya quradi.
- 4 (3) Qanoti 360 mm dan kalta.
 5 (6) Sevksi 30 mm dan, qanoti 270 mm dan uzun.
Baliqchiburun chigirtchi (Чайконогая крачка) – Gelocheleon Brehm
 Respublikamizda nominal turi – *baliqchiburun chigirtchi – Gelocheleon nilotica nilotica Gmelin.* uya quradi.
- 6 (5) Sevksi 30 mm dan, qanoti 270 mm dan kalta.
 7 (8) Dumi qanotining yarmidan uzun. Dumining o'rtasidagi kesigi uning 1/3 dan ortiq. Yon rul patlari uzun va uchi o'tkir.
Chigirtchilar (Крачки) – Sterna (77-bet).
 8 (7) Dumi qanotining yarmidan kalta. Dumining o'rtasidagi kesigi uning 1/3 dan kam. Yon rul patlarining uchi o'tkirlashmagan. Rul patlari 100 mm dan kalta.
Qora chigirtchilar – (Черная крачка) – Chlidonias (78-bet).

Baliqchilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (5) Boshi oq yoki boshida oqish-qo'ng'ir dog'lari bor.
 2 (3) Qanoti 330 mm dan kalta. Tumshug'ining balandligi 10 mm dan osimaydi. Oldingi qoquv patlarining uchi va yelpig'ichlarining qirralari qora bo'ladi.
Ingichka tumshuqli baliqchi (Тонкоклювая чайка) – Larus gencai Breme.
 O'zbekistonning g'arbi-sharqiy tumanlarida uchraydi va Amudaryoning quyi oqimida uya quradi.
- 3 (2) Qanoti 400 mm dan uzun. Tumshug'ining balandligi 10 mm dan ortiq. Oldingi qoquv patlari qora-qo'ng'ir, uchi oq bo'ladi.
Kumushrang baliqchi (Серебристая чайка) – Larus argentatus Pontopp
 Orol dengizi qirg'oqlarida, Amudaryo, Sirdaryo bo'yidagi ko'llarda, Aydarko'l orollarida uya quradi.
- 4 (5) Tumshug'i, o'tta barmog'i (firmoqsimon) 45 mm dan kalta.
Ko'k baliqchi (Сизая чайка) – Larus canus L.
 Respublikamizning g'arbi-shimoliy qismida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

- 5 (1) Boshi qora yoki qo'ng'ir rangda.
 6 (7) Boshi timqora. Qanoti 450 mm dan uzun.
Qoraboshi baliqchi (Черноногая хохотун) – Larus ichthyæetus Pallas.

Orol dengizi qirg'oqlarida va Amudaryoning quyi oqimida uya quradi.
 7 (6) Boshi qo'ng'ir rangda. Qanoti 340 mm dan kalta.
Oddiy baliqchi (Озёрная чайка) – Larus ridibundus L.
 Respublikamizning g'arbiy tumanlarida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Chigirtchilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Qanoti 200 mm dan, dumi 95 mm dan kalta.
Kichik chigirtchi (Малая крачка) – Sterna albifrons Pallas.
 2 (1) Qanoti 240 mm dan, dumi 130 mm dan uzun.
Daryo chigirtchisi (Речная крачка) – Sterna hirundo L.
 O'zbekistonning deyarli hamma tekislik qismidagi suvli botqoqliklarda uya quradi.

Qora chigirtchilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Tanasining qorin tomoni qora yoki kulrang. Sevksi 18 mm dan uzun.
Oq qanotli chigirtchi (Семнокрылая крачка) – Chlidonias leucoptera Temminck
 Respublikamizning janubiy tumanlarida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
- 2 (1) Tanasining qorin tomoni oq.
 3 (4) Tumshug'i qora bo'lib, balandligi burun teshigining orqasida 7 mm dan kam.
Qora chigirtchi (Черная крачка) – Chlidonias nigra L.
 O'zbekistonning janubiy tumanlarida qushlar migratsiyasi vaqtida uchraydi. Amudaryoning quyi oqimida uya quradi.
- 4 (3) Tumshug'i qizil yoki qo'ng'ir rangda. Tumshug'ining balandligi burun teshigining keyingi qirrasida 7 mm dan ortiq.
Oq chakkali chigirtchi (Белочуковая крачка) – Chlidonias hybrida Pallas.
 Qoraqalpog'istonda, Xorazm va Buxoro viloyatlarida suvlar bo'yida va orollarda uya quradi. Boshqa tumanlarda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

QO'NG'IRSIMONLAR TURKUMI – PODICIPITIFORMES

Qo'ng'irsimonlarning har bir barmog'i alohida terisimon suzgich parda bilan o'ralgan bo'ladi. Bo'yni ingichka va uzun, dum patlari rudiment holda, oyoqlari keyinda joylashgan. Bu turkum bitta qo'ng'irlar (Podicipedidae) oilasini o'z ichiga oladi va MDH, jumladan, O'zbekiston faunasida bu oilaning bitta qo'ng'irlar – *Podiceps Latham* urug'i uchraydi.

Qo'ng'irlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (4) Tumshug'i 30 mm dan uzun.
- 2 (3) Ichki kichik qoquv patlari oq.
Katta qo'ng'ir (Qozga) – Podiceps cristatus L.
O'zbekistonning tekisliklaridagi deyarli hamma suv havzalarida uya quradi.
- 3 (2) Ichki kichik qoquv patlari qoramtir-qo'ng'ir.
Kulrang chakkali qo'ng'ir (Серпухская нырялка) – Podiceps grisegena Boddaert.
Respublikamizning janubi-g'arbiy tumanlarida uya qo'yadi.
- 4 (1) Tumshug'i 30 mm dan kalta.
- 5 (6) Qanoti 115 mm dan kalta. Kichik qoquv patlarining tashqi yelpig'ichlarida qo'ng'ir dog'lar bor.
Kichik qo'ng'ir-qanjir (Малая нырялка) – Podiceps ruficollis Pallas.
Amudaryoning o'rta va quyi oqimida va respublikamizning boshqa ichki suv havzalarida uya quradi.
- 6 (5) Qanoti 115 mm dan uzun. Kichik qoquv patlarining deyarli hammasi oq.
- 7 (8) Tumshug'ining uchi bir oz yuqoriga ko'tarilgan. Birinchi kichik qoquv patlari oq.
Qora bo'yinli qo'ng'ir (Черношейная нырялка) – Podiceps nigricollis Brehm.
Amudaryoning quyi oqimida uya quradi. Sirdaryoda, Chirchiq daryosida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
- 8 (7) Tumshug'i to'g'ri yoki qisman bo'rtib chiqqan. Birinchi kichik qoquv patlari qisman qo'ng'ir yoki qo'ng'ir dog'li bo'ladi.
Qizil bo'yinli qo'ng'ir (Красношейная нырялка) – Podiceps auritus L.

Amudaryoning quyi oqimidagi ko'llarda uya quradi. Respublikamizning qolgan territoriyalarida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.


G'OZSIMONLAR TURKUMI – ANSERIFORMES

O'rtacha kattalikdagi va yirik qushlar bo'lib, oyoqlari kalta, tanasining keyingi qismida joylashgan. Oldingi uchta barmog'i suzgich parda bilan qoplangan. Tumshug'i yalpoq, qirralarida shox plastinkalar yoki tish bo'rtmalari bor. Bo'yni uzun, boshi katta bo'ladi.

O'zbekiston faunasida g'ozsimonlarning bitta – o'rdaklar (*Anatidae*) oilasining vakillari tarqalgan.

O'rdaklar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (7) Sevksi oldingi tomondan to'rsimon mayda qalqonchalar bilan qoplangan (23-rasm).



23-rasm. Kulrang g'oz (a) bilan yovvoyi o'rdakning (b) oyog'i.

2 (3) Boshi va bo'yni oq rangda yoki ochiq kulrang bo'ladi.

Oqqushlar (Лебеди) – Cygnus Bechstein (82-bet).

3 (2) Boshi va bo'yni qoramtir yoki qora-qo'ng'ir rangda bo'ladi.

4 (5) Peshana patlari og'iz kesimining burchaklariga yetib bormaydi.

Xitoy g'ozlari (Сухомосы) – Cygnopsis Brandt.

Bitta nominal turi – *Xitoy g'ozlari – Cygnopsis cygnoides L.* Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida va ba'zan qish kunlarida uchraydi.

5 (4) Peshana patlari og'iz kesimining burchaklarigacha borib yetadi.

6 (7) Boshi, bo'yni va tomog'i qoramtir.

G'ozlar (Гуси) – Arser Brisson (82-bet).

7 (1) Sevksi oldingi tomondan yirik ko'ndalang qalqonchalar bilan qoplangan (23-rasm, b).

8 (9) Tumshug'i ingichka, eni (uchidan oldin) 10 mm dan oshmaydi. Jag'larining qirralari qattiq, o'tkir (ishli bo'ladi).

Cheraglar (Кротаки) – Mergus L. (85-bet).

9 (8) Tumshug'i serbar, eni (uchidan oldin) 10 mm dan enli. Jag'larining qirralari ingichka ko'ndalang plastinkali bo'ladi.

10 (11) Rul patlari ingichka va qattiq. Dumining uski qoplovchi patlari uning faqat asosini o'rab turadi.

Oqbo'shlar (Casy) – Oxyura Bonaparte

O'zbekistonda *oqbo'sh – Oxyura leucocephala Scopoli* degan turi uchraydi. Respublikamizning g'arbida uya quradi va ba'zan qishlaydi.

11 (10) Rul patlari qattiq emas. Dumining uski qoplovchi patlari uning ko'p qismini o'rab turadi.

12 (15) Orqa barmog'ida terisimon parda bor, uning kengligi barmog'i bilan birga 4,5 mm dan oshmaydi. Patlari asosan qizg'ish rangda.

Ang'irtilar (Озоп) – Casarca Bonaparte.

Turi *ang'irt – Casarca ferruginea Pallas* O'zbekistonning hamma suvli tumanlarida uya quyadi.

13 (14) Tumshug'i yuqoriga ancha bukilgan.

Suralayg'ozlar (Иезакки) – Tadorna Flem.

Turi *suralayg'oz – Tadorna tadorna L.* Respublikamizning tekislik qismidagi suvlarda uya quradi.

14 (13) Tumshug'i yuqoriga bukilmagan.

Asl o'r'daktar (Речные утки) – Anas L. (83-bet).

15 (12) Orqa barmog'ining terisimon pardasi serbar bo'lib, eni 4,5 mm dan ortiq.

16 (17) Tumshug'i peshana patidan uchigacha 30 mm dan kalta, burun teshiklari atrofida tumshug'ining kengligi 13-17 mm.

Moryankalar – Clangula Leach.

Bitta turi – *Clandula hyemalis L.* bo'lib, O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

17 (16) Tumshug'i peshana patidan uchigacha 30 mm dan uzun, kengligi burun teshiklari atrofida 17 mm dan oshadi.

18 (21) Burun teshiklari tumshug'ining uchiga nisbatan asosiga yaqin joylashgan.

19 (20) Tumshug'i uchiga tomon ingichkalashib boradi (ustidan qaralsa).

Qizil burunli shung'ivchilar (Красноногие нырки) – Netta Kaup.

Turi *olmabosh – Netta rufina Pallas.* O'zbekistondagi hamma katta qamishzor suv havzalarida qishlaydi va uya quradi.

20 (19) Tumshug'i uzunasiga bir xil kenglikda yoki uchi bir oz kengayadi.

Sho'ng'ivchilar (Норки) – Aythya Boie (85-bet).

21 (18) Burun teshiklari tumshug'ining asosiga nisbatan uchiga yaqin joylashgan.

Xitoy o'r'daktari (Тоюк) – Bucephala Baird.

O'zbekistonda *Xitoy o'r'dagi (Тоюк) – Bucephala clangula L.* Qushlar uchib o'tishi davrida qishda uchraydi.

Oqqushlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dumi ponasimon, eng chetdagi rul patlari o'rtadagilaridan 65-120 mm kalta. Tumshug'i va ko'zining o'rtasi qora. Qora rangli bo'rtmasi bo'lishi mumkin.

Oqqush-shipun (Лебедь-ушун) – Cygnus olor Gmelin.

Amudaryoning quyi qismidagi ko'llarda va Orol dengizining qirg'oqlarida uya quradi. Respublikamizning boshqa joylarida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Dumining uchi yumaloq bo'lib, eng chetdagi rul patlari o'rtadagilaridan 40-60 mm kalta. Tumshug'i bilan ko'zining oralig'i sariq yoki sariq dog'li. Ustki tumshug'i asosida bo'rtmasi bo'lmaydi.

3 (4) Qanoti 550 mm dan, o'rta barmog'i (tirmog'i bilan) 140 mm dan uzun.

Oqqush – klitkun (Лебедь-китун) – Cygnus cygnus L.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi va Amudaryoning quyi oqimida qishlaydi.

4 (3) Qanoti 550 mm dan, o'rta barmog'i (tirnogi bilan birgalikda) 140 mm dan kalta. Tumshug'i qora, yon tomonlarida bittadan yirik sariq dog'lari bor.

Kichik oqqush (Mareh uin myrdpantū nebedь) — Cygnus bewickii Yarell

Bizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

G'ozlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Orqasi va dumining usti kulrang.

Kulrang g'oz (Сепси́ зыб) — Anser anser L.

O'zbekistonda Amudaryo bo'yilarida va Zarafshonning quyi oqimida uya qursa, boshqa joylarda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Orqasi va dumining usti qoramtir-qo'ng'ir.

3 (4) Tumshug'i qora, uchida sariq chizig'i bor. Tumshug'i ustining uchidagi «tirnoqchasi» qora.

Dala g'oz (Тыменух) — Anser fabalis Latham.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi. Zarafshon vodiysining quyi qismida qishlaydi.

4 (3) Tumshug'i oqish yoki sarg'ish bo'ladi. Tumshug'i ustining uchidagi «tirnoqchasi» oqish. Tumshug'i yopiq bo'lganda, jag' qirralarida «tishchalari» ko'rinadi.

5 (6) Tumshug'i 40 mm dan uzun. U yopiq bo'lganda, jag' qirralarida «tishchalari» ko'rinadi.

Oq peshanali g'oz (Белолобая казарка) — Anser albifrons Scopoli.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

6 (5) Tumshug'i 40 mm dan kalta, Tumshug'i yopiq bo'lganda jag' qirralarida «tishchalari» ko'rinmaydi.

Oq peshanali kichik g'oz (Пухляк) — Anser erythropus L.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Asl o'rdaklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'ining uchi asosiga nisbatan ancha keng.

Suqsun (Широконоска) — Anas clypeata L.

O'zbekistonda asosan qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Tumshug'ining uchi kengaymagan.

3 (4) Kichik qoquv patlari bir xil ochiq-qo'ng'ir rangda.

Marmar churrak (Узконосый или мраморный чирок) — Anas angustirostris Menetris.

Amudaryo vodiysida uya quradi. Respublikamizning boshqa tumanlarida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

4 (3) Kichik qoquv patlari qoramtir, metallsimon bo'lib, uchi oq yoki qizg'ish dog'li.

5 (6) Tumshug'i sevkasidan kalta.

Ola qanotli suqsun (Саязь) — Anas penelope L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

6 (5) Tumshug'i sevkasidan uzun.

7 (8) Qo'ltiq patlari va qanotlari ostidagi qoplovchi patlari qoramtir, rasmlari bor.

Suqsun (Широконос) — Anas acuta L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi va ko'plab janubiy tumanlarda qishlaydi.

8 (7) Qanotlari ostidagi qoplovchi patlarining hammasi yoki bir qismi oq.

9 (18) Kichik qoquv patlaridagi «oynacha» metallsimon yaltiroq bo'ladi, ko'k yoki yashil qismi bor.

10 (13) Qo'ltiq va qanotlari ostidagi qoplovchi patlari oq.

11 (12) «Oynacha»si ko'k-yashil rangda. Ko'zi ustidan oqish «qosh» o'tadi.

Qora o'rdak (Черная кряква) — Anas poecilorhyncha Forster.

Ba'zan to'satdan mamlakatimizning sharqiy tumanlaridan uchib keladi.

12 (11) «Oynacha»si binafsha rangda. Ko'zi ustida oqish «qosh» bo'lmaydi.

Yovvoyi o'rdak (Кряква) — Anas platyrhynchos L.

Respublikamizda suvli joylarda uya quradi va qishlaydi.

13 (10) Qanotlari ostidagi qoplovchi patlarining ba'zilari oq bo'lmaydi.

14 (15) Katta qoquv patlarining o'qi oq yoki oqish.

Katta churrak (Чирок-мускунок) — Anas quequedula L.

O'zbekistonda asosan qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi, lekin Amudaryoning o'rta va quyi oqimida uya quradi.

15 (14) Katta qoquv patlarining o'qi qo'ng'ir bo'lib, yelpig'ichdan deyarli farq qilmaydi. Faqat «oynacha»sining keyingi qismi metallsimon yaltiroq.

16 (17) Burun teshiklari atrofida tumshug'ining kengligi 10-12 mm ga teng. Boshning usti va yon tomonlari qizg'ish rangda.

Churrak (Чирок-сауцмунок) — Anas crecca L.

Respublikamizda faqat qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
17 (16) Burun teshiklari atrofida tumshug'ining kengligi 13-15 mm ga teng. Boshining usti qora.

Xirildoq churvak (Хирлок-кочмык) – *Anas formosa* Georgi.

Respublikamizga ba'zan qishda to'saldan uchib keladi.

18 (9) Kichik qoquv patlaridagi «oynacha»si bo'lmaydi. Katta qoquv patlarining o'qi qoramtir bo'ladi.

Qo'ng'ir o'rdak (Сарæ ymkæ) – *Anas strepera* L.

O'zbekistonning janubi-g'arbiy tumanlarida uya quradi, boshqa joylarda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Sho'ng'uvchilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Kichik qoquv patlari qanoti singari kulrang tusda, shu sababli qanotidagi «oynacha»si bilinmaydi.

Qizilbosh sho'ng'uvchi (Қизилбашли uspok) – *Aythya ferina* L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi va qishlaydi.

2 (1) Kichik qoquv patlari oq, uchlari qoramtir bo'ladi. Shuning uchun qanotida oq rangdagi «oynacha»si ko'rinib turadi.

3 (4) Dumining ostki tomoni oq, boldiridagi uzun patlari qizg'ish.

Olaqanot (Белохвостli uspok) – *Aythya nyroca* Guldénstædt.

Amudaryoning quyi oqimida, Sirdaryoning yuqori oqimida uya quradi, respublikamizning qolgan qismida bahorda va kuzda uchraydi.

4 (3) Dumining ostki tomoni qoramtir, boldirining uzun patlari boshqacha rangda. Boshida, odatda, uzun patli kokili bo'ladi.

Kokilli sho'ng'uvchi (Хохлæмææ æephæмæ) – *Aythya fuligula* L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida va ba'zan qishda uchraydi.

Cheragiur urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanoti 210 mm dan, tumshug'i 32 mm dan katta.

Yomon cherag (Йомок) – *Mergus albellus* L.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi va ba'zan qishlaydi.

2 (1) Qanoti 215 mm dan, tumshug'i 32 mm dan uzun.

3 (4) Ustki tumshug'ining yonida burun teshigining oldingi qirasidan uchigacha bo'lgan «tishcha»lar 15 tadan oshmaydi. Tumshug'i ustidagi «tirmoqcha» 10 mm dan uzun.

Katta cherag (Большой крохаль) – *Mergus merganser* L.

Suxon, Zarafshon, Sirdaryo, Chirchiq vodiysida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi. Talas Olatovi va Chotqol tog'larida uya quradi.

4 (3) Tumshug'i ustining yonlarida burun teshigining oldingi qirasidan uchigacha bo'lgan «tishcha»lar 15 ta dan ko'p. Tumshug'i ustidagi «tirmoqcha» 10 mm dan katta.

Uzun burunli yoki o'rtacha cherag (Среднiй крохаль) – *Mergus serrator* L.

Qushlar uchib o'tishi davrida va qishda Toshkent viloyatida uchraydi.

KURAKOYOQLILAR (SAQOQUSHSIMONLAR) TURKUMI – PELECANIFORMES

Yirik va o'rtacha kattalikdagi qushlar, to'rtala barmog'i ham suzgich parda bilan qoplangan. Tumshug'i tagida tomoq xaltasi bo'ladi. O'zbekistonda ikkita oilasining vakillari uchraydi.

Saqoqushsimonlar turkumining oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Yirik qushlar bo'lib, qanotining uzunligi 450-600 mm ga teng. Tumshug'i boshiga nisbatan 4-5 marta uzun.

Saqoqushlar (Пелукаосые) – *Pelecanidae* (86-bet).

2 (1) O'rtacha yirik qushlar. Qanotining uzunligi 400 mm dan oshmaydi. Tumshug'ining uzunligi boshiga teng yoki undan bir oz uzun.

Qoravoylar (Бакланосые) – *Phalacrocoracidae* (86-bet).

Saqoqushlar oilasi – Pelecanidae

Saqoqushlar O'zbekiston faunasining eng yirik qushlaridan hisoblanadi. Tumshug'i uzun bo'lib, ostida katta teri xaltasi bor. Suvida yaxshi suzadi. O'zbekistonda bita nominal urug'i (*Pelecanus* L.) uchraydi.

Saqoqushlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Katta qoquv patlarining o'qi oqish. Rangi qizg'ish.

Qizg'ish saqoqush (Розовый неукан) – *Pelecanus onocrotalus* L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Katta qoquv patlarining o'qi qoramtir. Rangi oqroq yoki kulrang.

Jingalak saqoqush (Кудрясый неукан) – *Pelecanus crispus* Bruch.

Amudaryoning shimoli-g'arbiy sohillarida, Orol dengizining janubiy qirg'oqlarida uya quradi.

Qoravoylar oilasi – Phalacrocoracidae

Bular o'rtacha yirik qushlardir. Tumshug'i yon tomondan qisilgan, uchida ilmog'i bor. Suvda yaxshi sho'ng'iydi. Baliqlar bilan oziqlanadi. O'zbekistonda bu oilaning ikkita turi uchraydi.

Qoravoylar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'i 40 mm dan, qanoti 225 mm dan kalta.

Kichik qoravoy (Mareuil baccatus) – Phalacrocorax pygmaeus Pallas
Orol dengizi qirg'oqlarida, Amudaryoning quyi oqimida uya quradi.

2 (1) Tumshug'i 40 mm dan, qanoti 300 mm dan uzun.

Katta qoravoy (Boisui baccatus) – Phalacrocorax sarbo L.
Orol dengizi qirg'oqlarida va Amudaryoning shimoli-g'arbiy qismida uya quradi. Janubiy tumanlarida esa qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

QIZILQANOTSIMONLAR TURKUMI – PHOENICORTERIFORMES

Yirik qushlar bo'lib, oyoqlari uzun, bo'yni uzun va egiluvchan, tumshug'i o'rtasidan pastga qarab bukilgan. Qanotlari kalta, serbar. Qanotlarining qoplovchi va ichki qoquv patlari qizil, qolgan qoquv patlari qora bo'ladi. Bu turkumga MDH va O'zbekiston faunasidagi qizilqanotlilar (Phoenicopteridae) oilasi, qizilqanotlar (*Phoenicopterus L.*) urug'i va qizilqanot (*Phoenicopterus roseus Pallas*) turi kiradi.

Amudaryo vodiysida, Orol dengizi ko'llarida va Bo'non, Zarafshon, Marg'ilonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

LAYLAKSIMONLAR TURKUMI – CICONIFORMES

Bularning oyoqlari, bo'yni va tumshug'i uzun bo'lib, sevksi va boldirining pastki qismida pat bo'lmaydi. O'zbekiston faunasida uchta oilasining vakillari uchraydi.

Laylaksimonlarning oilalarini aniqlash jadvali

1 (4) Tumshug'i to'g'ri, konussimon va uchi kengaymagan.
2 (3) Qanoti 500 mm dan kalta. O'rta barmog'ining tirmog'i ichki tomondan taroqqa o'xshaydi.

Qorqaralar (Hareoise) – Ardeidae (89-bet).

3 (2) Qanoti 500 mm dan uzun. O'rta barmog'ining tirmog'i ichki tomondan o'yilmagan.

Laylaklar (Actinopterie) – Ciconiidae (89-bet).

4 (1) Tumshug'i yassi, kuraksimon yoki o'roqsimon bukilgan va yupqa.

Ibislar (Houcousee) – Threskiornithidae (88-bet).

Ibislar oilasi – Threskiornithidae

Bo'yni uzun, tumshug'i o'roqsimon shaklda, oyoqlari ancha uzun qushlardir. Sevksi to'rsimon. Oldingi barmoqlarining asosida suzgich pardasi bo'ladi. O'zbekiston faunasida ibislarining ikkita urug'ining turlari uchraydi.

Ibislar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'i yassi, serbar bo'lib, uchi ancha kengaygan va kurakka o'xshaydi.

Qoshiqburuntar – Platalea L.

Turi *qoshiqburun (Kornuqa) – Platalea leucordia L.*

Orol dengizi qirg'oqlarida, Amudaryoning quyi oqimidagi ko'l-larida uya quradi.

2 (1) Tumshug'i ingichka va yoysimon bo'lib, pastga bukilgan.

Qoravoylar (Kapaauka) – Plegadis Kaup

Turi *qoravoy (Kapaauka) – Plegadis falcinellus L.*

Amudaryo ko'llarida va Orol qirg'oqlarida uya quradi.

Laylaklar oilasi – Ciconidae

Yirik qushlar bo'lib, tumshug'i uzun, konussimon. Barmoqlarining asosida suzgich pardasi bor. Parvoz qilib uchadi. O'zbekiston va MHD faunasida bitta laylaklar urug'ining turlari uchraydi.

Laylaklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Boshi va bo'yni oq.

Oq laylak (Bessui acm) – Ciconia ciconia L.

Respublikamizning ichki qismidagi baland daraxtlarga uya quradi.

2 (1) Boshi va bo'yni qora bo'ladi.

Qora laylak (*Cephus aem*) – *Ciconia nigra* L.
O'zbekistonning tog'li tumanlarida uya quradi.

Qarqaralar oilasi – Ardeidae

Har xil kattalikdagi qushlardir. Tumshug'i uzun va o'tkir bo'lib, jag'larining qirrasida mayda tishchalari bor. O'rta barmoqlarining ichki qirradi taroqsimon.

O'zbekiston faunasida qarqaralarning 6 ta urug'ining turlari uchraydi.

Qarqaralar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Qoquv patlarida yaxshi rivojlangan ko'ndalang rasmlar bor.

Ko'ibuqalar (*Bairu*) – *Botaurus Stepiens*

Turi *katta ko'ibuqa* (*Bairu*) – *Botaurus stelleris* L. O'zbekistonning janubiy va g'arbiy qismidagi qamishzor botqoqliklarda uya quradi.

2 (1) Qoquv patlarida ko'ndalang rasmlar yo'q.

3 (4) Butun tanasining patlari oppoq bo'lib, ko'kragida, bo'ynida va yelkasida sarg'ish bezak patlari bor.

Oqqo'tonlar (*Белые уаны*) – *Egretta Forster* (90-bet).

4 (3) Tanasidagi patlarda oq rang ustunlik qilmaydi.

5 (7) Rul patlari oq bo'ladi.

6 (7) Tumshug'i sevkasidan kalta emas, sevkasi 70 mm dan kalta.

Sariq qo'tonlar (*Кочмавые уаны*) – *Ardeola Boie*.

O'zbekistonda nominal turi *Жанмаз уаны* – *Ardeola rallioides* Scopoli uchraydi. Respublikamizning janubi-g'arbiy qismidagi botqoqliklarda va qamishzorlarda uya quradi.

7 (6) Rul patlari boshqacha rangda.

8 (9) Tumshug'i va sevkasi 100 mm dan uzun.

Qo'tonlar (*Уаны*) – *Ardea* (90-bet).

9 (8) Tumshug'i va sevkasi 100 mm dan kalta.

10 (11) Qanoti 200 mm dan uzun.

Haqqushlar (*Кеакес*) – *Nycticorax Forster*.

Turi *haqqush* – *Nycticorax nycticorax* L. O'zbekistondagi deyarli hamma to'qayzorlarda, qamishzorlarda uya quradi.

11 (10) Qanoti 200 mm dan kalta.

Kichik ko'ibuqalar (*Борукта*) – *Ixobrychus Billberg*

Turi *kichik ko'ibuqa* – *Ixobrychus minutus* L. Respublikamizdagi deyarli hamma qamishzorlarda uya quradi.

Oqqo'tonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanoti 360 mm dan, tumshug'i 100 mm dan uzun

Kalta oqqo'ton (*Белая уаны*) – *Ergetta alba* L.

Amudaryo bo'ylarida uya quradi. Qolgan joylarda oqushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Qanoti 350 mm dan, tumshug'i 100 mm dan kalta.

Kichik oqqo'ton (*Малая белая уаны*) – *Ergetta garzetta* L.

O'zbekistonning shimoli-g'arbiy tumanlarida uya quradi.

Qo'tonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) O'rta barmog'i tirnog'i bilan sevkasidan kalta. Tanasida

qizg'ish rang yo'q.

Kulrang ko'kqo'ton (*Сепая уаны*) – *Ardea cinerea* L.

Respublikamizning ichki suv havzalarida uya quradi va qishlaydi.

2 (1) O'rta barmog'i timog'i bilan sevkasidan kalta emas. Tanasida

qizg'ish rang bor.

Qizg'ish qo'ton (*Рыжая уаны*) – *Ardea purpurea* L.

Amudaryo sohillarida uya quradi. Respublikamizning qolgan hududida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

KUNDUZGI YIRTQICHLAR

TURKUMI – FALCONIFORMES

Bular yirik va o'rtacha kattalikdagi qushlar hisoblanadi. Tumshug'i va tirnoqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, uchi egilgan. Tumshug'ining asosida ochiq terisi boshqacha rangda bo'lishi bilan tanasining qolgan qismidan farq qiladi. Bu joyi voskovitsa deyiladi. Patlari zichligi, ko'z-lari boshining yon tomonida joylashganligi bilan ukki yoki yapaloqqushlardan farq qiladi. Bularda jig'ildon bo'ladi. MDH va O'zbekiston faunasidagi kunduzgi yirtqichlar ikkita oilani o'z ichiga oladi.

Kunduzgi yirtqichlarning oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'i ustining yonlarida, uning uchidan oldin o'tkir «tishcha»si ko'rinish turadi.

Lochinlar (*Сокруные*) – *Falconidae* (91-bet).

2 (1) Ustki tumshug'ining uchidan oldin o'tkir «tishcha»si yo'q, silliq.

Qarchig'aylar (*Ястребовые*) – *Accipitidae* (93-bet).

Lochinlar oilasi – Falconidae

O'rtacha kattalikdagi qushlar bo'lib, asosan uchib yuruvchi joni-
vorlar bilan oziqlanishga moslashgan. Qanoti ingichka, uzun. Tum-
shug'i ustining uchidan oldinroqda o'tkir «tishcha»si bor. MHD va
O'zbekiston faunasidagi lochinlar bitta nominal uruqqa mansubdir.

Lochinlar urug'ining turfarini aniqlash jadvali

- 1 (6) Qanoti, odatda, 300 mm dan uzun. O'rta barmog'i tirnoq-
simon, 4 mm dan uzun.
- 2 (3) Tashqi barmog'i ichki barmog'idan uzun, ikkalasini ham
tirnoqsiz o'lgandagina, ancha uzun, o'rta barmog'i sevkasidan ham
Birinchisi katta qoquv pati uchinchisidan uzun.
Lochin (Caucas) – Falco peregrinus Tunstall.
O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida va qishlab qolganda
uchraydi.
- 3 (4) Tashqi va ichki barmoqlari (tirnoqsiz o'lgandagina) taxminan
bir-biriga teng, o'rta barmog'i sevkasidan kalta. Birinchi katta qoquv
pati uchinchisidan kalta.
- 4 (5) Erkagining qanoti 340 mm dan, urg'ochisidiki 375 mm dan
kalta. Sevka si oldingi tomondan faqat ustining 1/3 qismi pat bilan
qoplangan, qo'tlig'i va boldiri bir xil qo'ng'ir rangda.
Hindiston italg'isi (Iazzap) – Falco jugger J.E.Gray.
Respublikamizda ba'zan tasodifan uchraydi, ya'ni uchib keladi.
- 5 (4) Erkagining qanoti 340 mm dan, urg'ochisidiki 375 mm dan
uzun. Sevka si oldingi tomondan ustidan yarmigacha pat bilan qoplan-
gan, qo'tlig'i va boldiri har xil rangda.
Italg'i (Bavoban) – Falco cherrug Gray
O'zbekistondagi tog'li tumanlarda va tekisliklardagi do'ngliklarda
uya quradi.
- 6 (1) Qanoti 300 mm dan oshmaydi, o'rta barmog'i (tirnoqsiz
o'lgandagina) 35 mm dan kalta.
- 7 (12) Tirnog'i qora yoki qoramir. O'rta barmog'i (tirnoqsiz
o'lgandagina) 25 mm dan uzun.
- 8 (9) Orqa tomoni qizg'ish rangda. Tashqi va ichki barmoqlari
deyarli bir xil uzunlikda.
Mitqiy (Ilyemeliza) – Falco tinnunculus L.
O'zbekistonda deyarli hamma joyda uchraydi.
- 9 (8) Orqa tomoni kulrang yoki qo'ng'ir. Tashqi barmog'i ichki-
sidan ancha uzun.

10 (11) O'rtadagi rul patlari bir xil rangda. Patlarida ko'ndalang
chiziqlar yo'q. Birinchi katta qoquv patining ichki yelpig'ichi kesilgan,
ikkinchisi kesilmagan.

Jig'oltoy (Hezios) – Falco subbuteo L.

O'zbekistondagi daraxtzorlarda uya quradi.

11 (10) O'rtadagi rul patlarida ko'ndalang chiziqlar bo'ladi yoki
uchiga yaqin joyi qoramir. Katta qoquv patlarining birinchi va
ikkinchisining ichki yelpig'ichi kesilgan.

Turumtoy (Depous) – Falco columbarius L.

Respublikamizda qishlaydi.

12 (7) Tirnoqlari oqish, sarg'ish, o'rta barmog'i (tirnoqsiz o'lgan-
dagina) 25 mm dan kalta.

13 (14) Orqasi asosan qizg'ish. O'rtadagi rul patlari chetdagilardan
20 mm dan ortiq uzun.

Dasht miqqiyisi – kuyka (Circus hircanicus) – Falco naumanni
Fleischer.

O'zbekistondagi tekislik va tog' etagi tumanlarida uya quradi.

14 (13) Orqasi qoramir yoki kulrang-qoramir. O'rtadagi rul pat-
lari chetdagilardan 20 mm dan kamroq uzun.

Kobchik – Falco vespertinus L.

Respublikamizga qushlar uchib o'tishi davrida yo'lidan adashib
ba'zan kelib qoladi. Juda ham kam uchraydigan qush, shuning uchun
o'zbekcha nomi yo'q.

Qarchig'aylar oilasi – Accipitridae

Yirik va o'rtacha kattalikdagi qushlardir. Qanoti serbar, lekin o'tkir
emas. Ustki tumshug'ining bukilgan joyida «tishcha»si yo'q, silliq.
O'zbekiston faunasida qarchig'aylarning 14 urug'i va 32 turi uchraydi.

Qarchig'aylar urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (2) Voskovitsasi qilsimon patlar bilan qoplangan, Tumshug'i-
ning ostida qattiq qilsimon patlardan hosil bo'lgan uzun soqoli bor.
Boitayutalar (Bopodaru) – Gypaetus Stern.
Turi boitayutar – *Gypaetus barbatus L.*
Faqat O'zbekistondagi baland tog'larda uya quradi.
- 2 (1) Voskovitsasi ochiq, qilsimon patlar bilan qoplanmagan. Tum-
shug'i ostida soqoli yo'q.
- 3 (8) Boshining oldingi qismi va tomog'i patlar bilan zichi qoplan-
magan. Tirnoqlari o'tmas va bir oz bukilgan.

- 4 (5) Voskovitsasidan tumshug'ining uchigacha bo'lgan masofa 40 mm dan katta. Ensasi va bo'yining orqasi pat bilan qoplangan. Turi *Chilcar (Cnephopsamma)* - *Neophron Sav.* dagi qo'yalarda va chollarda uya quradi.
- 5 (4) Voskovitsasidan tumshug'ining uchigacha bo'lgan masofa 40 mm dan katta. Ensasi va bo'yining orqasi ochiq yoki par bilan qoplangan. Uzun. Ensasi 50 mm dan uzun.
- 6 (7) Qanoti 650 mm dan uzun. Turi *Burun teshikli yumaloq*. Patlari qo'ng'ir rangda. Turi *Burun teshikli yumaloq (Cucul)* - *Aegyptus Savigny*
- 7 (6) Tog'lardagi daraxtlarga uya quradi. joylashgan. Burun teshiklari tor yoriqsimon va tumshug'iga ko'ndalang qumaloq. Patlarining rangi oqish yoki sariq-qo'ng'ir bo'ladi.
- 8 (3) *Burun teshikli yumaloq (Cucul)* - *Gyps Savigny (96-bet)*. qoplangan. Boshining oldingi qismi va tomog'i pat bilan to'liq qoplangan. Turi *Burun teshikli yumaloq (Cucul)* - *Gyps Savigny (96-bet)*.
- 9 (12) Tirmoqlari o'rtacha barmoqlarigacha hamma tomondan pat bilan qoplangan. Sevkasi 10 mm dan uzun.
- 10 (11) Voskovitsasining oldingi qirrasidan tumshug'ining uchigacha bo'lgan masofa 55 mm dan uzun, keyingi tirmog'i 44 mm dan, *Burgulcar (Opus)* - *Aquila (96-bet)*.
- 11 (10) Voskovitsasining oldingi qirrasidan tumshug'ining uchigacha bo'lgan masofa 38 mm dan katta, keyingi tirmog'i 44 mm dan, *Qirg'ib* dan katta. *Qirg'ib (Circus lacpepede)* - *Hieraeetus Kaur (97-bet)*.
- 12 (9) *Burgulcar (Opus)* bilan qoplanmagan, pat bo'lgan taqdirga faqat orqa tomoni Sevkasi pat bilan qoplangan.
- 13 (14) *Qalqonchalar* peshanasi qattiq kalta patlar bilan qoplangan. *Arxovlar (Circus)* - *Perris Gavier (96-bet)*.
- 14 (13) Chakkasi va peshanasi qilsimon patlar bilan qoplangan.
- 15 (16) Chakkasi va voskovitsasining oldingi qirrasidan to uchigacha 40 mm dan uzun. Tumshug'i *Sav burgulcar (Opus)* - *Haliaeetus Savigny (98-bet)*.
- 16 (15) *Burgulcar (Opus)* voskovitsasining oldingi qirrasidan to uchigacha 40 mm dan uzun. Tumshug'i *Sav burgulcar (Opus)* - *Haliaeetus Savigny (98-bet)*.
- 17 (24) Sevkasining oldingi tomoni ko'p qirrali mayda qalqonchalar bilan qoplanib, to'r hosil qiladi.
- 18 (19) Barmoqlarining pastki tomoni o'tkir barmog'lar bilan qoplangan. Tirmoqlarining ichki yuzasi yumaloqlangan. Tirmoqlarining hamma yuzasi deyarli bir xil uzunlikda bo'lib, kuchli bukilgan. *Skopalar - Pandion Savigny.*
- Turi *skopa (Ciconia)* - *Pandion haliaetus L.* Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
- 19 (18) Tirmoqlarining ostida o'tkir barmog'lar yo'q. Tirmoqlari kuchli bukilmagan, tagi yassi va har xil uzunlikda.
- 20 (23) Sevkasining orqa tomoni mayda to'r hosil qiluvchi qalqonchalar bilan qoplangan.
- 21 (22) Qanoti 400 mm dan uzun. *Ilonxo'r burgulcar (Zmeedob)* - *Circaetus Viellot.*
- Turi *ilonxo'r burgulcar - Circaetus ferox Gmelin.* Qizilqum cho'llarida uya quradi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
- 22 (21) Qanoti 400 mm dan, sevkasi 40 mm dan katta. *Kulrang kalxatlar (Elanus caesus)* - *Elanus Savigny.*
- Turi *kulrang kalxat - Elanus caesus Gmelin.* Respublikamiz janubi Termiz atroflarida 1929-yilda uchratilgan.
- 23 (26) Sevkasi (tepki suyagi) ning orqa tomoni yirik ko'ndalang qalqonchalar bilan qoplangan.
- 25 (26) Sevkasining orqa tomoni ko'p burchakli mayda qalqonchalar bilan qoplangan bo'lib, to'r hosil qilgan. *Kalxatlar (Circus)* - *Milvus Lacede.*
- Turi *qora kalxat (Circus lacpepede)* - *Milvus korschum Gmelin.* Respublikamizdagi daraxtzorlarda uya quradi.
- 26 (25) Sevkasining keyingi tomoni yirik ko'ndalang qalqonchalar bilan qoplanmagan.
- 27 (28) Sevkasi pat bilan qoplangan, o'rta barmog'idan (tirmog'ini hisobga olmaganda) 2 martadan ortiq uzun. Boshining yuz qismi mayda qattiq pat bilan qoplangan bo'lib, yapaloqqushlardagidek «yuz diskini» hosil qiladi.
- Bo'ktargilar (Lynx)* - *Circus Lacede (97-bet).*
- 28 (27) Sevkasining bir qismi pat bilan qoplangan bo'lishi mumkin. Sevkasi o'rta barmog'idan (tirmog'ini hisobga olmaganda) 2 martadan ortiq uzun emas. Kalta qattiq patlardan hosil bo'lgan «yuz diskini» yo'q.

Qirg'iblar (qarchig'aylar - Ястребы) - *Accipiter Brisson (99-bet).*

Arixo'rlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) O'rtabarmog'i (tirmog'ini hisobga olmaganda) 45 mm dan kalta, 2-katta qoquv pati 6-sidan kalta.

Arixo'r (Ocoed) - Pernis apivorus L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) O'rtabarmog'i (tirmog'ini hisobga olmaganda) 45 mm dan uzun, 2-katta qoquv pati 6-siga teng.

Kokilli arixo'r (Xoxiamyū ocoed) - Pernis ptilorhynchus Temminck.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida juda kam uchraydi.

Qumoylar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanoti 750 mm dan kalta. Dumining usti qoramitir, lekin oqish dog'lari bor.

Oqboшли qumoy (Безоголовый цуи) - Gyps fulvus (Hablize).

O'zbekistonda baland tog'li tumanlarida uya quradi.

2 (1) Qanoti 750 mm dan uzun. Dumining usti oq.

Qumoy (Чивучный зуи) - Gyps himalayensis Hume.

O'zbekistonda baland tog'larda uya quradi.

Burgutlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Orqabarmog'ining tirmog'i voskovitsasining oldingi qirrasidan to tumshug'ining uchigacha bo'lgan masofadan uzun. 2 - 6-katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi qisqargan.

Burgut (Беркут) - Aquila chrysaetus L.

O'zbekistonda tog'larda va cho'llarda qoyalarga uya quradi.

2 (1) Orqabarmog'ining tirmog'i tumshug'idan kalta. 2 - 7-katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi qisqargan.

3 (6) Burun teshiklari cho'ziq, quloqsimon. Tumshug'i keng, ustining balandligi (voskovitsasining oldingi qirrasidan o'ichaganda) odatda, 19 mm dan ortiq.

4 (5) Tanasining pastki tomoni qoraroq, xuddi qanotlaridek. Boshi hamda bo'yni oqish rangda bo'lib, orqasidan farq qiladi. Qorin tomonida uzunasiga joylashgan oqish dog'lari bor.

Qirongora (Орел-воинник) - Aquila heliaca Savigny.

O'zbekistonda qishda uchraydi va Amudaryo vodiysida uya quradi.

5 (4) Tanasining pastki tomoni qo'ng'ir, bir xil rangda bo'lib, qoquv patlaridan oqishligi bilan ajralib turadi, lekin boshining rangidan qoraroq emas.

Qoraqush, dasht burguti (Снеговый орел) - Aquila nipalensis Hodgson.

6 (3) Burun teshiklari yumaloq, tumshug'i kambar, ustining balandligi, odatda, 19 mm dan kam.

7 (8) Voskovitsasining oldida ustki tumshug'ining balandligi 14-16 mm ga teng.

Mitti burgut (Малый нодопник) - Aquila pomarina Brehm.

Respublikamizning janubiga kamdan-kam vaqtda uchib keladi.

8 (7) Voskovitsasining oldida ustki tumshug'ining balandligi 17-19 mm ga teng.

Katta burgut (Большой нодопник) - Aquila clanga Pallas.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Qirg'iy burgutlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) O'rtabarmog'i (tirmog'ini hisobga olmaganda) 50 mm dan uzun. Tumshug'i voskovitsasining oldingi qirrasidan uchigacha 28 mm dan uzun.

Qirg'iy burgut (Дуннохорокый орел) - Hieraaetus fasciatus Vieillot.

O'zbekistonning g'arbidagi tog'liklarda uya quradi.

2 (1) O'rtabarmog'i (tirmog'ini hisobga olmaganda) 50 mm dan, tumshug'i 28 mm dan kalta.

Kichik burgut (Орел скапник) - Hieraaetus pennatus Gmelin

Respublikamizning tog'li tumanlarida tarqalgan.

Bo'ktargilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (6) Orqasi bir xil kulrang.

2 (3) Qorin tomonida uzunasiga joylashgan qizg'ish dog'lari bor. Birinchi katta qoquv pati ichki yelpig'ichining kesimi ustki qoplovchi patlarining uchidan 2-3 sm uzoqda.

Qo'riq bo'ktargisi (Шығооу атуу) - Circus pygargus L.

Amudaryo vodiysining sharqiy qismida uya quradi.

3 (2) Qorin tomoni bir xil oq. Birinchi katta qoquv pati ichki yelpig'ichining kesimi ustki qoplovchi patlarining uchiga yaqin joylashgan.

4 (5) Dumining ustki qoplovchi patlari bir xil oq. 1 – 5-katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi qisqargan.

Dala bo'ktargisi (Полесой яны) – *Circus cyaneus* L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi. Ba'zan qishlab qoladi.

5 (4) Dumining ustki qoplovchi patlarida ko'ndalang joylashgan kulrang chiziqlar bo'ladi. 1-4-katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi qisqargan.

Cho'l bo'ktargisi (Степной яны) – *Circus macrourus* Gmelin.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi, Sirdaryo vodiysida uya quradi.

6 (1) Orqasi qoramtir-qo'ng'ir yoki qora bo'lib, unda bir xil yoki oqish rasmlari bor.

7 (8) Rul patlari yaltiroq-kulrang.

Soz bo'ktargisi (Бозомусту яны) – *Circus aeruginosus* L.

O'zbekistonda suvli tumanlardagi o'tloqlarda uya quradi.

8 (7) Rul patlari qoramtir. Dumining ustki qoplovchi patlari qoramtir. Tumshug'i voskovitsasining oldingi qirrasidan uchigacha 20 mm dan uzun.

Soz bo'ktargisi (Бозомусту яны) – *Circus aeruginosus* Kaup.

Suv burgutlari urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Burun teshiklari yoriqsimon. Birinchi katta qoquv pati 7-sidan kalta. O'rtadagi rul patlari chetdagilardan 35 mm dan ortiq uzun. Dumi oq.

Oq dumli suvburgut (Орпан-белухачом) – *Haliaeetus albucilla* L.

Qushlar uchib o'tishi davrida va qishda respublikamizning ochiq joylarida uchraydi.

2 (1) Burun teshiklari ovalsimon. Birinchi katta qoquv pati 7-sidan uzun. O'rtadagi rul patlari chetdagilardan 35 mm dan ortiq uzun emas.

Uzun dumli suvburgut (Орпан-долухачом) – *Haliaeetus leucorhynchus* Pallas.

Amudaryoning o'rtiq oqimida qishlaydi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Sorlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Sevkasi oldingi tomondan barmoqlarigacha pat bilan qoplangan.

2 (3) Rul patlarining uchidan oldin serbar qoramtir chizig'i bo'ladi. Sevkasi 80 mm dan kalta.

Oq sor (Зумук) – *Buteo lagopus Pontoppidan*.

O'zbekistonda qish vaqtida uchraydi.

3 (2) Rul patlarining uchidan oldin serbar qoramtir chizig'i yo'q. Sevkasi 80 mm dan uzun.

Paxmoq oyoqli sor (Мохинозоу кырганук) – *Buteo hemiliastus Temminck et Schlegel*.

O'zbekistonning sharqiy tumanlarida ba'zan qishtilaydi.

4 (1) Sevkasi oldingi qismining hammasi (yoki bir qismi) qalqonchalar bilan qoplangan.

5 (6) Sevkasi o'rtiq barmog'iga nisbatan (tinog'i hisobga olinmaganda) ikki martadan ortiq uzun. Sevkasi 80 mm dan uzun.

Sariq sor (Кырганук) – *Buteo rufinus Cretzschmar*.

O'zbekistonda uya quruvchi qush.

6 (5) Sevkasi o'rtiq barmog'idan ikki baravardan ortiq uzun emas. Sevkasi 80 mm dan kalta.

Sor (Сапуу) – *Buteo buteo* L.

O'zbekistonda asosan qishlaydi. Farg'ona vodiysi tog'larida uya qurishi ham mumkin.

Qarchig'aylar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanoti 270 mm dan uzun, tumshug'i voskovitsasining oldingi qirrasidan uchigacha 18 mm dan uzun.

Qarchig'ay (Темпееманук) – *Accipiter gentilis* L.

O'zbekistonda qishlaydi.

2 (1) Qanoti 270 mm dan, tumshug'i 18 mm dan kalta.

3 (4) Ichki barmog'ining uchi (tinog'siz) o'rtiq barmog'ining birinchi bo'g'imi oxiriga to'g'ri keladi (24-rasm, a).


Qirg'iy, qiyg'ir (Пепенеямнук) – *Accipiter nisus* L.

Bizda qish vaqtida ko'p uchraydi.

4 (3) Ichki barmog'ining uchi o'rtiq barmog'ining birinchi bo'g'imidan pastda joylashgan (24-rasm, b). Faqat 1-4-yoki 1-5-katta qoquv patlarining tashqi yelpig'ichlari qirqilgan.

5 (6) Dumi 142 mm dan, qanoti 200 mm dan uzun.

Toshqirg'iy (Тоусу) – *Accipiter badius* Gmelin.



24-rasm. Qirg'iy (a) bilan tyuvikning (b) o'ng oyog'i.

O'zbekistonda to'qayzorlarda uya quradi.

6 (5) Dumi 142 mm dan, qanoti 200 mm dan kalta.

Kichik qirg'iy (Малый перелетник) – Accipiter virgatus Hodgs.

YAPALOQQUSHLAR TURKUMI (COBB) – STRIGIFORMES

Yapaloqqushlar tumshug'i ilgakdek qayrilganligi, oyoqlari o'tkir timoqli va aylanna panjali bo'lishi, yumshoq patlari va yuz patlari borligi bilan xarakterlanadi. Yuz patlari ko'zlarining atrofidan xuddi markazdan chiqqandek tarqaladi va «yuz diski» hosil qiladi.

Ko'zlari boshining oldingi tomoniga qaragan.

O'zbekistonda yapaloqqushlar (*Strigidae*) oilasining turlari tarqalgan.

Yapaloqqushlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (6) Qanoti 200 mm dan kalta.

2 (3) Boshida «quloq» deb ataluvchi o'siq patlari bor. Qorin tomonida bo'ylamasiga joylashgan kambar qoramtir kalta chiziqlar bor. Yelka patlarining tashqi yelpig'ichlarida oq dog'lar bo'ladi.

Sog'lar (Coeku) – Otus Fennant(102-bet).

3 (2) Boshida «quloq» patlari yo'q. Yelka patlarining ichki va tashqi yelpig'ichlarida oq dog'lar yoki oq ko'ndalang yo'llar bor.

4 (5) 2-4-katta qoquv patlarining tashqi yelpig'ichlari uchiga yetmasdan qisqargan, 1-4-katta qoquv patlarining ichki yelpig'ichlari ham qisqargan. 1-katta qoquv pati tashqi yelpig'ichlarining tishchalari kalta.

Boyo g'illar (Поморские совы) – Athene Boie.

O'zbekistonda boyo g'illarning kenja turi – *Athene noctua bakriana Hult.* tarqalgan.

5 (4) Faqat 2-katta qoquv patining tashqi yelpig'ichi uchiga yetmasdan qisqargan. 1-2-katta qoquv patlarining ichki yelpig'ichlari ham uchiga yetmasdan qisqargan. Birinchi katta qoquv pati tashqi yelpig'ichlarining tishchalari uzun.

Paxmoq oyoqli boyo g'illar (Мохинозые совы) – Aegolius Kaup.

Turi paxmoq oyoqli boyo g'li (*Мохинозуй сова*) – *Aegolius funereus L.* O'zbekistonda Farg'ona va Zarafshon archazorlarida uchraydi.

6 (1) Qanoti 200 mm dan uzun.

7 (10) Qanoti 200 mm dan kalta.

8 (9) Qorin tomonida ko'ndalang chiziqlar bo'lib, uzunasiga joylashgan dog'lar bo'lmaydi.

Qirg'iy ukkilar (Ампециевые совы) – Surnia Dumeril.

Turi qirg'iy ukki – *Surnia ulula L.* Tyan-Shandagi archazorlarda uchraydi.

9 (8) Qorin tomonida uzunasiga joylashgan dog'lar bo'ladi. Qanoti 260 mm dan uzun.

Purqqushlar (Hexacumbe) – Strix L.

Turi purqqush – *Strix aluco L.* O'zbekistonning tog'li o'rmonlarida yashaydi.

10 (7) Tumshug'ining usti qoramtir yoki qora-qo'ng'ir rangda.

11 (12) Ko'kragi finiq oq yoki qoramtir ko'ndalang chiziqli.

Oq yapaloqqushlar – Nystea Stephens.

Nominal turi (*Betta cooa*) – *Nystea scandiaca L.* Respublikamizga ba'zan qish oylarida shimoli-sharqdan uchib keladi.

12 (11) Ko'kragida uzunasiga joylashgan qoramtir dog'lari bor, ko'ndalang chiziqlari yo'q.

13 (14) Qanoti 350 mm dan kalta.

Quloqdor yapaloqqushlar – Asio Brisson (102-bet).

14 (13) Qanoti 350 mm dan uzun.

Ukkilar (Фуауны) – Bubo Dumeril.

Turi *oddiy ukki* – *Bubo bubo* L. Respublikamizda cho'i, dashtlar va tog'li tumanlarda qoyalarga uya quradi.

Sog'lar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Birinchi katta qoquv pati 6-sidan uzun. Barmoqlarining asosi pat bilan qoplanmagan.

Oddiy sog' (*Cynouca*) – *Otus scops* L.

O'zbekistonda tog'li tumanlarda yashaydi.

2 (1) Birinchi katta qoquv pati 6-sidan kalta. Barmoqlarining asosi pat bilan qoplanmagan.

Cho'i sog'i (*Bylaniya coska*) – *Otus brucei* Hume.

O'zbekistonda bog'larda, to'qayzorlarda yashaydi.

Quloqdor yapaloqqushlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasining yon tomonidagi patlarida yaxshi ajralib turadigan ko'ndalang rasmlar bor. «Quloq» patlari 55 mm ga yaqin.

Quloqdor yapaloqqush (*Vuacemaa coska*) – *Asio otus* L.

O'zbekistonda qishlaydi, uya quradi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Tanasining yon tomonida faqat uzunasiga joylashgan rasmlar bo'ladi. «Quloq» patlari 18-20 mm ga teng.

Soz yapaloqqushi (*Bozomiyaa coska*) – *Asio flammeus* *Pontoppidan*.

O'zbekistonda qishlaydi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

KAKKUSIMONLAR TURKUMI (КУКУШКОБРАЗНЫЕ) – CUCULIFORMES

Bular o'rtacha kattalikdagi o'rmon qushlaridir. Qanoti kalta, dumi uzun bo'ladi. Tashqi to'rtinchi va birinchi barmoqlari orqaga qaragan. Bizda yashaydigan kakkular boshqa qushlarning uyasiga tuxum qo'yib parazitlik qiladi.

O'zbekiston faunasida uchraydigan kakkusimonlar kakkular (*Cuculus*) urug'iga va kakkular (*Cuculidae*) oilasiga mansubdir.

Kakkular urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanotining ustki qoplovchi patlarida oq rasmlar bo'lib, ko'ndalang qoramtir chiziqtlari ham bor.

Oddiy kakku (*Kykyuka obyktosemias*) – *Cuculus canoris* L.

O'zbekistondagi hamma daraxtzorlarda uya quradi.

2 (1) Qanotining ustki qoplovchi patlarida oq rasmlar bo'lib, ko'ndalang qoramtir chiziqtlar yo'q.

Kar kakku (*Tyxaa kykyuka*) – *Cuculus saturatus* *Blyth*.

Respublikamiz territoriyasida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

TENTAKQUSHSIMONLAR TURKUMI (КОЗОДОЕОБРАЗНЫЕ) – CAPRIMULGIFORMES

O'rtacha kattalikdagi qushlar bo'lib, patlari yumshoq. Kechqurun va tunda aktiv hayot kechiradi. Tumshug'i kalta, og'zi katta bo'lib, atrofi qilsimon pat bilan o'ralgan.

O'zbekiston faunasida haqiqiy tentakqushlar oilasi – *Caprimulgidae* va tentakqushlar urug'i (*Caprimulgus* L.)ning turlari uchraydi.

Tentakqushlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) 1-3-katta qoquv patlarining ichki yelpig'ichlaridagi serbar oq dog'lar pat o'qi tomonga tishisimon botib kiradi.

Saman tentakqush (*Bylaniya kozodoi*) – *Caprimulgus aegyptius* *Licht*.

Amudaryo vodiysida, Zarafshonning quyi oqimida va Qizilqum cho'lida uya quradi.

2 (1) 1-3-katta qoquv patlarining ichki yelpig'ichlarida oq dog'lar pat o'qi tomonga botib kirmagan.

Oddiy tentakqush (*Obyktovenniy kozodoi*) – *Caprimulgus europaeus* L.

O'zbekistonning deyarli hamma qismida uya quradi.

KO'KQARG'ASIMONLAR TURKUMI (РАКШЕОБРАЗНЫЕ) – CORACIFORMES

Bu turkumga tashqi ko'rinishdan har xil bo'lgan kichik va o'rtacha kattalikdagi qushlar kiradi.

O'zbekiston faunasida uchraydigan ko'kqarg'asimonlar to'rtta oilaga mansubdir.

Ko'kqarg'asimonlarning oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Boshida uzun kokili bor. U qizg'ish bo'lib, qora va oq dog'lar bor. Tumshug'i uzun, ingichka va bir oz pastga egilgan.

Sasitqopishaklar (*Vodosevye*) – *Upupidae* (104-bel).

2 (1) Boshida kokili yo'q. Tumshug'i boshqa shaklda.
3 (4) Oldingi barmoqlarining faqat asosi o'zaro qo'shilgan. (25-rasm, a). Qanoti 170 mm dan uzun, sevkasi 190 mm.

Ko'kqarg'alar (Cuzosoponkosovite) – Coraciidae(104-bet).


4 (3) O'rta va tashqi barmoqlarining yarmidan ko'prog'i o'zaro qo'shilgan (25-rasm, b). Qanoti 170 mm dan katta.

5 (6) Qanoti 80 mm dan katta. Tumshug'i to'g'ri.

Ko'ktorg'oqlar (Zuvopodkosovite) – Alcedinidae(105-bet).

6 (5) Qanoti 130 mm dan uzun. Tumshug'i bir oz egilgan.

Kurkunaklar (Шыркосовite) – Meropidae(105-bet).



25-rasm. Ko'kqarg'a (a) bilan ko'ktorg'oqning (b) oyog'i.

Sassiropishaklar oilasi – Upupidae

O'rtacha kattalikdagi qushlar bo'lib, tumshug'i uzun, bigizsimon, boshida kokili bor. Bu oila nominal urug' (*Upupa L.*) va turni (*Upupa epope L.*) o'z ichiga oladi.

Respublikamizda deyarli joylarda uya quradi.

Ko'kqarg'alar oilasi – Coraciidae

Kattaligi zag'chadek keladi, to'q havorang-yashil tusda. Oldingi barmoqlarining faqat asosi o'zaro qo'shilgan. Bu oilaga O'zbekiston faunasidan ko'kqarg'alar (*Coracias*) urug'i va ko'kqarg'a turi (*Coracias garrulus L.*) kiradi. O'zbekistonning barcha joylarida uya quradi.

Ko'ktorg'oqlar oilasi – Alcedinidae

Kichkina qushlar bo'lib, bo'yni kalta, boshi katta. Tumshug'i uzun va to'g'ri bo'ladi. O'zbekistonda bu oilaning havorang ko'ktorg'oqlar urug'i (*Alcedo L.*) va nominal turi (*Alcedo attus L.*) uchraydi. O'zbekistondagi hamma daryo va kanallar bo'yida uya quradi.

Kurkunaklar oilasi – Meropidae

Uncha kichik bo'lmagan qushlardir. Tumshug'i uzun, o'tkir va bir oz egilgan. Qanoti uzun va o'tkir. Sobiq itifoq hududida va O'zbekistonda bitta kurkunaklar (*Merops L.*) urug'ining turlari uchraydi.

Kurkunaklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Ensasi qizg'ish-jigarrang, tomog'i sariq. Kichik qoquv patlarining tashqi yelpig'ichlari qizg'ish bo'lib, uchi qora.

Sariq kurkunak (Золотичная уйка) – Merops apiaster L.

Respublikamizdagi deyarli hamma jarlik va soylarida uya quradi.

2 (1) Ensasi yashil, tomog'i qizg'ish rangda. Kichik qoquv patlarining tashqi yelpig'ichlari yashil bo'lib, uchida tor qoramtir chizig'i bor.

Ko'k kurkunak, bo'zdoq (Зеленая уйка) – Merops superciliosus L.

Respublikamizning deyarli hamma jarlik va soylarida uya quradi.

UZUNQANOTLAR TURKUMI (СТРИЖЕОБРАЗНЫЕ) – АПОДИФОРМЕС

Kichik qushlar bo'lib, qaldirg'ochlarga o'xshaydi. Qanoti uzun va o'tkir, oyoqlari kalta, to'rtala barmog'i ham oldinga qaragan. Tumshug'i kichik, lekin og'iz kesigi juda katta. O'ljasini uchib yurib tutadi.

O'zbekiston faunasida bitta uzunqanotlar (*Apodidae*) oilasining va uzunqanot (*Apus Scopoli*) urug'ining turlari tarqalgan.

Uzunqanotlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Beli va dumining usti qora yoki qoramtir-qo'ng'ir rangda.

2 (3) Tomog'i, ko'kragi va qorni qoramtir qo'ng'ir rangda, qanoti 185 mm dan uzun.

Qora uzunqanot (Черный стриже) – Apus apus L.

Respublikamiz tog'li tumanlarida va imoratlar shipiga uya quradi.

3 (2) Tomog'i va qorni oq, lekin tomog'ida ko'ndalang qo'ng'ir chiziqlar bor. Qanoti 185 mm dan uzun.

Oq qorinli uzunqanot (Белобрюхий длиннос) – Apus melba L.

Respublikamizning tarixiy obidalarida uyalaydi.

4 (1) Tanasining usti qoramtir, lekin beli oq. Qanotining uzunligi 160 mm. O'zbekistonning janubiy qismida tarixiy obidalariga uya quradi.

Kichik uzunqanot (Малый длиннос) – Apus affinis Gray.

O'zbekiston tog'lik tumanlarida uchraydi.

QIZILSHTONSIMONLAR TURKUMI (ДЯТЛОУБРАЗНЫЕ) – PICIFORMES


Kichik va o'rtacha kattalikdagi qushlar bo'lib, asosan daraxtda yashashga moslashgan. Ikkita barmog'i oldinga, ikkita yoki bitta barmog'i orqaga qaragan. Keyingi barmoqlarining bittasi yon tomonga burilishi mumkin. Tumshug'i to'g'ri va o'tkir. Rul patlari qattiq. O'zbekiston faunasida bitta – qizilshtonlar (*Picidae*) oilasining turlari tarqalgan.

Qizilshtonlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) O'rtadagi rul patlari uzun, uchi qattiq va o'tkirlashgan (26-rasm, a). Burun teshiklari qilsimon pat bilan qoplangan.

Ola qizilshtonlar (Пестрые дятлы) – Dendrocopos Koch.

Turi oq qanotli qizilshton (*Белокрылый дятель*) – *Dendrocopos leucopterus Salvad.* O'zbekistondagi barcha daraxtzorlarda uya quradi.



26-rasm. Olachipor qizilshton (a) bilan burmabo'yining (b) dumi.

2 (1) O'rtadagi rul patlari uzun emas, uchi yumshoq, tekis (26-rasm, b). Burun teshiklari pat bilan qoplanmagan.

Burmabo'yinlar (Вормобейки) – Jura L.

Turi burmabo'yin – *Jura torquilla L.* O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

CHUMCHUQSIMONLAR TURKUMI (ВОРОБЬИНЫЕ) – PASSERIFORMES

Asosan mayda va o'rtacha kattalikdagi qushlar hisoblanadi. Tumshug'i yashash sharoitiga va oziqlanish usuliga ko'ra har xil kattalikda va turli shaklda bo'ladi. Katta qoquv patlari 10-11 ta, lekin bulardan birinchisi, odatda, reduksiyaalangan. Sevikasi pat bilan qoplanmagan. Barmoqlari 4 ta bo'lib, 3 tasi oldinga, bittasi orqaga qaragan. Hamma barmoqlari sevkasiga nisbatan bir xil balandlikda joylashgan.

O'zbekiston faunasida chumchuqsimonlarning 21 ta oilasining vakillari uchraydi.

Chumchuqsimonlarning oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Birinchi kichik qoquv patining uchidan qanotining uchigacha bo'lgan masofa qanoti uzunligining yarmidan ortiq (27-rasm). Qanoti sevkasidan 8 marta va undan ko'p uzun.

Qaldirg'ochlar (Ласточки) – Hirundinidae(118-bet).

3 (4) Sevikasi 34 mm dan uzun. Tumshug'i ustining asosi oldinga qaragan va qilsimon patlar bilan qoplangan (qari go'ngqarg'alarda bo'lmaydi).

Qarg'alar (Врановые) – Corvidae(113-bet).


4 (3) Sevikasi 34 mm dan kalta. Ustki tumshug'ining asosi oldinga qaragan, qilsimon patlar bilan qoplanmagan va burun teshiklari ochiq.

5 (6) Sevkasining orqa tomoni yumaloqlashgan va bir nechta ko'ndalang qalqonchalar bilan qoplangan. Orqa barmog'ining tirmog'i, odatda, uzun va deyarli bukilmagan (27-rasm, 3).

To'rg'aylar (Жаворонки) – Alaudidae(115-bet).

6 (5) Sevkasining orqa tomonida o'tkir tarog'i bor. Bo'yiga qarab joylashgan ikkita qalqonchalari o'tkir burchak hosil qilib birlashadi. Orqa barmog'ining tirmog'i uzun emas, odatda, bukilgan (27-rasm, 2).

7 (8) Ustki tumshug'ining uchi pastga, pastkisini yuqoriga bukilgan, ya'ni uchlari kesilgan (27-rasm, 4).



27-rasm. Ba'zi bir chumchuqsimonlarning qanoti, oyog'i va boshining tuzilishi:

1 - qishloq qaldirg'ochining qanoti; a - birinchi kichik qoquv patining uchidan qanotning uchigacha bo'lgan masofa; b - birinchi kichik qoquv patining uchidan yelka bo'g'imigacha bo'lgan masofa; 2 - qarayaloqning oyog'i; 3 - to'rg'ayning oyog'i; 4 - qaychitumshuqning tumshug'i; 5 - boltatumshuqning boshi; 6 - dehqonchumchuqning boshi; 7 - shchurning qanoti; 8 - to'qaychumchuqning qanoti; 9 - sutoraning dumi.

2 (1) Birinchi kichik qoquv patining uchidan qanotning uchigacha bo'lgan masofa qanoti uzunligining yarmidan kam. Qanoti sevkasidan 8 martadan kam uzun.

Vyuroklar - Fringillidae(149-bet).

8 (7) Tumshuqlarining uchi kesishmaydi.

9 (14) Tumshug'i konussimon shaklda (27-rasm, 5,6). Normal rivojlangan katta qoquv patlari 9 ta, birinchi katta qoquv pati bilinmaydi (27-rasm, 7).

10 (11) Dumi keskin ifodalangan pog'onali, chetdagi rul patlari o'rtadagilardan ikki marta va undan ham ortiq kalta (27-rasm, 9).

Yo'g'on tumshuqli chittaklar (Толемоскопозе ситутса) - Parado-tornithidae (122-bet).

11 (10) Dumi pog'onali emas, to'g'ri, chetdagi rul patlari o'rtadagilaridan 10-12 mm dan ortiq uzun emas.

12 (13) Tumshug'ining usti asosidan kuchli bukilgan va chetlari ichkariga qayrilgan (27-rasm, 6).

Dehqonchumchuqlar (Оссяукосые) - Emberizidae(155-bet).

13 (12) Ustki tumshug'i asosidan bukilmagan, chetlari ichkariga qayrilmagan.

To'qimachilar (Ткауукосые) - Ploceidae(149-bet).

Vyuroklar - Fringillidae(151-bet).

14 (9) Tumshug'i konussimon emas (ingichka, serbar, yalpoq, bigizsimon). Agar tumshug'i konussimon bo'lsa, katta qoquv patlari doim 10 ta bo'ladi. Birinchi katta qoquv pati kichik bo'lsa ham doim bilinib turadi (27-rasm, 8).

15 (16) Boshida uzunasiga joylashgan tiniq sariq chizig'i bor, odatda, yon tomonlari qora chiziq bilan o'ralgan. Ko'zining ustida oqish «qoshi» yo'q.

Korolyoklar - Regulidae(142-bet).

16 (15) Boshida uzunasiga joylashgan sariq chizig'i yo'q. Agar ansasida bunday chiziq bo'lsa, ko'zining ustida oqish «qosh» bo'ladi.

17 (28) Ustki tumshug'ining asosi oldinga qaragan qilsimon patlar yoki kambar patchalar bilan qoplangan, bu patlar burun teshiklarini butunlay yoki qisman yopib turadi.

18 (23) Boshida kokili bor.

19 (20) Kokili bir xil, sarg'ish-kulrang yoki oqish kulrang, qanoti uchli, 1-2-katta qoquv patlari qanotning eng uzun patlari hisoblanadi. Rul patlarining uchi sariq bo'ladi.

Sviristellar - Bombicillidae(147-bet).


20 (19) Kokili olachipor yoki qora bo'lib, metallsimon yaltiraydi. Qanotning 4-5-katta qoquv patlari eng uzun hisoblanadi. Rul patlarining uchi boshqacha rangda.

21 (22) Dumi qanotidan uzun. Qanoti 80 mm dan uzun.

Pashshaxo'rlar (*Myxoloxosomae*) – *Muscicapidae* (132-bet).
Dumparastlar (*Pauckue myxoloxku*) – *Terpsiphone* (133-bet).
 22 (21) Dumi qanotidan kalta. Qanotining uzunligi 80 mm ga yetmaydi.
Chittaklar (*Cunyu*) – *Paridae* (120-bet).
 23 (18) Boshida kokili yo'q.
 24 (25) Tumshug'i serbar va yassi, asosining eni balandligidan ortiq.

Pashshaxo'rlar (*Myxoloxosomae*) – *Muscicapidae* (132-bet).
 25 (24) Tumshug'i ingichka yoki yon tomondan qisilgan.
 26 (27) Tumshug'i 12 mm dan uzun va deyarli sevkasiga teng.
Fotmachumchuqlar (*Потозну*) – *Sittidae* (121-bet).
 27 (26) Tumshug'i 12 mm ga yetmaydi va sevkasidan ancha kalta.
Chittaklar (*Cunyu*) – *Paridae* (120-bet).
 28 (17) Burun teshiklari qilsimon patlar bilan butunlay qoplanmagan.
 29 (30) Ichki kichik qoquv patlari uzun bo'lib, qanoti yig'ilgan vaqtda ularning uchi eng uzun katta qoquv patlarining uchigacha yetadi.
Jibilqibonlar (*Трпозозосоме*) – *Motacillidae* (144-bet).
 30 (29) Ichki kichik qoquv patlari unchalik uzun emas.
 31 (32) Tumshug'i yon tomondan kuchli qisilgan va balandligi enidan oshiq, tumshug'i ustining uchi pastga egilib ilmoq hosil qilgan va tishchasi bor (28-rasm, a).

Qarqunoglar (*Copokonymy*) – *Laniidae* (147-bet).



28-rasm. Ba'zi chumchuqsimonlarning boshi va oyog'i.
 a- qarqunogning boshi va tumshug'i; b-moyqut boshining ustidan ko'rinishi; d-chug'urechiqning oyog'i; e-qorayaloqning oyog'i.

32 (31) Tumshug'i ustining uchi egilmagan, ilmoq va tishchalar hosil qilmagan.

33 (34) Tumshug'i uzun bigizsimon va yoysimon, pastga egilgan. (Rul patlarining uchi o'tkir va qattiq.

Pishchuxalar – *Certhiidae* (121-bet).

34 (33) Tumshug'i to'g'ri. Rul patlarining uchi yumshoq va te-kis.

35 (39) Dumi qanotidan uzun.

36 (40) Qanoti 60 mm dan, sevkasi 24 mm dan kalta.

37 (38) Boshining ustida qoramtir chiziqlar bor (28-rasm, b).

Moyqutlar (*Crascoese*) – *Sylvidae* (133-bet).

38 (37) Boshining ustida qoramtir chiziqlar yo'q.

Korolyoklar – *Regulidae* (142-bet).

39 (35) Dumi qanotidan kalta.

40 (36) Qanoti 110 mm dan uzun.

41 (44) Sevkasining oldingi tomoni 4-5-ta yakka-yakka qalqoncha bilan qoplangan (28-rasm, d).

42 (43) Qo'ltig'i va dum osti sariq.

Zarg'aldoqlar (*Изоли*) – *Oriolidae* (120-bet).

43 (44) Qo'ltiq va dum osti patlari boshqacha rangda.

Chug'urchiqlar (*Cisopyoese*) – *Sturnidae* (148-bet).

44 (41) Sevkasining oldingi tomondagi qalqonchalar qo'shilib ketgan va bitta pastki qalqoni boshqalaridan bir oz ajralgan (28-rasm, d).

45 (46) Qoquv patlarining tashqi yelpig'ichlari va rul patlari ko'ndalang qora chiziqli.

Bigiztumshuqlilar (*Kpanusukosese*) – *Troglodytidae* (123-bet).

46 (45) Qoquv patlarida va rul patlarida ko'ndalang chiziqlar yo'q.


47 (48) Dumi kalta va sevkasi bilan o'rta barmog'ining uzunligiga teng. Dumidagi qoplovchi patlari rul patlarining uchigacha yetadi. Qanoti 80 mm dan uzun.

Sovchumchuqlar (*Орэнку*) – *Cinclidae* (123-bet).

48 (47) Dumi sevkasi bilan o'rta barmog'idan ancha uzun. Dumidagi qoplovchi patlari rul patlarining uchigacha yetmaydi. Agar dumi kalta bo'lsa, qanoti 60 mm dan oshmaydi.

49 (50) Tumshug'i bir oz konus shaklda. Tumshug'i ustining tepasi burun teshiklaridan oldin tekis va hech qanday taroq hosil qilmaydi (29-rasm, a). Burun teshiklari teri qopqoqcha bilan yopilgan.

Zavrushkalar – *Prunellida* (143-bet).



29-rasm. Zavirushka (a) bilan qorayaloq (b) tumshug'ining ustidan ko'rinishi.

50 (49) Tumshug'i konus shaklda emas. Tumshug'i ustining tepasi burun teshiklari oldida sezilarli taroq hosil qiladi (29-rasm, b). Burun teshiklari teri qopqoqcha bilan berilmagan.

Shaqshaqlar (Ipsositta) – *Turdidae* (123-bet).
Moyqutlar (Cyanocitta) – *Sylviidae* (133-bet).

Qarg'alar oilasi (Врановые) – Corvidae

Chumchuqsimonlar ichida eng kattalari hisoblanadi. Tumshug'i kuchli va yon tomonidan qisilgan. Burun teshiklari qilsimon qattiq pat bilan zich qoplangan.

O'zbekiston faunasida qarg'alarning 4 ta urug'i uchraydi.

Qarg'alar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (4) Katta qoquv patlari bir xil qora.
- 2 (3) Oyoqlari va tumshug'i qora.
Qarg'alar (Boponca) – *Corvus* (113-bet).
- 3 (2) Oyoqlari va tumshug'i qizil yoki sarig.
Tog' zag'chalar (Karyuqus) – *Pyrrhocorax* (115-bet).
- 4 (1) Katta qoquv patlarida oq rang bor.
- 5 (6) Tanasining orqasi qora, dumi pog'onali va qanotidan uzun.
Hakkalar (Coccyz) – *Pica Brisson*.

Turi *hakka* – *Pica pica* L. Turi Respublikamizdagi dashtlarda va tog'li tumanlarda o'troq holda yashaydi.

6 (5) Tanasining orqasi oqish. Dumining uchi tekis va qanotidan kattu.

Xo'jasavdogarlar (Caccopisante coriux) – *Podoces Fischer*.

Turi *xo'jasavdogar* – *Podoces panderi* Fisch. Qizilqumda va Ustyurtda o'troq holda yashaydi.

Qarg'alar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'i (burun teshiklarining oldidan uchigacha) 28 mm dan, qanoti 260 mm dan katta.

Zag'cha (Tarka) – *Corvus monedula* L.

Respublikamiz daryolari bo'yidagi jarliklarda, tog' etaklaridagi qoyalarda uya quradi.

2 (1) Tumshug'i 28 mm dan, qanoti 260 mm dan uzun.

3 (4) Tumshug'i ingichka, to'g'ri va uchi o'tkir (30-rasm, e,d).

Go'nggarg'a (Tropu) – *Corvus frugilagus* L.

O'zbekiston tekisliklaridagi daraxtlarda koloniya bo'lib uya quradi.

4 (3) Tumshug'i yo'g'on, tumshug'i ustining uchi bir oz pastga egilgan (30-rasm, f).

5 (8) Katta qoquv patlarining uchi o'tkirlashgan. 2-katta qoquv pati 8-dan uzun. Qanoti, odatda, 400 mm dan uzun.

6 (7) Boshi va bo'yini jigarrangda.

Cho'l quzg'uni (Pycnonotus eopon) – *Corvus ruficollis* Lesson.

O'zbekistondagi cho'llarda o'troq yashaydi.

7 (6) Tanasi qora rangda.

Quzg'un (Bopon) – *Corvus corax* L.

O'zbekiston tog'larida va tog' etaklarida uya quradi.

8 (5) Katta qoquv patlarining uchi o'tkirlashmagan. 2-katta qoquv pati 8-dan katta. Qanoti 400 mm dan katta.

9 (10) Tanasining orqasi va qorin tomoni kulrang.

Ko'k qarg'a (Cepax eoponca) – *Corvus cornix* L.

O'zbekistonda hamma joyda qishlaydi.

10 (9) Tanasi qora. Binafsha tusi bor.

Qora qarg'a (Cherax eoponca) – *Corvus corone* L.

O'zbekistonda tekisliklarda va tog'li tumanlarda uya quradi.

2 (1) Tumshug'i sariq, to'g'ri (30-rasm, b), burun teshiklarining oldidan to uchigacha 30 mm dan kalta.

Alp zag'chasi (Альпийская галка) – Graculus graculus L.

O'zbekistonda Zarafshon, Turkiston va Chotqol tizma tog'larida uya quradi.

To'rg'aylar oilasi (Жаворонки) – Alaudidae

Kichik qushlar bo'lib, ochiq landshaftga yashaydi. Oyoqlari kalta va keyingi barmog'ining tirmog'i uzun. Sevkasining keyingi qismi yuqorilari o'tkir taroq hosil qilmaydi va ayrim qalqonchalar bilan qoplangan bo'ladi.

To'rg'aylar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (8) Orqasi qo'ng'ir-kulrang bo'lib, uzunasiga joylashgan qoram-tir dog'lari yaxshi ko'rinib turadi.

2 (3) Boshida uzun kokili bor.

So'fito'rg'aylar (Хохлатые жаворонки) – Galeridae Boie.

Turi so'fito'rg'ay (Хохлатый жаворонки) – Galeridae cristata L.

O'zbekistonda tekisliklarda va tog'lar etagida o'troq yashaydi.

3 (2) Boshida uzun kokili yo'q.

4 (7) Tumshug'i ingichka va kichik bo'lib, burun teshiklari atrofida balandligi 7 mm dan kam. Uzunligi 13 mm dan kalta.

5 (6) Burun teshiklari atrofida tumshug'ining balandligi uzunligi-ning yarmidan kalta. Sevikasi 22 mm dan uzun.

Dala to'rg'aylari (Полевые жаворонки) – Alauda L. (116-bet).

6 (5) Burun teshiklari atrofida tumshug'ining balandligi uzunligining yarmidan ortiq. Sevikasi, odatda 22 mm dan kalta.


Kichik to'rg'aylar (Малые жаворонки) – Calandrella Kaup. (117-bet).

7 (4) Tumshug'i katta. Burun teshiklari atrofida uning balandligi 7 mm dan, uzunligi 13 mm dan ortiq.

Dasht to'rg'aylari (Степные жаворонки) – Melanocorypha Boie (118-bet).

8 (1) Orqasi bir xil rangda, uzunasiga joylashgan qoram-tir dog'lari yo'q.

9 (10) Boshining yon tomonlarida uzun qora patlari (shoxchalari) bor. Boshining usti va jig'ildoni qora bo'ladi.



30-rasm. Qarg'alarning tumshug'i:

a-klushisa; b-tog'zag'chasi; d-quzg'un; e-qari go'ngqarg'a; f-yosh go'ngqarg'aniki.

Tog'zag'chalari urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'i qizil, egilgan (30-rasm, a), burun teshiklarining oldidan to uchigacha 30 mm dan uzun.

Tog'zag'chasi (Крыуунга) – Pyrrhocorax pyrrhocorax L.

O'zbekistonda Zarafshon, Turkiston va Chotqol tizma tog'larida uya quradi.

Shoxli to'rg'aylar (Pogonnye jasvoronki) – Eremophilie Boie.

Turi *shoxli to'rg'ay, qoraqosh to'rg'ay (Pogonnyy jasvoronok) – Eremophile alpestris L.* O'zbekistonda uchib o'tish vaqtida va baland tog'li tumanlarda uchraydi.

10 (9) Boshida uzun patlari yo'q. Boshining usti va jig'ildoni kulrang, orqasi qum-kulrang bo'ladi.

Cho'l to'rg'aylari (Пустынные jasvoronki) – Ammomanes Cabanis.

Turi *cho'l to'rg'ayi – Ammomanes deserti Licht.* O'zbekiston cho'llaridagi tog'larda uya quradi.

Dala to'rg'aylari urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dum 60 mm dan uzun. Birinchi kichik qoquv patining uchi bilan qanotning uchi orasidagi masofa 32 mm dan ortiq.

Dala to'rg'ayi (Полевой jasvoronok) – Alauda arvensis L.
O'zbekistonda, odatda, qishlaydi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Dum 60 mm dan katta. Birinchi kichik qoquv patining uchi bilan qanotning uchi orasidagi masofa 32 mm dan kam.

Kichik dala to'rg'ayi (Малый полевой jasvoronok) – Calandrella cinerea.

O'zbekiston dasht tumanlarda va tog'lar etagida uya quradi.

Kichik to'rg'aylar urug'ining turlarini aniqlash jadvali


1 (2) Ichki kichik qoquv patlari deyarli qanotning uchiga yetadi (31-rasm, a). Ko'kraging yon tomonlarida 2 ta qoramtir dog', ular orasida mayda dog'lar bor.

Kichik to'rg'ay (Малый jasvoronok) – Calandrella cinerea.

2 (1) Ichki kichik qoquv patlari uncha uzun emas, qanotning faqat mayda dog'lar bor.

Kulrang to'rg'ay (Серый jasvoronok) – Calandrella rufescens Vieillot.

Respublikamizdagi dashtlarda va cho'l dashtlarda uya quradi.



31-rasm. Kichik (a) va kulrang (b) to'rg'aylarning qanoti.

Dasht to'rg'aylari urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanotning ustki kichik yopuvchi patlari qizg'ish rangda, lekin kichik qoquv patlarining bir qismida serbar oq dog'lar bor.

Oqqanotli to'rg'ay (Белокрылый jasvoronok) – Melanocorypha leucoptera Pallas.

O'zbekistonda uchib o'tish vaqtida uchraydi va ba'zan qishlaydi.

2 (1) Qanotning ustki kichik yopuvchi patlari qizg'ish rangda emas, kichik qoquv patlarida serbar oq dog'lar yo'q.

3 (4) Qanotning pastki yopuvchi patlari kulrang rangda bo'ladi.

4 (3) Kichik qoquv patlarining uchi oq bo'ladi. Chetdagi rul patlari oq.

Dasht to'rg'ayi (*Сметной жаворонок*) — *Melanocorypha calandra* L.

O'zbekistonning dasht, cho'l va tog'oldi hududlarida uyalaydi.

5 (3) Kichik qoquv patlarining uchi oq bo'lmaydi, chetdagi rul patlari qo'ng'ir rangda bo'ladi va uchida oq dog'i bor.

Ikki dog'li to'rg'ay (*Двухпятнистый жаворонок*) — *Melanocorypha bimaculata* Menetries.

O'zbekistonning dasht, cho'l va tog'oldi hududlarida uyalaydi.

Qaldirg'ochlar oilasi (*Ласточки*) — *Hirundinidae*

Uzoq uchishga moslashgan kichik qushlardir. Hasharotlarni uchib yurib tutadi, tumshug'i kichik, yassi va serbar bo'lib, og'iz kesimi katta, qanotlari uzun va o'tkir. Oyoqlari kalta va kuchsiz. Dumi uzun, ko'p turlarida kerkikli bo'ladi.

Qaldirg'ochlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Sevkasi va barmoqlari pat bilan qoplangan.

Shahar qaldirg'ochlari (*Городские ласточки*) — *Delichon horsfieldi*.

Turi *shahar qaldirg'ochi* — *Delichon urbica* L. O'zbekiston tog'larida qoyalarga uya quradi.

2 (1) Sevkasi va barmoqlari pat bilan qoplanmagan.

3 (6) Tanasining orqa tomoni bir xil qo'ng'ir b o'lib, metallsimon yaltiroq rang yo'q. Chetki rul patlari o'rtadagilardan 15 mm dan ortiq uzun emas.

4 (5) Rul patlari oq dog'li bo'ladi. Qorni qo'ng'ir-kulrang.

Tog' qaldirg'ochlari (*Горные ласточки*) — *Ptyonoprogne reichendi*.

Turi *tog' qaldirg'ochi* — *Ptyonoprogne rupestris* Scop. O'zbekistonda tog'li tumanlarda, tog' daryolari va soylardagi qoyalarda uya quradi.

5 (4) Rul patlarida oq dog'lar yo'q. Qorin tomoni oqish.

Qirg'oc qaldirg'ochlari (*Береговые ласточки*) — *Riparia forsteri* (119-bet).

6 (3) Orqa tomonida metallsimon yaltiroq rang bor. Chetki rul patlari o'rtadagilaridan 30 mm dan ortiq uzun.

Kasatkalar — *Hirundo* L. (119-bet).

Qirg'oc qaldirg'ochlari urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tomog'i oq, ko'kragida ko'ndalangiga joylashgan enli qo'ng'ir chiziq bor. Qanoti 95 mm dan uzun.

Qirg'oc qaldirg'ochi (*Береговая ласточка*) — *Riparia riparia* L.

O'zbekistondagi deyarli hamma daryo va ko'llar qirg'og'idagi jarliklarda uya quradi.

2 (1) Tomog'i och-qo'ng'ir. Ko'kragida ko'ndalang joylashgan qo'ng'ir chiziq yo'q. Qanoti 95 mm dan kalta.

Kichik qaldirg'och — *Riparia paludicola* Vieillot

Amudaryoning yuqori oqimida yashaydi.

Kasatkalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dumining usti qizg'ish. Qorin tomonida uzunasiga joylashgan qoramir dog'lari bor.

Tuyaqaldirg'och (*Рыжеперястая ласточка*) — *Hirundo daurica* L.

O'zbekistonda uncha baland bo'lmagan tog' qoyalarda, jarliklarda uya quradi.

2 (1) Dumining usti va orqasi bir xil rangda. Qorin tomonida qoramir dog'lar yo'q.

Qishloq qaldirg'ochi (*Деревенская ласточка*) — *Hirundo rustica* L. Respublikamizda uylarning shipiga uya quradi.

Zarg'aldoqlar oilasi (*Иволги*) — *Oriolidae*

O'rtacha yirik qushlar bo'lib, rangi ochiq-sariq yoki yashil-sariq bo'ladi. Qanotlari qora yoki qo'ng'ir, dumi qoramir. Bu oilaga zarg'aldoqlar — *Oriolus* L. urug'i kiradi. O'zbekistonda oddiy zarg'aldoq (*Иволга*) — *Oriolus oriolus* L. turi uchraydi. Baland daraxtlarga uya quradi.

Chittaklar oilasi (*Синицы*) — *Paridae*

Mayda qushlar bo'lib, faqat daraxtlarga yashaydi. Tumshug'i ko-nussimon. Qanotlari kalta va serbar. Sevkasi oldingi tomondan yakka qalqonchalar bilan qoplangan.

Chittaklar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Qanotning uski qoplovchi patlari ochiq-qizg'ish. Qulog'ining qoplovchi patlari qora yoki qo'ng'ir. Qanoti 50 mm dan kalta.

Vahmaqushlar (Pemez) – *Remiz Jarocki*.

Turi qorabosh *vahmaqush (Pemez)* – *Remiz pendulinus L.*
O'zbekiston daryolari vodiysidagi to'qayzorlarda uya quradi.

2 (1) Qanotning uski qoplovchi patlari boshqacha rangda. Qulog'ining qoplovchi patlari oqish. Qanoti 50 mm dan uzun.

Chittaklar (Cunuyts) – *Parus L. (120-bet)*.

Chittaklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanoti va rul patlarida ochiq havorang tusi bor.

Oq chittak (Kizex) – *Parus cyanus Pallas*

Qish qattiq kelgan yillari Tyan-Shan va Pomir-Oloydan Zarafshon va Turkiston tizma tog'lariga ko'chib o'tadi.

2 (1) Qanoti va dumli kulrang bo'lib, ochiq havorang tusi yo'q.

3 (4) Ko'kragi va qorni bo'yliab qora chiziq o'tadi.

Katta chittak (Bo'lyuqs cunuyts) – *Parus major L.*

Respublikamizdagi hamma bog' va parklarda o'troq yashaydi.

4 (3) Ko'kragida va qomida uzunasiga joylashgan qora chizig'i yo'q.

5 (6) Qanotidagi qoplovchi patlarining uchi 2 ta ko'ndalang oq chiziq hosil qiladi. Qanoti 70 mm dan kalta.

Qora chittak (Moksoxa) – *Parus ater L.*

O'zbekistonda faqat Farg'ona tizma tog'larida yashaydi.

6 (5) Qanotidagi qoplovchi patlarining uchi oq emas, ko'ndalang oq chiziqli yo'q. Qanoti 70 mm dan uzun.

Sariq tomoqli chittak (Pyajevuevina cunuyts) – *Parus rubidiventris Blyth.*

Amudaryo bilan Sirdaryo oraliq'idagi tog'larda yashaydi. Archa-zorlarda uya quradi.

FOTMACHUMCHUQLAR OILASI (ПОПОЛЗНИ) – SITTIIDAE

Kichik qushlar bo'lib, tog' qoyalarda va daraxtlarda yashaydi. Oyoqlari baquvvat, timoqlari yopishqoq bo'lib, daraxtlarda va qoyalarda vertikal holda pastga qarab ham o'rimalab yuradi. Tumshug'i to'g'ri, kuchli va uzun. O'zbekiston faunasida bitta fotmachumchuqlar urug'i –

Sitta L., bitta turi – *katta qoya fotmachumchug'i (Большой скальный попользень)* – *Sitta tephronota Sharpe* O'zbekistonda tog'larda yashaydi.

Pishchuxalar oilasi (Пищуховые) – Certhiidae

Mayda qushlar bo'lib, tumshug'i uzun, ingichka va bir oz egilgan. Vertikal holda rul patlariga tayanib, faqat yuqoriga qarab o'rimalaydi. O'zbekiston faunasida pishchuxalarning ikkita urug'i va 3 ta turi yashaydi.

Pishchuxalar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Rul patlarining uchi yumshoq, qanotlarida qizil rang bor.

Jarqanoqlar (Cmenoznazy) – *Tichodrons Illiger.*

Turi *qizilqanot* – *Tichodroma muraria L.* Respublikamizning tog'li tumanlarida qoyalarda yashaydi.

2 (1) Rul patlarining uchi qattiq, qanotida qizil rang yo'q.

Pishchuxalar (Пищуха) – *Certhia L. (122-bet)*.

Pishchuxalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Rul patlari ko'ndalang chiziqli. Qanoti 67 mm dan uzun.

Himolay pishchuxasi (Гималайская пищуха) – *Certhia himalayana Vigors*

O'zbekistonda Zarafshon, Turkiston va Farg'ona tizma tog'larida yashaydi.

2 (1) Rul patlarida ko'ndalang chiziqli yo'q. Qanoti 67 mm dan kalta.

Oddiy pishchuxa (Обыкновенная пищуха) – *Certhia familiaris L.*
O'zbekistondagi ignabargli tog' o'rmonlarida juda kam uchraydi.

YO'G'ON TUMSHUQLI CHITTAQLAR OILASI (ТОЛСТОКЛЮБЫЕ ЧИИЦЫ) – PARADOXORNITHIDAE

Dumi zinapoyali bo'lishi va uzunligi bilan chittaklardan farq qiladi. Qanoti kalta va serbar. Oyoqlari kalta va nozik.

Yo'g'on tumshuqli chittaklar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) O'rtadagi rul patlari qora. Tanasining orqa tomonida qora va qo'ng'ir rang ko'proq.

Uzun dumli chittaklar - *Aegithalos Hermann.*

Turi uzun dumli chittak - *Aegithalos candidus* L. O'zbekistonda ba'zan qish vaqtida Zarafshon to'qayzorlarida uchraydi.

2 (1) O'rtadagi rul patlari oqish bo'ladi. Tanasining orqa tomonida qo'ng'ir va qora rang yo'q.

Mo'yabdor chittaklar - *Panurus Koch.*

Turi mo'yabdor chittak - *Panurus biarmicus* L. Amudaryo va Sirdaryo vodiysida, Zarafshonning quyi oqimida qamishzorlarda yashaydi.

Suvchumchuqlar oilasi (Олякки) - Cinclidae

Suv bo'yida yashaydigan va o'ljasi tezoqar suvlarning tubidan tutib oladigan o'rtacha yirik qush. Pati juda qalin. Burun teshiklari panjarasimon qopqoqcha bilan yopilgan. Suvda sho'ng'iydi va suv tubida yuguradi. MDH va O'zbekiston faunasida bu oilaning bitta *suvchumchuqlar* urug'i - *Cinclus* L. bor.

Suvchumchuqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Orqa va qorin tomonining umumiy rangi qoramtir-qo'ng'ir (voyaga yetganlarda) yoki oq dog'li (yoshlarida).

Qo'ng'ir suvchumchuq, qora suvchumchuq (*Бурая олякка*) - *Cinclus pallasi Temminck.*

O'zbekistonda tog' etaklaridagi tezoqar suvlarda yashaydi.

2 (1) Orqasi qo'ng'ir, qorni oq (kattalarida) yoki orqasi oqish-qo'ng'ir, qorni oq dog'li (yoshlarida).

Oddiy suvchumchuq (*Обыкновенная олякка*) - *Cinclus cinclus* L.

Qo'ng'ir suvchumchuq bilan birga uchraydi.

BIGIZTUMSHUQLAR OILASI (КРАПИВНИКОВЫЕ) - TROGLODYTIDAE

Eng kichik qushlar hisoblanadi. Dumi kalta, tumshug'i ingichka va to'g'ri. Oyoqlari nisbatan baquvvat va uzun. 3-5-katta qoquv patlari eng uzun.

O'zbekistonda bu oilaning bitta nominal urug'i - *Troglodytes Viel.* va turi - *Troglodytes troglodytes* L. (*Krapanits*) uchraydi. O'zbekistonning tog'li tumanlarida ya'ni quradi.

SHAQSHAQLAR OILASI (ДРОЗДОВЫЕ) - TURDIDAE

Kichik va o'rtacha kattalikdagi qushlardir. Qanotlari uzun, o'tkir. Sevikasi oldingi tomondan bitta uzun qalqoncha bilan qoplangan, katta qoquv patlari 10 ta, dumi 10-14 ta patdan tashkil topgan. Daraxtda va yerda yashaydi.

Shaqshaqlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Yon rul patlari butunlay oq. Chetdagi va o'rtadagi rul patlari oraliq rul patlaridan kalta. Oyog'i oqish va tanasining rangi olachipot.

Oq oyog' yoki oq qorayatoqlar (*Белогожки*) - *Microcichla Sharpe.*

Turi *oq oyog'* - *Microcichla scouleri Vigors.* O'zbekistondagi tog'li tumanlarda tarqalgan, lekin juda kam uchraydi.

2 (1) Yon rul patlari qoramtir yoki oq-qoramtir va boshqa shaklda. Oyoqlari oqish emas, agar oqish bo'lsa, tanasida oq-qora rang bo'lmaydi.

3 (4) Tumshug'i sabsar, asosida eni uzunligining taxminan 2/3 qismini tashkil etadi. Tumshug'ining asosida ko'p sonli uzun qattiq qil joylashgan, ular uchi bilan burun teshigining oldingi qirrasidan o'tib ketadi. Qanoti 90 mm dan kalta.

Suvchumchuqlar (*Чеканки*) - *Saxicola Bechstein(126-bel).*

4 (3) Tumshug'i ancha tor, uning kengligi asosida uzunligining taxminan yarmidan kam. Tumshug'i asosida qilchalar yo'q, agar bo'lsa, ularning uchi burun teshigining oldingi qirrasiga yetmaydi.

5 (12) Rul patlari (o'rtadagilaridan tashqari) ikki xil rangda: asosiy qismi oq, sariq yoki qizg'ish, uchi qora, oq dog'li qora.

Toshir-chumchuqlar (*Кавенки*) - *Oenanthe Vieillot(126-bel).*

7 (6) Rul patlarining asosiy qismi ochiqqizg'ish, uchi qoramtir-qo'ng'ir.

8 (9) Dum patlarining hammasi deyarli bir xil uzunlikda, ya'ni 60 mm dan kalta.

Varakashkalar - *Cyanosylvia C.L.Brehm.*

Turi *varakushka* - *Cyanosylvia svecica* L. O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

9 (8) Dumi pog'onali yoki uchi aylanasimon. Dum patining chetdagilari o'rtadagilaridan 4-6 mm kalta. Dumi 60 mm dan uzun.
10 (11) Boshining usti oq. Rul patlarining uchida oq dog'lar yo'q. Dumining uchi aylanasimon.

Himolay yoki suv qizilquruqlari (Водяные зорухосемки) - Chaimarrornis Hodgson.

Turi suv qizilqurug'i (*Водная зорухосемка*) - *Chaimarrornis leucosephala Vigors*. Respublikamizda Farg'ona vodiysining janubiy va sharqiy qismida yashaydi.

11 (10) Boshining usti qoramtir. Rul patlarining uchida oq dog'lar bor. Dumi pog'onali.

To'qay bulbullari (Тузайусе солову) - Erythropygia Smith.

Turi to'qay bulbuli (*Тузайуси солову*) - *Erythropygia galactotes Temminck*. O'zbekistonning cho'l zonasidagi qirlarda va tog' butazorlarida uya quradi.

12 (5) Rul patlari bir xil rangda: qora-qo'ng'ir yoki sarg'ish.
13 (16) Dumining uchi aylanasimon, yon rul patlari o'rtadagilaridan 5-10 mm kalta.

14 (15) Dumi asosan qizg'ish rangda.

Bulbular (Солову) - Luscinia Forster (127-bet).

15 (14) Dumida sarg'ish rang yo'q. Dumi 65 mm dan, qanoti 85 mm dan uzun.

Oq tomoqli bulbular (Белоголовые солову) - Irania De Filippi.

Turi oq tomoqli bulbul (*Белоголовый солову*) - *Irania gutturalis Guerin*. O'zbekistonda ba'zan qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

16 (13) Dum patlarining uchi tekis, rul patlari deyarli bir xil uzunlikda.

17 (22) Tumshug'i (peshana patlarining oldingi qirrasidan uchigacha) 14 mm dan kalta. Qanoti 110 mm dan kam.

18 (19) Peshanasi, tomog'i va jig'ildoni qizg'ish. Tanasining usti qo'ng'ir yoki qizg'ish-qo'ng'ir.

Zaryankalar - Erithacus Cuvier.

Turi zaryanka - *Erithacus rubecula L.* O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi, ba'zan qishlaydi.

19 (18) Peshanasi, tomog'i va jig'ildoni boshqacha rangda.

20 (21) Dumi qizg'ish yoki qora. Ko'kragida qoramtir-kulrang dog'lar yo'q. Oyoqlari qora, qora-qo'ng'ir.

Qizilquruqlar (Зорухосемки) - Phoenicurus Forster (128-bet).

21 (20) Dumi, ko'kragi, jig'ildoni va oyoqlari boshqacha rangda.

22 (17) Tumshug'i (peshana patlarining oldingi qirrasidan uchigacha) 14 mm dan, qanoti 110 mm dan uzun.

23 (24) Qanoti 170 mm dan, sevkasi 48 mm dan uzun. Rangi oq dog'li qora-pushti bo'ladi.

Tog' maynalari (Синие нмуцы) - Myophonus Temminck.

Turi tog' maynasi (*Синяя нмуца или Лилосый дрозд*) - *Myophonus caeruleus Scopoli*. O'zbekistonda baland tog'li tumanlardagi soylarda yashaydi.

24 (23) Qanoti 170 mm dan, sevkasi 48 mm dan kalta. Rangi boshqacha.

25 (26) Tumshug'ining asosi bir oz kengaygan va yassiroq. Dumining pastki qoplovchi patlari ko'k yoki qizg'ish. Dum patlari, odatda, 70 mm dan kalta.

Tosh shaqshaqlar (Камениые дрозды) - Monticola Boie (130-bet).

26 (25) Tumshug'ining asosi kengaymagan va yassi emas. Dumining pastki qoplovchi patlari boshqacha rangda. Dum patlari 70 mm dan uzun.

Shaqshaqlar (Дрозды) - Turdus (130-bet).

Sirchumchuqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Bo'yining yon tomonlari oq yoki qizg'ish-oq. Dumi 50 mm dan kalta.

Qora boshli sirchumchuq (Черноголовый чекан) - Saxicola torquata L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Bo'yining yon tomonlari qora yoki qo'ng'ir. Dumi 50 mm dan uzun.

Qora sirchumchuq (Черный чекан) - Saxicola caprata L.

O'zbekistonda cho'llarda uya quradi.

Toshirchumchuqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Rul patlarining qora va oq qismi deyarli bir-biriga teng. Oxirgi qora qismi 30 mm dan uzun.

Cho'l toshirchumchuqi (Пычмына каменка) - Oenanthe deserti Temminck

Respublikamizda cho'l va dashlarda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) O'rtadagi rul patlarining uchidagi qora qismi uning yarmini tashkil qiladi. Qolgan rul patlarining uchidagi qora qismi asosidagi oq qismidan ancha kam.

3 (4) Rul patlarining uchidagi qora qismi (o'rtadagisidan tashqari) chetiga tomon kengayib boradi.

Pleshanka – *Oenanthe hispanica* L.

O'zbekistonda cho'l, dashtlarda va tog' etaklaridagi qirlarda yashaydi.

4 (3) Rul patlarining uchidagi qora qismi (o'rtadagilardan tashqari) bir xil uzunlikda, dum patlari uzunligining 1/3 dan oshmaydi.

5 (8) 4-katta qoquv pati 6-dan uzun. Qo'ltiq patlari qo'ng'ir rangda, oq dog'li.

6 (7) Sevkasi 28 mm dan kalta. Erkagi tanasining usti kulrang, urg'ochisining kulrang-qo'ng'ir.

Oddiy toshsurchumchuq (*Обыкновенная каменка*) – *Oenanthe oenanthe* L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

7 (6) Sevkasi 28 mm dan uzun. Usti kulrang-loysimon.

Uynoqi toshsurchumchuq (*Каменка пясунья*) – *Oenanthe isabellina* Cretzschm.

O'zbekistonda cho'l va dasht zonalarida uya quradi.

8 (5) 2-katta qoquv pati 6-dan kalta. Qo'ltiq osti patlari qora yoki qo'ng'ir, oq dog'lari bo'lmaydi.

9 (10) 6-katta qoquv pati tashqi yelpig'ichining uchi ingichkashmagan. Erkaklari tanasining osti qora, urg'ochilarining qo'ng'ir.

Qora toshsurchumchuq (*Черная каменка*) – *Oenanthe picata* Blyth.

O'zbekistonda O'rta Qizilqumda, Farg'ona vodiysida va Toshkent viloyati tumanlarida uya quradi.

10 (9) 6-katta qoquv pati tashqi yelpig'ichining uchi torayib boradi. Erkaklari tanasining usti oq yoki sarg'ish, urg'ochilarining qumkulrang.

Qora bo'yinli toshsurchumchuq (*Черношейная каменка*) – *Oenanthe finschii* Heuglin.


Respublikamizda Janubiy Qizilqumda uya quradi.

Bulbullar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) 1-katta qoquv pati kaffining qoplovchi patlariga teng yoki undan bir oz uzun (32-rasm, b). 2-katta qoquv pati 4-dan kalta.

Janub bulbuli (*Южный соловей*) – *Luscinia megarhynchos* Ch.L.Breim.

Respublikamizda deyarli hamma bog' va xiyobonlarda, o'rmonlarda uya quradi.



32-rasm. Oddiy (a) va janub (b) bulbullarining qanoti: 1-birinchi qoquv pati.

2 (1) Birinchi katta qoquv pati kaffining qoplovchi patlaridan ancha kalta va ingichka (32-rasm, a). 2-katta qoquv pati 4-ga teng yoki undan bir oz uzun.

Oddiy bulbul (*Обыкновенный соловей*) – *Luscinia luscinia* L.
O'zbekistonda faqat qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Qizilquruqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dumi qora yoki qora-qo'ng'ir.

Oq boshli qizilquruq (*Белоголовая горихвостка*) – *Phoenicurus caeruleocephala* Vigors.

O'zbekiston tog'laridagi archazorlarda uya quradi.

2 (1) Dumi asosan qizg'ish.

3 (4) Yirik qush, Qanoti 90 mm dan, sevkasi 25 mm dan uzun. Rul patlari deyarli bir xil rangda.

Qizil qorinli qizilqyruq (Краснобрюхая зорухшосмка) – Phoenicurus erythronotus Guldensmidt.


Respublikamizdagi baland tog' tizmalarida (Tyan-Shan, Zarafshon, Turkiston, Darvozda) uya quradi.

4 (3) Kichik qush, qanoti 90 mm dan, sevkasi 25 mm dan kalta. O'rtadagi rul patlari boshqalariga nisbatan qoramtir.

5 (10) Kichik qoquv patlari asosan qoramtir bo'lib, cheti oq bo'lishi mumkin.



a



b

33-rasm. Oddiy (a) va qora qizilqyruqlarning qanoti.

6 (7) 2-katta qoquv pati 6-ga teng. Birinchi katta qoquv pati kaftining qoploveli patlari uchidan 5 mm dan ortiq chiqmaydi. 3, 4 va 5 qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi toraygan (33-rasm, a). Ko'zining ustidan oqish yo'l o'tadi.

Oddiy qizilqyruq (Обыкновенная зорухшосмка) – Phoenicurus phoenicurus L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida Turkiston va Nurota tizma tog'larida uchraydi.

7 (6) 2-katta qoquv pati 7-ga teng yoki undan kalta, birinchi katta qoquv pati kaftining qoploveli patlari uchidan 5 mm dan ko'proq chiqib turadi. 3-6-katta qoquv patlarining uchi toraygan (33-rasm, b). Ko'zi ustida oqish yo'l yo'q.

8 (9) Yelkasining oldida oqish dog'i yo'q. Erkaklarining orqasi kulrang yoki qora, urg'ochilariniki kulrang yoki oqish-kulrang bo'lib, sarg'ish rang bo'lmaydi.

Qora qizilqyruq (Торухшосмка-чернушка) – Phoenicurus ochruros S.G.Gmelin.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

9 (8) Yelkasining oldida, odatda, oqish dog' bor. Erkaklarining orqasi qizg'ish, urg'ochilariniki qo'ng'ir-qizg'ish.

Qizil yelkali qizilqyruq (Красночешуйчатая зорухшосмка) – Phoenicurus erythronotus Eversmann.

Janubiy Farg'onada uya quradi, respublikamizning janubiy tumanlarida qishlaydi, boshqa joylarda esa qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Tosh shaqshaqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dumi umuman qizg'ish, 70 mm dan kalta.

Ola tosh shaqshaq (Песчаный камешный дрозд) – Monticola saxatilis L.

O'zbekistonda tog'li tumanlarda yashaydi.

2 (1) Dumi qo'ng'ir yoki qora, usti yashil, 70 mm dan uzun.

Ko'k tosh shaqshaq (Синий камешный дрозд) – Monticola solitarius L.


Respublikamizning o'rmonsiz tog'larida yashaydi.

Shaqshaqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Qanotining ostki tomoni yuzasida aqiq ajralib turgan qora va oq dog'lar yo'q. Katta qoquv patlari asosan oq emas.

2 (3) Qo'ltiq patlari qora yoki qora-qo'ng'ir. 3-6 katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi toraygan (34-rasm, b). Erkagining usti qora, urg'ochisimiki qoramtir-qo'ng'ir.

Qorashaqshaq (Чепушă dpozd) – Turdus merula L.



34-rasm. Sayroqi (a) va qorashaqshaqlarning (b) qanoti.

O'zbekiston tog' o'rmonlarida, Toshkent va Samarqandda uya quradi hamda bog'larda, to'qayzorlarda qishlaydi.

3 (2) Qo'ltiq patlari qora yoki qo'ng'ir emas. Faqat 3-5-katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi toraygan (34-rasm, a). Rangi qora emas.

4 (7) Qo'ltiq'i va qanotining pastki qoplovcheli patlari tiniq oq bo'lib, dog'lari yo'q. Qanoti 140 mm yoki undan uzun.

5 (6) Tanasining orqa tomoni bir xil kulrang-qo'ng'ir. Qorin tomoni oqish bo'lib, qoramtir dog'lari bor. Yon rul patlarining uchida oq dog'lar bor.

Bo'z shaqshaq (Деряба) – Turdus viscivorus L.
Respublikamizda tog' o'rmonlarida uya quradi.

6 (5) Ensasi va dumining usti kulrang, orqasi kashtan-qo'ng'ir rangda. Ko'kraginging o'rta qismi va qorni, odatda, dog'siz, yon rul patlarining uchida (ba'zan) oq dog'lar yo'q.

Olashaqshaq (Рябинник) – Turdus pilarus L.

O'zbekistonda ba'zan qishlaydi.

7 (4) Qo'ltiq'i va qanotining pastki qoplovcheli patlari sarg'ish yoki qizg'ish.

8 (11) Qanoti 125 mm dan kalta. Dumi qora yoki shox modda rangida bo'lib, qizg'ish rang bo'lmaydi.

9 (10) Ko'zining ustidan serbar oq yo'l – «qosh» o'tadi. Qo'ltiq'i va qanotining pastki qoplovcheli patlari g'ishtimon-qizg'ish. Sevikasi 30 mm dan kalta.

Oq qoshli shaqshaq (Белобород) – Turdus iliacus L.

O'zbekistonning shimoliy qismida ba'zan qishlaydi.

10 (9) Ko'zining ustida oq chiziqlar bo'lmaydi. Qo'ltiq'i va qanotining pastki qoplovcheli patlari och sariq yoki oqish-qizg'ish. Sevikasi 30 mm dan uzun.

Sayroqi shaqshaq (Песчуй dpozd) – Turdus philomelos G.L. Brehm.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida kamdan-kam uchraydi.

11 (8) Qanoti 125 mm dan uzun. Rul patlari, o'rtadagi juftidan tashqari, qizg'ish.

12 (1) Qanotining ustki qoplovcheli patlarida va kichik qoquv patlarida serbar qizg'ish dog'lar yo'q.

Qora tomoqli shaqshaq (Темнозобный dpozd) – Turdus ruficollis Pallas.

O'zbekistonda faqat qishlaydi.

PASHXAXO'RLAR OILASI (МУХОЖОБКОВЫЕ) – MUSCICAPIDAE

Tashqi ko'rinishidan har xil bo'lgan kichik qushlardir. Tumshug'i yassi bo'lib, asosiy qismi serbar, uchi ingichka. Tumshug'ining asosida uzun qil patlari bor.

Pashshaxo'rlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali


- 1 (2) Dumi qanotiga teng yoki undan kalta. Dum patlari bir xil uzunlikda. Boshida kokili yo'q.
Pashshaxo'rlar (Myxobolus) – *Muscicapa Brisson (133-bet)*.
- 2 (1) Dumi qanotidan ancha uzun. O'rtadagi rul patlari chetdagi laridan ancha uzun. Boshida kokili bor
Dumparastlar (Paucicue myxobolus) – *Terpsiphone Gloger*.
Turi *dumparast* – *Terpsiphone paradisi L.* O'zbekistonning tog'li o'rmonlarida uya quradi.

Pashshaxo'rlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Qanoti 70 mm dan uzun.
- 2 (1) Qanoti 70-78 mm. Dumining ustki patlari qizg'ish.
Qizg'ish dumli pashshaxo'r (Pezomachus myxobolus) – *Muscicapa ruficauda Swainson*
O'zbekistonda Turkiston, Chotqol tizma tog'larida, Chinoz va Toshkent atroflarida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.
- 3 (2) Qanoti 81-90 mm. Dumining ustki patlari kulrang.
Kulrang pashshaxo'r (Cepax myxobolus) – *Muscicapa striata Pallas*.
O'zbekistonda tog' o'rmonlarida, qishloqlardagi bog'larda uya quradi.

Moyquklar oilasi (Славковые) – Sylviidae

Mayda qushlar bo'lib, tumshug'ining usti yuzasida sezilarli taroq hosil qiladi. Burun teshiklari pat yoki qil bilan o'ralmagan. Tumshug'ining asosida qilchalar bor. Sevkasi oldingi tomondan ko'ndalang qalqonchalar bilan qoplangan.



35-rasm. Bog' moyquqi (a) bilan botqoq to'qaychumchug'i (b) boshining oldingi qismi (yuqorida peshana patlari).

Moyquklar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (16) Rul patlari 6 juft.
- 2 (9) Peshanasining oldingi qismidagi mayda patlarining uchi qilga o'xshaydi (35-rasm, a). Dumining uchi botib kirgan to'g'ri yoki bo'rtib chiqqan.
- 3 (4) Ko'zining ustida aniq ko'rinadigan oq yoki sarg'ish yo'l – «qoshchalar» yo'q. Yon rul patlari oq, dog'li yoki oq qirrali.
Moyquklar (C. aeku) – *Sylvia Scopoli (135-bet)*.
- 4 (3) Ko'zining ustida aniq ko'rinadigan oq yoki sarg'ish yo'l – «qoshchalar» bor. Yon rul patlarida oq rang yo'q.
- 5 (6) Dumining uchi to'g'ri yoki bir oz botib kirgan Cheiki va o'rtadagi rul patlarining uchidagi farq 3 mm dan oshmaydi. Burun teshiklari atrofida tumshug'ining kengligi 4 mm ga yetmaydi.
Penochkalar – Phylloscopus Boie (137-bet).
- 6 (5) Dumining uchi aylana shaklda. Yon va o'rtadagi patlarining uchidagi farq 3 mm dan ko'p (penochka-peremeshkadan tashqari, chunki dumining uchi deyarli to'g'ri, tumshug'ining kengligi 4 mm dan ortiq).
- 7 (8) 2-katta qoquv pati 7-dan ancha kalta. Burni atrofida tumshug'ining kengligi uning balandligidan ortiq emas. Tumshug'i 9,5 mm dan kalta.
Penochkalar – Phylloscopus Boie (137-bet).
- 8 (7) 2-katta qoquv pati 7-dan uzun. Tumshug'ining kengligi balandligidan ortiq. Tumshug'i 9,5 mm dan uzun.
Kurgalaktar (Pezomachus) – Hippolais Baldenst (140-bet).
- 9 (2) Peshanasining oldingi qismidagi mayda patlarning uchi odatdagidek, dumi pog'onali. Uning yon rul patlari chetdagi rul patlaridan 6 mm dan ortiq kalta (35-rasm, b).
- 10 (13) 2-katta qoquv pati 7-dan uzun.
- 11 (12) Og'zining burchaklaridagi qilchalar yo'g'on va qattiq. Yon rul patlari dumining eng uzun patlarining 3/4 qismidan uzun.
To'qay chumchuqlar (Kavayuchuk) – Acrocephalus Naumann (140-bet).
- 12 (11) Og'zining burchaklarida qattiq va yo'g'on qilchalar yo'q, agar bo'lsa ham ingichka, kalta va deyarli sezilmaydi. Yon rul patlari dumining eng uzun patlaridan 3/4 dan ortiq uzun emas.
Sverchoklar – Locustella Kaup (142-bet).
- 13 (10) 2-katta qoquv pati 7-dan kalta.

14 (15) Tanasining usti sarg'ish, pat o'qlari bo'ylab qo'ng'ir chiziqdari bor. Ichki kichik qoquv patlarida serbar oqish joylar bor. Orqa barmog'ining tirmog'i 6 mm dan uzun.

ingichka tumshuqli to'qay chumchuqlar – (*Камышовки мон-кокловые*) – *Lusciniola Gray*.

Turi *ingichka tumshuqli to'qay chumchuq* (*Камышовка мон-кокловая*) – *Lusciniola melanopogon Temminck*. Amudaryo bilan Sirdaryo to'qayzorlarida uya quradi.

15 (14) Tanasining ustida qoramtir chiziqdar yo'q. Ichki kichik qoquv patlarida oqish joylar yo'q. Orqa barmog'ining tirmog'i 6 mm dan kalta.

16 (1) Rul patlari 5 juft.

17 (18) Boshining ustida bo'yiga qarab joylashgan qoramtir chiziqdar yo'q. Rul patlarining uchida oq rang yo'q. Dumining uchi aylana shaklda.

Keng dumli to'qay chumchuqlar (*Широкохвостые камышовки*) – *Cettia Bonaparte*.

Turi *keng dumli to'qay chumchuq* (*Широкохвостая камышовка*) – *Cettia cetti Temminck*.

O'zbekistonning janubiy tumanlarida tarqalgan.

18 (17) Boshining ustida uzunasiga joylashgan qoramtir chiziqdar bor. Yon rul patlarining uchi oq. Dum patlari pog'onali.

Jiq-jiq (*Бермязас саяска*) – *Scotocerca Sundevall*

Turi *jiq-jiq* yoki *o'ynoqi moyqut* (*Бермязас саяска*) – *Scotocerca inquieta Cret*.

O'zbekistonning janubida, Qizilqumda o'troq yashaydi.

Moyqutlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Rul patlarining hammasi qo'ng'ir, oq dog'lari yo'q.
2 (3) Tepasi qora yoki qizg'ish-jigarrangda bo'lib, orqasining rangidan farq qiladi. 2-katta qoquv pati 4-dan kalta.

Qora boshli moyqut (*Саяска черноголовая*) – *Sylvia atricapilla L.*
O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

3 (2) Tepasi orqasi kabi kulrang-qo'ng'ir, 2-katta qoquv pati 4-dan uzun.

Bog' moyquti (*Садовая саяска*) – *Sylvia borin Boddaert*.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

4 (1) Yon rul patlari oq yoki qoramtir bo'lib, oq dog'lari bor.

5 (6) Dumining usti kulrang, chetlari oq. Ko'kragida va tanasining yon tomonlarida qoramtir ko'ndalang chiziqdar bor. Sevikasi 23 mm dan uzun.

Qirg'iy moyqut (*Ямпебуная саяска*) – *Sylvia nisoria Bechstein*. Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

6 (5) Dum usti patlarida oq rang yo'q. Ko'kragida va tomog'ida ko'ndalang chiziqdar yo'q. Sevikasi 23 mm dan kalta.

7 (8) Dumining usti qizg'ish. O'rtadagi juft rul patlari qizg'ish, yon rul patlari oq, qolganlari qo'ng'ir bo'lib, uchi qizg'ish. Dumi 53 mm dan kalta.

Cho'l moyquti (*Пыльчатая саяска*) – *Sylvia nana Hemprich et Ehrenberg*



36-rasm. Kulrang (a) va zavorushka (b) moyqutlarining qanoti: 1-birinchi qoquv pati.

O'zbekistonda Qizilqumda uya quradi.

8 (7) Dumining usti va rul patlari boshqacha rangda. Dumi 55 mm dan uzun.

9 (10) Ichki qoquv patlarining cheilari serbar qizg'ish rangda. Birinchi katta qoquv pati kambar, qattiq, uchi o'tkirlashgan, kaftining qoplovchi patlari uchigacha yetmaydi (36-rasm, b).

Kulrang moyqut (Cepax caxaxca) – Sylvia communis Latham.

O'zbekistonda tog' o'rmonlarida, bog'larda uya quradi.

10 (9) Kichik qoquv patida qizg'ish rang yo'q. Birinchi katta qoquv pati serbar, yumshoq, uchi o'tkirlashmagan. Uchi kaftining qoplovchi patlari uchidan ancha chiqib turadi (36-rasm, a).

11 (12) Qanoti 73 mm dan, tumshug'i 12 mm dan uzun.

Sayroqi moyqut (Песчан caxaxca) – Sylvia hortensis Gmelin.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

12 (11) Qanoti 73 mm dan, tumshug'i 12 mm dan kalta.

13 (14) Boshining ikki yon tomonidan qoramir-qo'ng'ir yoki kulrang chiziq o'tadi. Dumi qo'ng'ir, yon rul patlarida oq dog'lar bor. Ko'kragida binafsha yoki kulrang tus bor.

Zavirushka moyqut (Саякка-сайпуука) – Sylvia curvica L.

O'zbekistonning tog' o'rmonlarida, bog'larida uya quradi.

14 (13) Erkaklari boshining ushi va yon tomonlari qora, urg'o-chilariniki qo'ng'ir. Dumi qora bo'lib, oq dog'lar bor. Ko'kragida binafsha va kulrang tus yo'q.

Oq mo'ylabli moyqut (Белоякая caxaxca) – Sylvia mystacea Melnetices.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi va uya quradi.

Penochkalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (14) Orqa tomonida, ayniqsa, dum ushi va qanotlarida yashil rang bor. Agar ustida yashil rang bo'lmasa, qanotining pastki qoplovchi patlari sariq yoki qorin tomonida sariq tus bo'ladi.


2 (3) Qanotining pastki qoplovchi patlari qo'ng'ir yoki sarg'ish-qo'ng'ir tusda.

Hind penochkasi (Индийская петровка) – Phylloscopus griseolus Blyth.

O'zbekistonda Turkiston tizma tog'larida va Tyan-Shanda uya quradi.

3 (2) Qanotining pastki qoplovchi patlari oq yoki sariq.

4 (9) Qanotining uski qoplovchi patlarining uchi oq yoki sarg'ish, qanotida bitta yoki 2 ta oqish ko'ndalang chiziq bor (37-rasm, a).



37-rasm. Ba'zi chumchuqsimonlarning qanoti bilan tumshug'i: a-korolkovaya penochkaning qanoti; b-penochka-treshchetkaning qanoti; d-penochka-tenkovkaning qanoti; e-yashil penochkaning tumshug'i; f-penochka-zarnichkaning tumshug'i (yon tomondan ko'rinishi); g-ustidan ko'rinishi; h-yashil penochkaning tumshug'i (ustidan ko'rinishi).

5 (6) Boshining usti orqasiga nisbatan qoraroq, o'rtasidan bo'yiga qarab oqish chiziq o'tadi.

Oqbo'sh penochka (*Caenocoryza nenochka*) – *Phylloscopus occipitalis* Blyth.

O'zbekistonda, Zarafshon tizma tog'larida, Qashqadaryoda uya quradi.

6 (5) Boshining usti orqasiga o'xshash rangda yoki undan bir oz qoraroq. O'rtasidan oqish chiziq o'tmaydi.

7 (8) Tumshug'i ingichka, burun teshiklarining oldidan o'lichaganda, kengligi balandligidan oshmaydi (37-rasm, e, f). Ichki kalta, katta qoquv patlarida serbar oqish rang bor.

Penochka-zarnichka – *Phylloscopus inornatus* Blyth.

O'zbekistondagi archazor tog'larda uya quradi.

8 (7) Tumshug'i enli, burun teshiklari atrofidan o'lichaganda eni balandligidan ortiq (37-rasm, g, h).

Yashil penochka – *Phylloscopus trochiloides* Sundevall.

9 (4) Qanotining ustki qoplovchi patlarining uchi oqish emas, shuning uchun qanotida oqish ko'ndalang chiziq hosil bo'lmaydi.

10 (11) Birinchi katta qoquv pati kaftining ustki qoplovchi patlaridan kalta (37-rasm, b), 2-katta qoquv pati 5-dan uzun.

Penochka-treshotka – *Phylloscopus sibilatrix* Bechstein.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

11 (10) Birinchi katta qoquv pati kaftining ustki qoplovchi patlaridan ancha uzun. 2-katta qoquv pati 5-dan kalta.

12 (13) 2-katta qoquv pati 7-dan uzun. Birinchi kichik qoquv patining uchi bilan qanotining uchi orasidagi masofa 15 mm dan ortiq.

Penochka-vesnichka – *Phylloscopus trochilus* L.

O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

13 (12) 2-katta qoquv pati 7-dan kalta yoki unga teng (37-rasm, d). Birinchi kichik qoquv patining uchi bilan qanotining uchigacha bo'lgan masofa 15 mm dan oshmaydi.

Penochka-tenkovka – *Phylloscopus collybita* Vieillot.

O'zbekistonda faqat qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

14 (1) Orqasi yashil emas. Qanotining pastki qoplovchi patlari sariq emas, qorin tomonida sariq rang yo'q.

15 (16) Qanotining pastki qoplovchi patlari ochi-qizg'ish.

Qo'ng'ir-penochka (*Bypax nenochka*) – *Phylloscopus fuscatus* Blyth.

16 (15) Qanotining pastki qoplovchi patlari oqish. Qanoti 46-52 mm.

Eron penochkasi – *Phylloscopus neglectus* Hume.

O'zbekistonning janubidagi tog'larda uya quradi.

Kurgalakar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Orqasi yashil, qorin tomoni sarg'ish.

Yashil kurgalak (*Ипецемеука*) – *Hippolais icterina* Vieillot.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida Farg'ona atrofida uchragan.

2 (1) Orqasida yashil, qorin qismida sariq rang yo'q.

3 (4) Qanoti 73 mm dan, tumshug'i 12 mm dan uzun. Birinchi

katta qoquv pati kaftining ustki qoplovchi patlaridan kalta yoki 2 mm dan ortiq uzun emas.

Cho'l kurgalagi (*Тычмынча непецемеука*) – *Hippolais langiada* Hemprich et Ehrenberg.

O'zbekistonda cho'l va dasht tumanlarda uya quradi.

4 (3) Qanoti 73 mm dan, tumshug'i 12 mm dan kalta. Birinchi katta qoquv pati kaftining qoplovchi patlari uchidan 3 mm va undan ko'p chiqib turadi.

5 (6) Qanoti 64-70 mm. Tumshug'ining kengligi asosida 4,5 mm dan ortiq.

Katta kurgalak (*Биеднча непецемеука*) – *Hippolais pallida* Hemprich et Ehrenberg.

Respublikamizning tekislik va dasht tumanlarida uya quradi.

6 (5) Qanoti 56-64 mm. Tumshug'ining kengligi asosida 4,5 mm dan kam.

Kurgalak (*Бормомыука*) – *Hippolais calligata* Licht.

O'zbekistonda tekisliklarda uya quradi.

To'qaychumchuqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (12) Boshi bir xil rangda, qoshning ustida qoramtir chiziq yo'q.

2 (5) Qanoti 73 mm dan, dumi 65 mm dan, orqa barmog'i (tirnog'i bilan birga) 16 mm dan uzun.

3 (4) 3-katta qoquv patining ichki yelpig'ichining uchi toraygan, 2-katta qoquv pati 5- va 6-dan uzun.

Shaqshaq to'qaychumchuq – *Acrocephalus arundinaceus* L.

O'zbekistonda deyarli hamma qamishzorlarda uya quradi.

4 (3) 3-katta qoquv patining ichki yelpig'ichining uchi toraygan, 2-katta qoquv pati, 5-dan va ba'zan 6-dan kalta.

Janub to'qaychumchug'i (*Южная древообитная камышовка*) – *Acrocephalus stentoreus Hemprich et Ehrenberg*.

O'zbekistonda qamishzorlarda uya quradi.

5 (2) Qanoti 73 mm dan, dumi 65 mm dan, orqa barmog'i (tirmog'i bilan birga) 16 mm dan kalta.

6 (9) Qanoti to'ntoq, 2-katta qoquv pati 5-dan kalta.

7 (8) Orqasi qo'ng'ir, boshining usti dumining usti orqasi bilan bir xil rangda. Tumshug'i (burun teshiklaridan uchigacha) 8,1-10,3 mm.

Bog' to'qaychumchug'i (*Садовая камышовка*) – *Acrocephalus dumetorum Blyth*.

O'zbekistonda ko'l va botqoqliklardagi qamishzorlarda uya quradi.

8 (7) Orqasi qizg'ish-qo'ng'ir, boshining usti qoramtir, dumining usti qizg'ish, orqasiga nisbatan ancha ochiq. Tumshug'i 6,8-8,9 mm.

Hind to'qaychumchug'i (*Индийская камышовка*) – *Acrocephalus agricola Jerdon*.

9 (6) Qanoti o'tkir, 2-katta qoquv pati 5-dan uzun.

10 (11) Dumining usti qizg'ish. Orqa barnlog'i tirmog'i bilan bir xil uzunlikda.

Qanish to'qaychumchug'i (*Трошниковая камышовка*) – *Acrocephalus scirpaceus Hermann*.

Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

11 (10) Dumining usti qizg'ish emas, orqasi bilan bir xil rangda. Orqa barnog'ining tirmog'i barmog'ining uzunligidan kalta.

Botqoqlik to'qaychumchug'i (*Болотная камышовка*) – *Acrocephalus palustris Bechstein*.

Qizilqumda va Orol dengizining janubida qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

12 (1) Boshining ustidan qoramtir chiziq o'tadi.

Bo'rsiq to'qaychumchug'i (*Камышовка-барсучок*) – *Acrocephalus schoenobaenus L.*

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Chirildoqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

O'zbekistonda bu urug'ning 5 ta turi faqat qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

1 (6) Tanasining ustida uzunasiga joylashgan qoramtir dog'lar bor.

2 (3) Rul patlari qoramtir-qo'ng'ir, uchi oqish. Dumining usti qizg'ish, boshi va tanasining ustidan keskin farq qiladi.

Sayroq chirildoq (*Песчаный сверчок*) – *Locustella certhiola Pallas*.

3 (2) Rul patlari boshqacha rangda, dumining usti, boshi va orqasi bir xil rangda.

4 (5) Ko'kragida va yon tomonlarida uzunchoq qoramtir dog'lar bor.

Dog'li chirildoq (*Пшаничный сверчок*) – *Locustella lanceolata Temminck*.

5 (4) Ko'kragida va yon tomonlarida uzunchoq qoramtir dog'lar yo'q.

6 (1) Tanasining usti bir xil rangda, dog'siz.

7 (8) Tomog'ida uzunasiga joylashgan dog'lar bor. Birinchi katta qoquv pati kaftining ustki qoplovchi patlaridan kalta. Dumining pastki qoplovchi patlarining uchi oqish.

Daryo chirildoq'i (*Речной сверчок*) – *Locustella fluviatilis Wolf*.

8 (7) Tomog'ida va jig'ildonida uzun dog'lar yo'q. Birinchi katta qoquv pati kaftining ustki qoplovchi patlari uchigacha yetadi. Dumining pastki qoplovchi patlarining uchi oqish emas.

Bulbubamo chirildoq (*Соловейный сверчок*) – *Locustella luscinioides Savigni*.

O'rmon yoki butazorlarda yashovchi eng mayda qushlar hisoblanadi.

Korolyoklar oilasi – Regulidae

Qanoti to'ntoq, katta qoquv patlari 10 ta, 4-5 ta yoki 3-5 katta qoquv pati qanotining uchini tashkil qiladi. Dumi 12 ta rul patlardan tuzilgan. Tumshug'i ingichka va kalta bo'lib, tumshug'i ustining uchi bir oz egilgan. Burun teshiklari teri burmasi bilan yoki qattiq pat bilan yopilgan.

Korolyoklar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Qanotining ustki qoplovchi patlarining uchi oq, ko'ndalang chiziq hosil qiladi. Dumining usti yashil. Har bir burun teshigi bitta qattiq pat bilan yopilib turadi.

Korolyoklar – *Regulus Cuvier*.

Turi sariq boshli korolyok – *Regulus regulus L.* O'zbekistonda Turkiston va Tyan-Shan tog'larida uya quradi. Qish vaqtida tog'liklarida uchraydi.

2 (1) Qanotning ustki qoplovchi patlarining uchi oq emas, qanotida ko'ndalang chiziq yo'q. Dumining usti binafsha yoki kulrang. Har bir burun teshigi terisimon burma bilan yopilgan.

Guldor chittaklar (Pacnyчные чмшпы) – Leptopoeile Severtzov.

Turi *guldor chittak – Leptopoeile sophiae Severtzov.* O'zbekistonda baland tog' tumanlaridagi archazorlarda uya quradi. Qish vaqtida tog' etaklarida tushadi.

Zavirushkalar oilasi – Prunellidae

Kichik qushlar bo'lib, tumshug'ining ustki va pastki qirradi ichkariga tortilgan. Burun teshiklari terisimon qopqoqcha bilan yopilgan. Katta qoquv patlari 10 ta, rul patlari 12 ta.

O'zbekiston faunasida bitta – zavirushkalar urug'i va 5 ta turi uchraydi.

Zavirushkalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (6) Yon rul patlari bir xil rangda, oq yoki sariq dog'lari yo'q. Qanoti 85 mm dan, sevkasi 22 mm dan kalta.

2 (3) Ko'zining ustida oqish «qoshi» bo'lmaydi. Ko'kragi va tomog'i oqsh-kulrang.

O'rmon zavirushkasi – Prunella modularis L.

Qizilqumda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

3 (2) Ko'zining ustidan oq yoki sariq chiziq o'tadi. Ko'kragi sarg'ish.

4 (5) Tomog'i qora yoki qoramtir, oqish dog'chalari bor.

Qora tomogli zavirushka – Prunella atrogularis Brandt.

Respublikamizda ninabargli o'rmonlarda va tog' etaklarida yashaydi.

5 (4) Tomog'i oq yoki sarg'ish, ba'zan qoramtir dog'lari bo'lishi mumkin. Ko'zining ustida oq chiziq «qoshi» bor.

Oqargan zavirushka – Prunella fulvescens Severtzov.

6 (1) Yon rul patlarining uchida yirik oq yoki sarg'ish-oq dog'lar bor. Qanoti 85 mm dan, sevkasi 22 mm dan uzun.

7 (8) Tanasining orqa tomoni och kulrang, qoramtir-qo'ng'ir dog'lari bor. 2-katta qoquv patlari 3-dan kalta.

Alp zavirushkasi – Prunella collaris Scopoli.

Respublikamizning baland tog'larida yashaydi.

8 (7) Tanasining orqasi loyisimon - qizg'ish bo'lib, serbar qora dog'lari bor. 2-katta qoquv patlari 3-ga teng.

Himolay zavirushkasi – Prunella himalayensis Blyth.
O'zbekistonda baland tog'larda yashaydi.

JIBLAJIBONLAR OILASI (ТРЯСОГУЗКОВЫЕ) – MOTACILLIDAE

Mayda qushlar bo'lib, dumi odatda, qanotlaridan uzun. Kichik qoquv patlari ancha uzun, tumshug'i ingichka, bigizsimon. Orqa barmog'ining tirmog'i uzun, deyarli egilmagan.

Jibljajibonlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Boshining usti va orqasidagi patlarida qoramtir uzunchoq dog'lar yo'q.

Jibljajibonlar (Трясогузка) – Motacilla L. (145-bet).

2 (1) Boshining ustidagi va orqasidagi patlarida uzunchoq qoramtir dog'lar bor.

Yo'rg'a to'rg'aylar (Ковьку) – Anthus Bechstein (145-bet).

Jibljajibonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Patlarida sariq yoki yashil tus yo'q.

Oq jibljajibon (Белая трясогузка) – Motacilla alba L.

Respublikamizning deyarli hamma tumanlarida uya quradi va ba'zan qishlaydi.

2 (1) Patlarida sariq yoki yashil tus bor.

3 (4) Orqa barmog'ining tirmog'i barmog'idan kalta. Ichki kichik qoquv patlarining asosi oq. Dumi tanasidan uzun.

Tog' jibljajiboni (Топуха трясогузка) – Motacilla cinerea Turstall.

O'zbekistonda tog'li tumanlarda uya quradi.

4 (3) Orqa barmog'ining tirmog'i barmog'idan uzun. Ichki kichik qoquv patlarining asosi oq emas.

5 (6) Boshining usti qora, kulrang yoki oqish, lekin sariq emas.

Sariq jibljajibon (Желтая трясогузка) – Motacilla flava L.

O'zbekistonda tekisliklarda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

6 (5) Boshining usti sariq yoki och yashil.

7 (8) Orqasi kulrang yoki qora. 4-katta qoquv patlari 3-dan 3-5 mm kalta. 2-4-katta qoquv patlarining tashqi yelpig'ichi uchiga tomon to'raydi.

Sariq boshli jibljajibon (Желтоголовая трясогузка) – Motacilla alba Pallas

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

8 (7) Orqasi sarg'ish yoki kulrang yashil. 4-katta qoquv pati 3-dan 1-2 mm kalta. Faqat 2-3-katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi toraygan.


Sariq pesharali jibljabon (Желтозлая прычужка) – Motacilla lutea Gmelin.

O'zbekistonda Orol dengizi qirg'oqlarida, Sirdaryo bo'yolarida uya quradi.

Yo'rg'a to'rg'aylar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Sevkasi 28 mm dan uzun. Orqa barmog'i (tirmog'i bilan birga) 24 mm dan uzun.

Dasht yo'rg'a to'rg'ayi (Степной конёк) – Anthus richardi Vieillot.



38-rasm. Dala (a), o'rmon (b) va o'tloq (d) yo'rg'a to'rg'aylarining oyog'i.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Sevkasi 28 mm dan kalta. Orqa barmog'i (tirmog'i bilan birga) 24 mm dan kalta.

3 (12) Orqa barmog'ining tirmog'i bir oz egilgan, uzun. Uzunligi barmog'ining uzunligiga teng yoki undan uzun (38-rasm, a, b).

4 (5) Voyaga yetgan qushlar tanasining yon tomonlarida qoramtir uzun dog'lar yo'q. Yoshlarida mayda oqish dog'lar bor.

Dala yo'rg'a to'rg'ayi (Полевой конёк) – Anthus campestris L.
O'zbekistonda tog'li tumanlarda va tog' etaklarida uya quradi.

5 (4) Tanasining yon tomonlarida qoramtir uzun dog'lar bor.
6 (9) Beli va dumining usti bir xil rangda bo'lib, qoramtir uzun dog'lar yo'q.

7 (8) Orqasida uzunasiga joylashgan qo'ng'ir-qora chiziqlar bor.

O'tloq yo'rg'a to'rg'ayi (Лычовый конёк) – Anthus pratensis L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

8 (7) Orqasida qora-qo'ng'ir chiziqlar yo'q.

Tog' yo'rg'a to'rg'ayi (Горный конёк) – Anthus spinolette L.

O'zbekistonda tog'li tumanlarda uya quradi va ba'zan qishlaydi.

9 (6) Beli va dumining ustidagi qoramtir dog'lar ko'rinib turadi.

10 (11) Orqa patlarining chetida oq dog'lar yo'q. Orqasining yon tomonlarida oq chiziqlar yo'q. Chetdan 2-ruil patlaridagi oq dog'larning uzunligi 2 mm dan kam. Tomog'i, odatda, qizg'ish rangda.

Qizil tomoqli yo'rg'a to'rg'ayi (Краснозобый конёк) – Anthus cervina Pallas.

O'zbekistonda faqat qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

11 (10) Orqa patlari bir qismining chetlari oq bo'lib, orqasining yon tomonlaridan bitta oq chiziq o'tadi. Chetdan 2-ruil patlaridagi oq dog'ning uzunligi 2 mm dan ortiq.

Sibir yo'rg'a to'rg'ayi (Сибирский конёк) – Anthus gustavi Swinhoe

O'zbekistonda ba'zan qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

12 (3) Orqa barmog'ining tirmog'i egilgan, kalta. Tirmog'i, odatda, barmog'idan kalta (38-rasm, b).

O'rmon yo'rg'a to'rg'ayi (Лесной конёк) – Anthus trivialis L.

O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Sviristellar oilasi – Bombycillidae

Uncha yirik bo'lmagan mayda qushlar. Boshida kokili bor. Tumshug'i enli, og'iz kesimi katta bo'lib, tumshug'ining uchida tirmoqchasi bor. Qanoti kalta, lekin o'tkir. 2-katta qoquv pati qanotining uchini tashkil qiladi.

O'zbekiston faunasida *sviristellar – Bombycilla Vieillot* urug'i va *oddiy sviristel – Bombycilla garrulus L.* turi ba'zan qish vaqtlarida uchraydi.

QARQUOQLAR OILASI (СОРОКОПУТЫ) – LANIIDAE

Bu oilaga o'rtacha yirik qushlar kiradi. Ular tumshug'ining «yirtqich» tipda bo'lishi o'ziga xos xususiyatidir. Tumshug'i yon tomondan qisilgan, uchida o'tkir ilmoqchasi va ilmoqchasining oldida tishchasi bor. Qanoti kalta, dumi uzun.

MDH va O'zbekiston faunasida bitta – *qarqunoqlar* – *Lanius L.* urug'ining turlari uchraydi.

Qarqunoqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (4) Qanoti 100 mm dan uzun.
- 2 (3) Peshanasi va boshining usti to'q qora rangda. Dumi qanotidan kalta.

Qora peshanali qarqunoq (Чернолобый сорокопуд) – *Lanius minor Gmelin*.

O'zbekistonda tog'lar etagidagi daraxtzorlarda uya quradi.

- 3 (2) Peshanasi va boshining usti kulrang. Dumi qanotiga teng yoki undan bir oz uzun.

Katta yoki kulrang qarqunoq (Большой или серый сорокопуд) – *Lanius excubitor L.*

Bu qarqunoq O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi, qishlaydi va cho'l zonasida uya quradi.

- 4 (1) Qanoti 100 mm dan kalta.

- 5 (6) Dumi qanotidan 8-10 mm uzun. Chetdagi rul patlari o'rtadagilaridan 30-45 mm kalta.

Uzun dumli qarqunoq (Длиннохвостый) – *Lanius schach L.*

O'zbekistonda Chirchiq atrofiga, Sirdaryoning yuqori oqimida, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshonning o'rta oqimida uya quradi.

- 6 (5) Dumi qanotidan kalta. Chetdagi rul patlari o'rtadagilaridan 1—12 mm kalta.

O'lato'g'anoq (Жулан) – *Lanius cristatus L.*

O'lato'g'anoq respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, ba'zilar qushlar uchib o'tishi davrida uchrasa, ba'zilar uya quradi.

CHUG'URCHIQLAR OILASI (СКВОРЦОВЫЕ) – STURNIDAE

O'rtacha yirik qushlar bo'lib, tumshug'i to'g'ri va o'tkir. Vazni 65-80 g. Katta qoquv patlari 10 ta. Ularning birinchisi kuchsiz rivojlangan

va kalfining qoplovchi patlaridan kalta. Dumi aylana yoki to'g'ri, 12 ta rul pati bor.

O'zbekiston faunasida chug'urchiqlarning 3 ta urug'i va 3 ta turi uchraydi.

Chug'urchiqlarning urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (2) Ko'zining atrofiga patsiz sariq dog' bor. Katta qoquv patlarining tashqi yelpig'ichi oq.

Maynalar (Майна) – *Acridotheres Vieillot*.

Turi *mayna* yoki *hind chug'urchig'i* – *Acridotheres tristis L.* O'zbekistonda hamma joyda: cho'l, dasth, shahar, qishloq va o'rmonlarda o'troq holda hayot kechiradi.

- 2 (1) Ko'zi atrofiga patsiz dog' yo'q. Katta qoquv patlarining tashqi yelpig'ichlari oq emas.

- 3 (4) Voyaga yetganlarining orqasi, ko'kragi, qorni va yon tomonlari pushti rangda, yoshlari qo'ng'ir rangda bo'ladi. Tumshug'ining usti pastga kuchli egilgan.

Ola chug'urchiqlar yoki Sochlilar (Розовые скворцы) – *Pastor Temminck*.

Turi *ola chug'urchiq (Розовый скворец)* – *Pastor roseus L.* O'zbekistonda tog'larda va tog' etaklarida uya quradi.

- 4 (3) Voyaga yetganlari qora, oq dog'li yoki dog'siz, yoshlari qoramtir-qo'ng'ir. Tumshug'ining usti pastga kuchli egilmagan.

Chug'urchiqlar (Скворцы) – *Sturnus L.*

Turi *oddiy chug'urchiq (Обыкновенный скворец)* – *Sturnus vulgaris L.* Respublikamizda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi, qishlaydi va uya quradi.

To'qimachilar oilasi (Ткачиковые) – Ploceidae

Mayda qushlar bo'lib, tumshug'i konussimon. Tumshug'ining uchi, odatda, o'tkir. Burun teshiklari yumaloq, pat bilan qoplanmagan. O'zbekiston faunasida to'qimachilarning uchta urug'ining vakillari uchraydi.

To'qimachilar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (2) Rul patlarida oq rang bo'lmaydi. Qanoti dumidan 20 mm dan ortiq uzun emas.

Chunchuqlar (Воробей) – *Passer Brisson (150-bet)*.

2 (1) Rul patlarida (o'rtadagi rul patlaridan tashqari) oq rang bor. Qanoti dumidan 30 mm ortiq uzun.

3 (4) Kichik qoquv patlari, rul patlarining ko'pchilik qismi oq rangda.

Qor vyuroklari (Снежные вьюрки) – Montifringilla Brehm.

Turi *Alp yoki qor vyurogi (Снежный вьюрок) – Montifringilla nivalis* L. O'zbekistonda tog'li tumanlarda qishda uchraydi.

4 (3) Kichik qoquv patlari qoramtir, rul patlarining uchi oq dog'li. *Toshchumchuqlar (Каменные вьюрки) – Petronia Kaup.*

Turi *toshchumchuq (Каменный вьюрок) – Petronia petronia* L. O'zbekistonda hamma tog'li tumanlarda uya quradi va qishlaydi.

Chumchuqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasining orqa tomoni kulrang, bir xil, qoramtir dog'lari bo'lmaydi.

Cho'l chumchug'i (Пустынный вьюрок) – Passer simplex Licht. Buxoroning g'arbiy tomonida Xo'jadavlat atrofida qumlikda uchragan.

2 (1) Tanasining usti boshqacha rangda bo'lib, qoramtir dog'li chiziqlari bor.

3 (4) Quloqlarining atrofi qora yoki qora-qo'ng'ir dog'li.

Dala chumchug'i (Полевой вьюрок) – Passer montanus L.

O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan qush hisoblanadi va xilma-xil sharoitida yashaydi.

4 (3) Quloqlarining atrofi qora yoki qora-qo'ng'ir dog'li bo'lmaydi.

5 (6) Boshining usti kulrang. Tanasining yon tomonlarida qoramtir dog'lar bo'lmaydi.

Uy chumchug'i (Домовой вьюрок) – Passer domesticus L.

Respublikamizda uya quradi, qishlaydi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

6 (5) Boshining usti jigarrang yoki qora. Tanasining yon tomonlarida aniq ko'rinadigan qora dog'lari bor.

7 (8) Boshining usti jigarrang.

Qorato'sh chumchuq (Черногрудый вьюрок) – Passer hispaniolensis Temminck.

O'zbekistonning janubiy tumanlarida qishlaydi va uya quradi. Shimoliy va sharqiy tumanlarda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

8 (7) Boshining usti qora.

Saksovul chumchug'i (Саксаульный вьюрок) – Passer ammodendri Gould.

O'zbekistonda cho'l zonalarda uya quradi.

Vyuroklar oilasi – Fringillidae

Mayda va o'rtacha yirik qushlar bo'lib, tumshug'i baquvvat, konussimon, faqat klestlar tumshug'ining uchi kesishadi. Burun teshiklari tumshug'ining asosida joylashgan va uni teshib o'tgan. Umumiy tuzilishi to'qimachilarga o'xshash bo'ladi.

O'zbekiston faunasida vyuroklarning 14 ta urug'i va 21 turi uchraydi.

Vyuroklar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Tumshug'ining uchlari kesishadi.

Qaychitumshuqlar (Клесты) – Loxia L.

O'zbekistonda ba'zan *archa qaychitumshug'i (Клест-еловик) – Loxia curvirostra* L. uchraydi. U shimoliy tumanlardan uchib keladi.

2 (1) Tumshug'ining uchlari kesishmaydi.

3 (4) Qanoti dumidan kalta, birinchi katta qoquv pati 5 dan kalta.

Uzun dumli sregirlar – Uragus Kayserling et Blasius.

Bitta nominal turi – *Uragus sibiricus* Pallas. O'zbekistonda ba'zan qishlaydi.

4 (3) Qanoti dumidan uzun, birinchi katta qoquv pati 5-dan uzun.

5 (8) Tumshug'i juda katta va yo'g'on. Eni asosidan 13 mm dan kam emas.

6 (7) Dumining usti ko'k-sariq.

Archa boltatumshuqlari (Арчевые дубоносы) – Mycerobas Cabanis.

Bitta nominal turi (*Арчевый дубонос*) – *Mycerobas carripes* Hodgs. bo'lib, O'zbekistonda baland tog'lardagi archazorlarda tarqalgan.

7 (6) Dumining usti qizg'ish-sarg'ish.

Boltatumshuqlar (Дубоносы) – Coccothraustes Brisson

Bitta nominal turi (*Дубонос*) – *Coccothraustes coccothraustes* L. bo'lib, O'zbekistonda qishlaydi va shimoli-sharqiy tumanlarda uya quradi.

8 (5) Tumshug'i uncha katta emas, eni asosidan 13 mm dan oshmaydi.

9 (12) Kichik qoquv patlarining asosi ochiq sariq.

10 (11) Rul patlarining asosi sarg'ish.

11 (10) Rul patlarining asosi sariq emas.

Sa'valar (Щезлы) – *Carduelis Brisson*.

Bitta turi sa'va (Щезлы) – *Carduelis carduelis* L. bo'lib, respublikamizning tog'li tumanlarida uya quradi.

12 (9) Kichik qoquv patlarining asosi sariq emas.

13 (14) Tumshug'i 14 mm dan, sevkasi 24 mm dan uzun.

Erkagining boshi, bo'yni va ko'kragi qizil.

Qizil vyuroklar – *Pyrrhospiza Blyth*.

Bitta nominal turi – *qizil vyurok* – *Pyrrhospiza punicea* Hodgs. bo'lib O'zbekistonda tog'li tumanlarda qishda uchraydi.

14 (13) Tumshug'i 14 mm dan, sevkasi 24 mm dan kalta.

Erkagining rangi boshqacha.

15 (16) Tumshug'i kalta va bo'rtgan, 8 mm dan kalta. Tumshug'i ustining o'rtasidagi qirasi bo'rtib chiqqan.

Kanarevkasimon vyuroklar – *Serinus Koch*.

O'zbekistonda bitta turi – *qizil qalpoqli vyurok* (*Красношапочный выюрок*) – *Serinus pusillus Pallas*. U tog'li tumanlarda uya quradi va qishlaydi.

16 (15) Tumshug'i boshqacha va odatda 8 mm dan uzun; agar 8 mm dan kalta bo'lsa, ingichka va to'g'ri, qirasi bo'rtmagan.

17 (20) Qanotida och sariq rang bor. Dumining usti, odatda, ko'k va sariq-ko'k bo'ladi.

18 (19) Qanoti 75 mm dan, sevkasi 17 mm dan kalta. Qanotining ustki qoplovchi patlari bir xil rangda.

Ko'kchumchuqlar (*Зеленушка*) – *Chloris Cavier*.

O'zbekistonda Turkiston ko'kehunchug'i – *Chloris chloris* L. uchraydi.

19 (18) Qanoti 75 mm dan, sevkasi 17 mm dan kalta. Qanotining ustki qoplovchi patlarida ko'ndalang chiziqli ko'k rang bo'ladi.

Chijlar – *Spinus Koch*.

MDH da bitta nominal turi – *Spinus spinus* L. bo'lib, O'zbekistonda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi va tekisliklarda qishlaydi.

20 (17) Qanotida limonsimon-sariq rang bo'lmaydi. Dumining usti boshqacha rangda.

21 (24) Sevkasi 17 mm dan kalta. Yon rul patlarining ichki yelpig'ichida oq hoshiya bo'ladi.

22 (23) Tomog'i oq yoki sarg'ish, ba'zan ola bo'ladi. Qanotlarida oq ko'ndalang chiziqlar bo'lmaydi. Tumshug'i, burun teshigi atrofida 6 mm dan baland.

Kanop chumchuqlar (*Коноплянка*) – *Camabina Brehm*.

O'zbekistonda *kanop chumchug'i* (*Коноплянка*) – *Camabina camabina* L. turi qishlaydi va shimoli-sharqda uya quradi.

23 (22) Tomog'i qora yoki qoramtir. Qanotlarida ikkita oq ko'ndalang chiziq bor. Tumshug'ining balandligi 6 mm dan kam.

Chechetkalar – *Acanthis Borkh*.

Bitta nominal turi – *Acanthis flammea* bo'lib, O'zbekistonda qishlaydi.

24 (21) Sevkasi 17 mm dan uzun, rul patlarida oq hoshiya yo'q, u faqat tashqi va ichki yelpig'ichilarida bo'ladi.

25 (28) Rul patlaridagi oq hoshiya tashqi va ichki yelpig'ichlarida ham bor yoki faqat tashqi yelpig'ichlarida bor.

26 (27) Yon rul patlarining yelpig'ichlari oq hoshiyali, o'rtadagi rul patlari qora. Qanoti 90 mm dan uzun.

Chechevichniklar – *Rhodopechys Gabanis*.

Turi *qizil qanotli chechevichnik* (*Краснокрылый чечевичник*) – *Rhodopechys sanguinea Gould*.

O'zbekistonda tog'li tumanlarda uya quradi.

27 (26) Yon rul patlarining tashqi yelpig'ichlari oq hoshiyali bo'ladi, o'rtadagi rul patlarining tashqi va ichki yelpig'ichlari oq bo'ladi. Qanotlari 90 mm dan kalta.

Cho'i vyuroklari (*Булантй выюрок*) – *Rhodospiza Sharpe*.

Bitta nominal turi – *cho'i vyurogi* (*Булантй выюрок*) – *Rhodospiza obsolota Licht*. Respublikamizda Xorazm va Qoraqalpog'istondan tashqari hamma joyda tarqalgan.

28 (25) Rul patlarida oq hoshiya yo'q. Ba'zan rul patlarida oq dog'lar bo'lishi mumkin.

29 (32) Tumshug'i kalta va yo'g'on, balandligi asosida uzunligiga teng va kengligidan ortiq.

30 (31) Birinchi katta qoquv pati 2-dan kalta. Sevkasi 19 mm dan uzun.

Qizilboshlar (*Чевеуш*) – *Carpodacus Kaup* (154-bet).

31 (30) Birinchi katta qoquv pati 2-dan uzun. Sevkasi 19 mm dan kalta.

Cho'i sneg'irlari (*Пыльчатые снегури*) – *Bucanetes Gabanis*.

O'zbekistonda *Mo'g'uliston cho'i sneg'iri* (*Монольский снегуринтй снегурь*) – *Bucanetes mongolicus Swinhoe* uya quradi.

32 (29) Tumshug'i ingichka. Balandligi uzunligidan kam va eniga teng.

33 (34) Dumining usti ko'k yoki oq. Katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining asosi oq bo'lib, «oynacha» hosil qiladi.

Yuuroklar (Yuuroklar - Выюрку) - Fringilla L. (154-bet).

34 (33) Dumining usti va qanoti boshqacha rangda.

Tog' yuuroklari (Горные выюрку) - Leucosticte Swainson (154-bet).

Qizilboshlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Birinchi katta qoquv pati 4-dan ancha uzun.

Oddiy qizilbosh (Обыкновенная чечевича) - Carpodacus erythrinus Pallas.

O'zbekistonda uya quradi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) 2-katta qoquv pati 4-ga teng yoki undan kalta.

Archa qizilboshi (Малая розовая или арчевая чечевича) - Carpodacus rhodochlamys Brandt.

O'zbekistonda uya quradi, qishlaydi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Vuuroklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dumining usti ko'k yoki qo'ng'ir-ko'k.

Zyablik - Fringilla coelebs L.

O'zbekistonda faqat qishlaydi.

2 (1) Dumining usti oq.

Yuurok - Fringilla montifringilla L.

Respublikamizda qishlaydi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

Tog' yuuroklari urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Boshining usti qoramtir-qizg'ish. Qanoti 100 mm dan, sevkasi 20 mm dan kalta. Orqasida qoramtir ola-bula chiziqlar bor.

Archa (Himolay) yuurogi - Leucosticte nemoricola Hodgson

O'zbekistonning sharqiy tog' tumanlarida uya quradi va qishlaydi.

2 (1) Boshining usti boshqacha rangda. Qanoti 100 mm dan, sevkasi 20 mm dan uzun. Orqasida qoramtir ola-bula chiziqlar yo'q.

Tog' marvarid yuurogi (Желчужный) горный выюрок - Leucosticte brandti Bonaparte.

O'zbekistonning sharqidagi tog'li tumanlarda ba'zan uchraydi.

Dehqonchumchuqlar oilasi (Овсянковые) - Emberizidae

Mayda qushlar hisoblanadi, asosan ochiq joylarda yoki butazor va qamishzorlarda yashaydi. Dehqonchumchuqlarning tumshug'i o'ziga xosdir: tumshug'i usti va pastining kesuvchi qirralari ichkariga bukilgan, tumshug'i yon tomondan qisilgan, usti va pastining orasi bir oz ochilib turadi. Qanotining uchi 2-3-katta qoquv patlari bilan tugaydi.

O'zbekiston faunasida dehqonchumchuqlar (*Овсянка*) - *Emberiza L.* urug'ining turlari tarqalgan.

Dehqonchumchuqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Sevkasi 23 mm dan uzun.

Tariqxo' r dehqonchumchuq (Просянка) - Emberiza calandra L.

O'zbekistonda uya quradi hamda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

2 (1) Sevkasi 23 mm dan kalta.

3 (20) 2-5-katta qoquv patlarining tashqi yelpig'ichi uchiga tomon torayib boradi.

4 (13) Dumi ancha uzun, sevkasidan 3,5 martadan ortiq uzun.

5 (8) Qorin tomonida och sariq yoki sarg'ish rang bor.

6 (7) Dumining usti qizg'ish-qo'ng'ir. Birinchi katta qoquv pati 5-dan 5 mm dan ortiq uzun.

Oddiy dehqonchumchuq (Обыкновенная овсянка) - Emberiza citrinella L.

O'zbekistonda qishlaydi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

7 (6) Dumining usti boshqacha rangda. Birinchi va 5-katta qoquv patlarining uzunligi bir-biriga teng.

8 (5) Qorin tomonida sariq rang yo'q. Oqish yoki malla (qizg'ish) rang bo'lishi mumkin.

9 (10) Birinchi katta qoquv pati 5-dan 5 mm dan ortiq uzun. Boshining usti oq.

Oq qalpoqli dehqonchumchuq (Белошапочная овсянка) - Emberiza leucophaea Gmelin

Respublikamizda qishlaydi hamda qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

10 (9) Birinchi katta qoquv patining uzunligi 5-siga teng yoki undan kalta. Boshining usti oq emas.

11 (12) Qorni sarg'ish-jigarrang yoki qizg'ish.

Tog' dehqonchumchuqi (Горная овсянка) - Emberiza citra L.

O'zbekistonda tog'li tumanlarda uya quradi va qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

12 (11) Qorni oqish bo'lib, qizg'ish-qo'ng'ir dog'lari bor.
Stuart dehqonchumchug'i (*Осырка Смоарма*) – *Emberiza stewarti* Blyth.

Respublikamizda tog'li tumanlarda uya quradi.

13 (4) Dumi ancha kalta, sevkasidan 3.5 martadan ortiq uzun emas.

14 (15) Tomog'i oqish, mayda qora dog'lar bilan o'ralgan. Dumining ustki qoplovchi patlarining uchi qoramtir.

Bo'yinbog'li dehqonchumchug'i (*Ошейниковая осырка*) – *Emberiza fucata* Pallas.

Toshkent atrofidagi kuz oylarida uchraydi.

15 (14) Tomog'i boshqacha rangda. Dumining ustki qoplovchi patlarining uchi ham boshqacha rangda.

16 (19) Boshining usti qora yoki qoramtir-qo'ng'ir bo'lib, patlarining qirrasini qizg'ish, lekin boshining o'rtasidan oqish chiziq o'tmaydi.

17 (18) Qanotining ustki kichik qoplovchi patlari qizg'ish.

To'qay dehqonchumchug'i (*Камышовая осырка*) – *Emberiza schoeniclus* L.

O'zbekistonda asosan qishlaydi. Amudaryoning quyi oqimida uya quradi.

18 (19) Qanotining ustki kichik qoplovchi patlari kulrang, ba'zan uchlari qizg'ish bo'lishi mumkin, bo'yining orqasi oqish yoki boshining usti kulrang-qo'ng'ir.

19 (16) Boshining usti qora yoki qoramtir-qo'ng'ir, uning o'rtasidan va yon tomonlaridan oqish chiziq o'tadi.

20 (3) Faqat 2-4-katta qoquv patlari tashqi yelpig'ichlarining uchi qisqarib boradi.

21 (22) Dumining usti qora dog'li qizg'ish-qo'ng'ir rangda.

Bog' dehqonchumchug'i (*Садовая осырка*) – *Emberiza hortulana* L.

Respublikamizda faqat qushlar uchib o'tishi davrida uchraydi.

22 (21) Dumining usti qum - kulrang, orqasidagi dog'lar qoramtir-qo'ng'ir.

Qoya dehqonchumchug'i (*Каменная осырка*) – *Emberiza buchanani* Blyth.

Respublikamizda tog'li tumanlarda uya quradi.


23 (22) Tumshug'i qoramtir (muguz) rangda. Boshining usti qizg'ish-jigarrang. Dumining usti sarig'.

Sariq dehqonchumchug'i (*Желтый осырка*) – *Emberiza bruniceps* Brandt.

O'zbekistonda uya quradi va kelib ketadi.

SUTEMIZUVCHILAR SINFI – MAMMALIA

Sutemizuvchilar umurtqali hayvonlar ichida eng yuksak darajada rivojlangan bo'lib, xilma-xtl sharoitlarda yashashga moslashgan. Ular orasida suvda, yer ustida, yer ostida, daraxtlarda yashaydiganlari va uchishga moslashganlari bor. Sutemizuvchilarning oziqlanishi ham har xil. Ular o'txo'r, hasharotxo'r, baliqxo'r, go'shxo'r, o'limlikxo'r va hokazo bo'ladi. Tanasi jun, tukchalar, ninalar, tangachalar va boshqa epiteliy hositalari bilan qoplangan. Yashash sharoitiga qarab, oyoqlari ham har xil shaklda: uzun, kalta, kuraksimon, tuyoqli, qadoqli, ikki, uch, to'rt va besh barmoqli bo'ladi. Tishlari kurak, qoziq, soxta oziq va haqiqiy oziq tishlarga bo'linadi. Sutemizuvchilarni aniqlashda ularning quyidagi asosiy o'lchamlaridan foydalaniladi (39-40-rasmlar).



39-rasm. Mayda sutemizuvchilarning tana qismlarini o'lchash usullari: a-tanasining uzunligi; b-dumining uzunligi; d-tovonining uzunligi; e- qulog'ining uzunligi.


1. Gavdasining uzunligi:

a) mayda sutemizuvchilar – o'lchagich lenta yoki shtangensirkul yordamida tumshug'ining uchidan to orqa chiqaruv teshigigacha o'lchanadi;

b) yirik sutemizuvchilar (yirik yirtqichlar, tuyoqlilar) – tumshug'ining uchidan gavdasining usti bo'ylab dumining asosigacha o'lchanadi. Bunda o'lchagich lenta ishlatiladi.

2. Dumining uzunligi – uning asosidan uchigacha o'lchanadi (dumi uchidagi junlar hisobga olinmaydi).

3. Keyingi oyoq tovonining uzunligi (shtangensirkul yoki o'lchov lentasi bilan) – tovonning keyingi qirrasidan eng uzun barmog'ining uchigacha (tirmog'i hisobga olinmaydi) o'lchanadi.




40-rasm. Yirik sutemizuvchilarning tana qismlarini o'lchash usullari: 1-tanasining uzunligi; 2-dumining uzunligi; 3-tovonining uzunligi; 4-qulog'ining uzunligi; yag'rining balandligi; 6 – tanasining aylanasi; 7 – tanasi qorin qismining uzunligi; 8 –oldingi oyoq'ining uzunligi; 9-orqa oyoq'ining uzunligi; 10 – kaftining uzunligi.


4. Qulog'ining uzunligi – quloq suprasining pastki kesimi qirrasidan uchigacha (juni hisobga olinmaydi) o'lchanadi. Agar quloq suprasining kesimi qulog'ining asosidan yuqorida joylashsa, qulog'ining uzunligi uning asosidan uchigacha orqa tomonidan o'lchanadi.

Tuyoqli sutemizuvchilarni aniqlashda yana quyidagi o'ichovlar olinadi (40-rasm).

1. Yag'rin balandligi – oldingi oyog'i gavdasiga perpendikular cho'zilgan holda yolining uchidan tuyog'ining uchigacha lenta bilan o'lchanadi.
2. Tana aylanasini – oldingi oyoqlarining asosidan lenta bilan o'lchanadi.
3. Tanasining uzunligi – yelka-kurak bo'g'imidan quyumich bo'rtmasining keyingi do'mbog'igacha lenta bilan o'lchanadi.
4. Oldingi oyog'ining uzunligi – firsak do'mbog'ining uchidan tuyog'ining uchigacha tanaga nisbatan perpendikular holda cho'zib lenta bilan o'lchanadi.
5. Keyingi oyog'ining uzunligi – chanoq-son bo'g'imining dum-bog'idan tizza va tovon bo'g'imlari orqali tuyoqning uchigacha lenta bilan o'lchanadi.



- 41-rasm. Sutemizuvchilarning bosh skeletini o'lchash usullari:
- 1- bosh skeletining umumiy uzunligi; 2-bosh skeletining kondilobazal uzunligi; 3-bosh skeletining chakka kengligi; 4- bosh skeletining ko'zlar orasidagi masofa; 5-bosh skeleti miya qismining kengligi; 6-bosh skeleti burun qismining kengligi.




- 42-rasm. Sutemizuvchilarning bosh skeletini o'lchash usullari (davomi):
- 1-bosh skeletining balandligi; 2-pastki jag'ining balandligi; 3-yuqorigi jag'idagi tishlar qatorining alveolyar uzunligi; 4 pastki jag'idagi tishlar qatorining alveolyar uzunligi.

Sutemizuvchilarni sistemaga solishda va aniqlashda bosh skeleti va tishlari katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ularning bosh skeleti quyidagicha o'lchanadi (41-42-rasmlar):

1. Bosh skeletining umumiy uzunligi – bosh skeletining oldinga va orqaga qarab chiqib turgan nuqtalari orasidagi masofa.
2. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi – jag' oraliq suyaklarining oldingi qirrasidan ensa bo'rtmalarining keyingi yuzasigacha bo'lgan masofa.
3. Bosh skeletining chakka kengligi – chakka yoylarining chiqib turgan yon yuzlari orasidagi masofa.
4. Bosh skeletining ko'zlararo kengligi – ko'zlararo kenglikning eng tor joyi.
5. Bosh skeleti miya bo'limining kengligi – bosh skeleti miya bo'limining yon tomonlari o'rtasidagi masofa.
6. Bosh skeleti burun bo'limining kengligi – bosh skeletining qoziq tishlar orasidagi masofa.
7. Bosh skeletining balandligi – miya qismining eng uski va pastki qirralari orasidagi masofa.

6 (5) Oldingi oyoqlari qanotga aylanmagan. Barmoqlari tanasidan uzun emas.

7 (8) Odatda, qoziq tishlari uzunligi bilan boshqa tishlardan ajralib turadi. Yuqorigi jag'idagi kurak va qoziq tishlar orasida uncha katta bo'lmagan bo'shliq bor (45-rasm, d, e).



45-rasm. Har xil sutemizuvchilarning jag'laridagi tishlar:
a-tipratikanniki; b-yenotniki; d-tovushqonnik; e-sug'urniki;
1-tishsiz bo'shliq (diastema).

Yirtqichlar (Xuuptae) – Carnivora (190-bet).

8 (7) Tishlari boshqacha tuzilgan.
9 (2) Pastki jag'ida faqat ikki juft kurak tish bor. Qoziq tishlari yo'q. Yuqorigi jag'idagi kurak tishlar bilan oziq tishlar orasida tishsiz bo'shliq (diastema) bor (45-rasm, d, e).

10 (11) Yuqorigi jag'idagi birinchi juft kurak tishlarning orqasida kichik ustunchasimon bir juft kurak tishlar bor. Pastki jag'ining har tomonida 5 tadan oziq tish bor (45-rasm, d).

Tovushqonsimonlar (Zaiyueobraznyie) – Lagomorpha (174-bet).

11 (10) Yuqorigi jag'idagi birinchi juft kurak tishlar orqasida ustunchasimon juft kurak tishlar yo'q. Pastki jag'ining har tomonida 3-4 tadan oziq tish bor (45-rasm, e).

Keniruvchilar (Грызуны) – Rodentia (175-bet).

12 (1) Barmoqlarining uchida tuyoq bor. Burun suyaklari 10 sm dan uzun.

Juft tuyoqlilar (Парукопанные) – Artiodactyla (197-bet).

HASHAROTXO'RLAR TURKUMI (НАСЕКОМЯДНЫЕ) – INSECTIVORA

Bu turkumga tashqi ko'rinishi har xil bo'lgan mayda va o'rtacha kattalikdagi sutemizuvchilar kiradi. Oyoqlari besh barmoqli va barmoqlari uchida tirnog'i bor. Boshining burun qismi cho'zilib, xartumchaga aylangan. Tishlarining joylashishlariga uncha aniq bo'linmagan. Deyarli bir xil tuzilgan bo'ladi.

MDH faunasida hasharotxo'rlarning 38 turi tarqalgan bo'lsa, shulardan 6 tasi O'zbekistonda yashaydi. O'zbekistonda yashovchi hasharotxo'rlar 2 ta oilani tashkil etadi.

Hasharotxo'rlarning oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasining usti kalta, qattiq ignalar bilan qoplangan.

Tipratikanlar (Ежовые) – Erinaceidae (165-bet).

2 (1) Tanasining usti qorin tomoni singari qalin, yumshoq jun bilan qoplangan.

Yergazirlar (Землеройковые) – Soricidae (166-bet).

Tipratikanlar oilasi (Ежовые) – Erinaceidae

O'zbekistonda tarqalgan hasharotxo'rlar orasida tipratikanlar eng yirik hayvonlar bo'lib, tanasining usti qattiq ignalar bilan qoplangan, quloq va ko'zlarini yaxshi taraqqiy etgan.

O'zbekistonda quloqdor tipratikanlar (*Ушастые ежи*) – *Hemichinus Fitzinger* urug'ining turlari yashaydi.

Quloqdor tipraitikanlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Boshining ustida va ensa qismining o'rtasida ignasiz ochiq joy bor. Ignalari qoramtir.

Qora ignali tipraitikan (Темноногий ёксъ) – Hemiechinus hypomelas Brandt.

O'zbekistonning janubida, Nurotadan Termizgacha bo'lgan hududida tarqalgan.

2 (1) Boshining ustida va ensa qismining o'rtasida ignasiz ochiq joy yo'q, rangi ochiq.

Quloqdor tipraitikan (Ушасмый ёксъ) – Hemiechinus auritus Gmelin.

O'zbekistonning butun territoriyasida tarqalgan.

YERQAZIRLAR OILASI (ЗЕМЛЕРОЙКИ) – SORICIDAE

1 (4) Tanasining orqa tomoni bir xil rangda (kulrang, qora, qo'ng'ir), oq dog'i yo'q. Yuqorigi jag'ining har tomonida (kurak va oziq tishlar orasida) 3-5 tadan oraliq tishlari bor.

2 (3) Tanasi 47 mm dan uzun. Tovoni 10 mm dan uzun. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 14 mm dan ortiq. Yuqorigi jag'ining har tomonida 3 tadan (ba'zan 2 tadan) oraliq tishlari bor.

Oqtishlar (Белозубка) – Crocidura Wagler (197-bet).

3 (2) Tanasi 47 mm dan katta, tovoni 10 mm ga yetmaydi, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 14 mm dan kam. Yuqorigi jag'ining har tomonida 4 tadan oraliq tishlari bor.

Mitti oqtishlar (Многозубые белозубка) – Suncus Ehrenberg.

O'zbekistonning janubida Termiz atrofida nominal turi – *mitti oqtish (Капзукосая белозубка) – Suncus etruscus Savincoe* topilgan.

4 (1) Tanasining orqa tomoni, ikki xil rangda: kulrangning o'rtasida oq dog' bor. Yuqorigi jag'ining har tomonida 2 tadan oraliq tishlari bor.

Putoraklar – Diplomesodon Brandt.

Bittagina ola putorak – Diplomesodon pulchellum Licht. turi bo'lib.

O'zbekistonda asosan Qizilqumda tarqalgan.

Oqtishlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Keyingi oyog'ining tovoni 12 mm ga yetmaydi, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 17,5 mm dan kam.

Kichik oqtish (Малая белозубка) – Crocidura suaveolens Pallas. Amudaryoning quyi oqimida, Zarafshon, Sirdaryo, Farg'ona, Chirchiq va Surxondaryo vodiylarida yashaydi.

2 (1) Keyingi oyog'ining tovoni 12 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 17,5 mm dan ortiq.

Oq orimli oqtish (Белооримая белозубка) – Crocidura leucodon Hermann.

Surxondaryo vodiysida ikki nusxa tutilgan.

KO'RSHAPALAKLAR TURKUMI (ПЫКОКРЫЛЫЕ) – CHIROPTEA

Qo'lqanoqlilar, ya'ni ko'rshapalaklar sitemizuvchilarning uchishga moslashgan guruhidir. Ular uzun barmoqlari orasida joylashgan, oldingi va keyingi oyoqlarini hamda dumini tutashirib turuvchi yupqa teri parda yordamida uchadi. Keyingi oyoqlarining tovonida tog'ay, ya'ni «pixi» bo'lib, unga uchish pardasining keyingi qirrasini tutashgan bo'ladi. Quloq suprasi katta va ichida, odatda teri bo'rtmasi bo'ladi.

MDH da ko'rshapalaklarning 40 ta turi bo'lib, shulardan 19 tasi O'zbekistonda uchraydi, ular uchta oilaga mansub. Bularning hammasi ko'rshapalaklar – Microchiroptera kenja turkumiga kiradi.

Ko'rshapalaklarning oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Boshining yuz qismida murakkab shakldagi teri bo'rtmasi bor. Quloq suprasining uchlari o'tkirlashgan. Pastki jag'ida faqat 2 juft kurak tishlari bor. Bosh skeletining burun qismi ustida suyak bo'rtmasi bor.

Taqabur-unlar (Покошочоку) – Rhinolophidae (168-bet).

2 (1) Boshining yuz qismida murakkab teri bo'rtmasi yo'q. Pastki jag'ida 3 juft kurak tishlari bor. Bosh skeletining burun qismi ustida suyak bo'rtmasi yo'q.

3 (4) Dumini ingichka, butunlay yoki oxirgi 1-2 umurtqalaridan tashqari hammasi uchish pardasi bilan o'ralgan. Yuqorigi labida osilgan

teri bo'rtmasi yo'q. Yuqorigi jag'ida, odatda, 2 juft kurak tishi bor (agar bir juft bo'lsa, oldingi soxta oziq tishlari bo'lmaydi).

Silliq burunilar (Гладконосые или обыкновенные летучие мыши) — *Vespertilionidae* (169-bet).

4 (3) Dumining taxminan yarmi uchish pardasidan tashqarida joylashadi. Yuqorigi lab osilib turadigan burma hosil qiladi. Yuqorigi jag'ida faqat bir juft kurak tishi bor. Yuqorigi jag'ining oldingi soxta oziq tishi yaxshi rivojlangan.

Buldog ko'rsharalaklar (Бульдоговые летучие мыши) — *Molossidae* (174-bet).

Тақабурунли ko'rsharalaklar oilasi (Подковоносы) — *Rhinolophidae*

Dumi ingichka va kalta, uchish pardasidan tashqariga chiqmaydi. Tumshug'ida murakkab teri burmalari bor. Teri bo'rtmalari uch qismdan iborat: taqaburun teshiklarining oldida va yon tomonlarida lanseta — uchturchak bo'lib, peshanasida va egar-taqa, lanseta oraliq'ida joylashgan. Kurak tishlari faqat bir juft.

MDH da va O'zbekistonda taqaburunlar *Rhinolophus* *Lecepede* urug'ining turlari tarqalgan.

Тақабурунлар urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) O'lchami katta, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 19 mm dan ortiq, yuqorigi jag'ining tishlar qatori 7,5 mm dan oshadi, yelka oldi qismi 53 mm dan uzun.

Katta taqaburun (Большой подковонос) — *Rhinolophus ferrugineum* *Schreber*.

Toshkent atrofida, Nurota, Turkiston tizma tog'larida, Qo'xitangda va Surxondaryo vodiysida yashaydi.

2 (1) O'lchami kichik, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 19 mm ga yetmaydi, yelka oldi qismining uzunligi 53 dan kam.

3 (4) Tanasining uzunligi 40 mm ga yetmaydi, yelka oldi qismi 42 mm dan kam. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 15,5 mm dan oshmaydi. Yuqorigi jag' tishlarining qatori 5,8 mm ga yetmaydi.

Kichik taqaburun (Малый подковонос) — *Rhinolophus hipposideros* *Bechstein*.

Nurota tog'laridagi g'orlarda va Bo'stonliq tog'larida yashaydi.

4 (3) Tanasining uzunligi 40 mm dan oshadi, yelka oldi 43-53 mm, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 15,5-18,5 mm, yuqorigi jag' tishlar qatori 7,5 mm dan kam.

Buxoro taqaburuni (Бухарский подковонос) — *Rhinolophus bocharicus* *Kastsch et Akim*.

Chirehqi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sirdaryo va Zarafshon vodiysidagi g'orlarda yashaydi.

Silliq burunli ko'rsharalaklar oilasi (Гладконосые) — *Vespertilionidae*

Kichik va o'rta katta kattalikdagi ko'rsharalaklardir. Uzun va ingichka dumi butunlay yoki asosi bilan uchish pardasi ichiga joylashgan. Keyingi oyoqlarida tog'ayli yoki suyakli «pixi» bor. Quloq suprasining uchlari yumaloqlashgan.

Silliq burunlilarning urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Quloq supراسi juda katta bo'lib, uzunligi bilagining (tirsak-bilak qismi) uzunligiga teng. Uning ichki yuzasi asosida oldinga qaragan teri bo'rtmalari va ko'ndalang burmalar bor (46-rasm, a).

Shalpaguloqlar (*Yucas*) — *Placotus* *Geoffroy*.

MDH da va O'zbekistonda faqat bitta nominal turi — *shalpaguloq* — *Placotus auritus* *L.* tog'li tumanlarda, g'orlarda uchraydi.

2 (1) Quloq supراسi juda kichik va bilagidan ancha katta. Uning ichki yuzasida teri bo'rtmalari va ko'ndalang burmalar yo'q.


3 (4) Peshanasining ustida quloq supراسining ichki qirralari qo'shilgan. Burni bilan ko'zi orasida junsiz ochiq joy bor. Quloq supراسi serbar (46-rasm, b).

Kenguloqlar (*Широкоушкы*) — *Barbastelle* *Gray*.

O'zbekistonda bitta turi — *Osiyo kenguloqi* (*Azuamskaya uropokoyska*) — *Barbastella leucomelas* *Cretschm* uchraydi. U Toshkent, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida yashaydi.

4 (3) Peshanasining ustida quloq supراسining asosi qo'shilmagan va serbar oraliq bor. Burni bilan ko'zi orasi jun bilan qoplangan.

5 (6) Quloq supراسi 30 mm dan uzun. Quloqlarining uchi o'tkirlashgan. Yuqorigi jag'ida bittadan kurak tishi bor.



46-rasm. Shaipangquloq (a) bilan kengquloqning (b) bo'lishi:
1 - teri bo'rtmasi; 2 - quloq uchi oldidagi yelkan.

O'qquloqlar (Cmpeloxu) - Otonycteris Peters.

MDH da va O'zbekistonda bitta turi — oq qorinli o'qquloq (*Belobrixuü cnpelox*) — *Otonycteris henprichi Peters* uchraydi. Bu tur Toshkent, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

6 (5) Qulog'i 30 mm dan kalta. Quloqlarining uchi yumaloqlashgan. Yuqorigi jag'ida ikkitadan kurak tishi bor.

7 (8) Qanotining qo'ltiq qismi qalin jun bilan qoplangan. Oldingi oyog'i uchinchi barmog'ining metakarpal (asosiy) suyagi beshinchi barmog'ining shunday suyagidan 8 - mm uzun. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 15 mm dan ortiq.

Shomshapalak (Bevepnyuy) - Nyctalus Bowiden.

O'zbekistonda, Toshkent va Samarqand viloyatlarida *malli shomshapalak (Paxxa eaevepnyuy) - Nyctalus noctula Schreber* degan turi uchraydi.

8 (7) Qanotining qo'ltiq qismi junsiz yoki juda siyrak junli bo'ladi. Oldingi oyog'i uchinchi barmog'ining metakarpal suyagi beshinchi barmog'inikiga teng. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 15 mm dan kam.

9 (10) Yuqorigi jag'ida 2 tadan kichik oldingi oziq tishlari bor.

Tunshapalaklar (Hoychnuy) - Myotis Kaup(171-bet).

10 (9) Yuqorigi jag'ida bittadan kichik oldingi oziq tishlari bor.

Kojarlar va netopirlar (Koxany u nemonyuy) - Vesperugo L.(172-bet).

Tunshapalaklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) O'lchami katta. Yelka oldi 53 mm dan uzun. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 19 mm dan kam emas.

O'tkir quloqli tunshapalak (Ocmopyuxa hoychnuy) - Myotis blathi Temes.

O'zbekistonning tog'li zonalari pastida, Toshkent atrofiga, Nurota, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida tarqalgan.

2 (1) O'lchami kichik. Yelka oldi 53 mm dan kalta. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 19 mm ga yetmaydi.

3 (4) Qanot pardasining erkin qirrasidan yuqoriga (orqa oyog'i tashqi barmog'ining asosidan ancha yuqoriga) birikkan.

Uzun barmoqli tunshapalak (Dunnoyuxa hoychnuy) - Myotis capaccinii Bonaparta.

Amudaryoning quyi oqimida va Nukusda topilgan.

4 (3) Qanot pardasining erkin qirrasidan orqa oyog'i tashqi barmog'ining asosiga yaqin birikkan.

5 (8) Dumi 45 mm dan kalta.

6 (7) O'lchami o'rtacha. Yelka oldi 39-43,5 mm, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 14,8-16 mm. Tanasining ustidagi jun uch xil rangda.

Uch rangli tunshapalak (Trexuyemyay hoychnuy) - Myotis emarginatus Geoffroy.

Chirchiq va Surxondaryodagi g'orlarda koloniya bo'lib yashaydi.

7 (6) O'lchami kichik. Yelka oldi 39 mm dan kalta. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 14,3 mm dan oshmaydi. Tanasining ustidagi juni ikki xil rangda.

Mo'yilabli tunshapalak (Ycamay hoychnuy) - Myotis mystacinus Kuhl.

O'zbekistonda Farg'ona vodiysida, Toshkent va Samarqand viloyatlarida topilgan.

8 (5) Dumi 45 mm dan uzun. Boshi va gavdasiga nisbatan uzunlik qiladi.

Uzun dumli tunshapalak (Dunnoyuxosmay hoychnuy) - Myotis frater G.Allen.

Samarqand atrofidagi g'orlardan topilgan.

Kojarlar va netopirlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (4) Yuqorigi jag'ida oldingi kichik soxta oziq tishi bor. Dumining uchi son oraliq pardasidan 2-3 mm chiqib turadi, yelka oldi 37 mm, bosh skeletining konilobazal uzunligi 13,4 mm ga yetmaydi.
- 2 (3) Yuqorigi jag'ining keyingi keskich tishi ikki ayri. Qanot va son oraliq pardalarining erkin qirralari oq emas.

Miti netopir (Hemonьpь kapлuk) – Vespertilio pipustrellus Schreber.

Respublikamizning shimoliy tumanlarida (Xiva, Nukus, Ustyurt, Qizilqumda), Nurotada, Karmana, Buxoro, Surxondaryo va Farg'ona atroflarida tarqalgan.

- 3 (2) Yuqorigi jag'ida keyingi qoziq tishi bor, uchli. Qanot va son oraliq pardalarining erkin qirralari oq.

O'ra dengiz netopiri (Средиземноморский немоньpь) – Vespertilio kihli Kuhl

O'zbekistonda faqat Xiva atrofiga topilgan.

- 4 (1) Yuqorigi jag'ida oldingi kichik soxta oziq tishi yo'q. Dumining uchi son oraliq pardasidan 4-5 mm chiqib turadi. Yelka oldi 41 mm, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 13,9 mm dan ortiq.

- 5 (6) Yuqorigi jag'idagi tashqi kurak tishi nisbatan yirik: uning uchi ichki kurak tishining o'rtasigacha yetadi. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 14,2 mm ga yetmaydi. Yelka oldi 33-40 mm.

Kojansimon netopir (Кожановидный немоньpь) – Vespertilio savil Bonaparte.

Boysun qishlog'i yaqinida Ko'hitang tog'idan topilgan.

- 6 (5) Yuqorigi jag'idagi kurak tishi mayda, uchi ichki kurak tishining o'rtasigacha yetib bormaydi. Yelka oldi 41 mm dan kam emas.

- 7 (8) Epiblemasi yaxshi taraqqiy etgan va ko'ndalang tog'ay to'sig'i bor. Kalta oq yoki sarg'ish-oqish rangdagi orqa junlarining uchi jigarrang yoki qoramtir, orqasiga kumushdek tus berib turadi.

Ikki rangli kojar (Двухцветный кожар) – Vespertilio murinus L.

Nurota tog'larida, Boysun tumanida va Toshkent atrofiga yashaydi.

- 8 (7) Epiblema o'rnida sermuskul ko'ndalang tog'ay to'siqsiz bo'rtna bor. Orqasi deyarli bir xil, kumushrang tusi yo'q. Urg'o-chilarining bir juft emchagi bor.

- 9 (10) O'lchami o'rtacha, yelka oldi 42-46 mm, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 14,7-17 mm, chakkasining kengligi 10,4-11,7 mm.

Ognev kojari (Кожар Огнева) – Vespertilio ognevi Bobrinskiy.

Ko'hitangda va Qizilqumda yashaydi.

- 10 (9) O'lchami katta, yelka oldi 48,5-55,5 mm, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 19-21 mm, chakkasining kengligi 13-15 mm.

Kechki kojar (Поздний кожар) – Vespertilio serotinus Schreber.

Xiva vohasida, Nukus atrofiga, Qizilqum, Surxondaryo, Zarafshon, Toshkent va Farg'ona vodiysida tarqalgan.

BULDOG KO'RSHAPALAKLAR OILASI (БУЛЬДОГОВЫЕ) – MOLOSSIDAE

Qanoti juda uzun, uchi o'tkir, yo'g'on, muskuldor, dumi keyingi oyog'idan uzun. Tumshug'ida muskulli o'sinta bo'lmaydi. Kozelogni ning uchi jun bilan qoplangan. Katta quloqlari deyarli bir-biriga tegib turadi. MDH va O'zbekiston faunasida bitta – *qat-qat lab urug'i – Tadarida Raf.* va *keng qulog'li qat-qat lab (ушикокрылú cтáдучамо-зуб) – Tadarida tentotis Raf.*turi uchraydi. Buxoro atrofiga va Bobotog'da yashaydi.

TOVUSHQONSIMONLAR TURKUMI (ЗАЙЦЕОБРАЗНЫЕ) – LAGOMORPHA

Kichik va o'rtacha kattalikdagi kemiruvchilarga o'xshash bo'lib, oldingi oyoqlari besh barmoqli, keyingi oyoqlari to'rt barmoqli bo'ladi. Dumi kalta, qulog'i katta va uzun yoki yumaloq.

Yuqorigi jag'ida ikki juft kurak tishi bor. Bulardan oldingilari juda yirik. Bularning orqa tomonida bir juft mayda ustunsimon kurak tishi bor. Pastki jag'ida faqat bir juft katta kurak tishi bo'ladi.

Tovushqonsimonlar turkumining oilalarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Dumi nihoyatda kalta, junining ostida joylashgan. Quloqlari nisbatan kalta va yumaloq shaklda. Tanasining uzunligi 250 mm dan kam.

Dumsiz sichqonlar (Пухуховые) – Ochotonidae(175-bet).

- 2 (1) Dumi junidan ancha chiqib turadi. Quloqlari cho'ziq va uzun. Tanasi 350 mm dan uzun.

Tovushqonlar (Зайцевые) – Leporidae (175-bet).

Dumsiz sichqonlar oilasi (Пищуховые) – Ochotonidae
Oyoqlari kalta, keyingi oyoqlari oldingilaridan taxminan 2 baravar uzun. O'zbekistonda tog'li tumanlarda dumsiz sichqonlar – *Ochotona L. (Пищуха)* urug'i va *dumsiz qizil sichqon (Красная пищуха) – Ochotona rutila Severtzevi* turi yashaydi.

Tovushqonlar oilasi (Зайцевые) – Leporidae

Nisbatan yirik, oyoqlari va quloqlari ancha uzun. Dumi yaxshi taraqqiy etgan hayvonlar.

O'zbekistonda deyarli hamma joyda tovushqonlar urug'ining bitta turi – *qum tovushqoni (Заяц-молай, или несчанук) – Lepus tolai Pallas* tarqalgan.

KEMIRUVCHILAR TURKUMI (ГРЫЗУНЫ) – RODENTIA

Yuqorigi jag'ida bir juft kurak tishi bor. Kichik va o'rtacha kattalikdagi hayvonlar hisoblanadi. MDH faunasida kemiruvchilarning 11 ta, O'zbekiston faunasida 8 ta oilasining vakillari yashaydi.

Kemiruvchilar turkumining oilalarini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasining usti uzun va yo'g'on (uzunligi 30 sm gacha) tikan bilan qoplangan.

Jayralar (Дикобразовые) – Histrionicidae (176-bet).

2 (1) Tanasining usti jun bilan qoplangan.

3 (4) Dumi yon tomondan qisilgan. Keyingi oyoq barmoqlari orasida suzgich parda bor. Tanasi 500 mm dan uzun.

Nutriyalar – Myocastoridae (176-bet).

4 (3) Dumi yumaloq. Keyingi oyoq barmoqlari orasida suzgich parda yo'q. Agar suzgich pardasi bo'lsa, tanasining uzunligi 300 mm dan oshmaydi.

5 (6) Peshana suyaklarida orqaga va tashqariga qaragan, yaxshi rivojlangan o'tkir ko'z orti o'simtalari bor. Pastki jag'ida 4 ta dan, yuqorigi jag'ida 5 tadan oziq tishi bor, ba'zan yuqorigi jag'idagi tishlari juda mayda bo'ladi. Bu holda bosh skeleti 40 mm dan uzundur.

Olmaxonlar (Тынка - Белуха) – Sciuridae (177-bet).

6 (5) Peshana suyagining ko'z orti o'simtalari yo'q. Yuqorigi jag'ida haqiqiy oziq tishlar 4 ta dan ko'p bo'lmaydi. Bosh skeleti 40 mm dan oshmaydi.

7 (8) Pastki jag'ida 4 ta dan haqiqiy oziq tishi bor. Dumi qalin jun bilan qoplangan va yon tomonga qaratilgan. Juni dum o'zagining diametridan uzun.

Sonyalar – Gliridae (179-bet).

8 (7) Pastki jag'ida 3 tadan haqiqiy oziq tishi bor. Dumi yo'qilli halqasimon teri tangachalar bilan yoki kalta jun bilan qoplangan. Ba'zan dumining uzun cho'tkchasi bo'ladi. Dumini qoplagan jun dum o'zagining diametridan kalta.

9 (10) Keyingi oyoqlari oldingi oyoqlaridan 3-4 marta uzun. Keyingi oyoqlari 3 yoki 5 barmoqli. Agar keyingi oyoqlarida 5 ta dan barmoq bo'lsa, chetdagilarining tirnog'i uchta o'rtta barmoqlarining asosigacha yetmaydi.

Qo'shoyoqlar (Тушканчики) – Dipodidae (179-bet).

10 (9) Keyingi oyoqlari oldingi oyoqlariga nisbatan 2-2,5 marta dan ortiq uzun emas. Keyingi oyoqlari 5 barmoqli. Yon barmoqlarining tirnog'i o'rtta barmoqlarining asosidan chiqib turadi. Yuqorigi jag'ida 3 ta dan haqiqiy oziq tishi bor.

Sichqonlar (Мышьюе) – Muridae.

JAYRALAR OILASI

(ДИКОБРАЗОВЫЕ) – HYSTRICIDAE

Quruqlikda yashaydigan yirik kemiruvchi hayvonlar bo'lib, terisi uzun va yug'on ignalar bilan qoplangan.

MDH va O'zbekiston faunasida *jayralar – Hystrix L. (Дикобразы)* urug'i va *Hind jayrasi (Индийский дикобраз) – Hystrix indica Kerr* turi keng tarqalgan.

Nutriyalar oilasi – Myocastoridae

Quruqlikda va suvda yashaydigan yirik kemiruvchi hayvonlardir. Uzun dumi kalta jun va tangachalar bilan qoplangan, keyingi oyoqlari ancha uzun va baquvvat bo'lib, 4 ta barmog'i suzgich parda bilan qoplangan. Bularning asosiy vatani Janubiy Amerika, bizda iqlimlash-tirilgan hayvon hisoblanadi.

Urug'i *nutriyalar – Myocastor Kerr*, turi *nutriya – Myocastor coypus Molina*. Maxsus hayvonotchiilik fermalarida mo'ynasi uchun boqiladi.

Olmaxonlar (tiynlar) oilasi (Беличьи) – Sciuridae

Kichik va o'rtacha kattalikdagi kemiruvchi hayvonlardir. Keyingi oyoqlari oldingi oyoqlaridan 2-2,5 marta dan ortiq uzun emas. Dumi doim jun bilan qoplangan. Peshana suyagida orqaga va yonga qaragan o'tkir o'simalari bor. O'zbekistonda bu oilaning 3 ta urug'ining turlari tarqalgan.

Olmaxonlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) O'lchami katta, tanasining uzunligi 390 mm dan ortiq, tovoni 65 mm dan uzun, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 75 mm dan kam emas. Yuqorigi jag'ining oziq tishlar qatori 18 mm dan uzun.

Sug'urilar (Cypku) – Marmota Frisch(178-bet).

2 (1) O'lchami kichik, tanasining uzunligi 380 mm dan kam, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 63 mm ga yetmaydi, yuqorigi jag'ining oziq tishlar qatori 17 mm dan kam.

3 (4) Barmoqlari va timoqlari uzun 10 mm dan ortiq. Oldingi oyoq barmoqlari uzun junli.

Ingichka barmoqli yumronqoziqlar (Тонконогие суслики) – Spermophilopsis Blasius.

O'zbekiston janubiy cho'l tumanlarida nominal turi – *Spermophilopsis leptodactylus Licht* yashaydi.

4 (3) Barmoqlari va timoqlari nisbatan kalta (oldingi oyoq barmoqlarining timog'i 10 mm ga yetmaydi). Orqa oyoq'ining chetki barmoqlarida uzun jun tutami yo'q.

Yumronqoziqlar (Суслики) – Citellus Oken(178-bet).

Sug'urilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dumi (uchidagi junlari bilan) tanasi uzunligining yarmiga teng. Qorin tomonining rangi orqasining rangidan deyarli farq qilmaydi.

Uzun dumli yoki qizil sug'ur (Длиннохвостый цыпок) – Marmota caudata Geoffroy.

Hisor tizma tog'larining janubiy etaklarida va Boysun tog'larida yashaydi.

2 (1) Dumi tanasi uzunligining yarmiga yetmaydi. Qorin tomonining rangi och kulrang, ustining rangi qoramtir (ayniqsa, boshning orqasi va bo'yin qismi).

Ko'k sug'ur (Цыпок Мензбира) – Marmota menzbieri.

Talas Olatovi, Ugam, Chotqol vodiylarida tarqalgan.

Yumronqoziqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Dumining uzunligi tanasi uzunligining $\frac{1}{4}$ dan oshmaydi. Tovoni 34 mm dan, tanasi 210 mm dan, bosh skeleti 42 mm dan uzun.

2 (3) Tanasining usti sarg'ish-qum rangida, lekin qoramtir juni bo'ladi.

Sariq yoki qum yumronqozig'i (Желтый суслик) – Citellus fulvus Licht.

Respublikamizda deyarli hamma joyda tarqalgan.

3 (2) Tanasining usti kulrang, bu fonda aniq ko'rinib turgan kulcha dog'lar bor.

Relikt yoki Tyan-Shan yumronqozig'i (Реликтовый суслик) – Citellus relictus Kaschkarov.

Toshkent viloyatida, Olatovda, Hisor tizma tog'larining g'arbiy tomonlarida tarqalgan.

4 (1) Dumining uzunligi tanasi uzunligining $\frac{1}{4}$ dan kam. Tovoni 34 mm dan, tanasining uzunligi 210 mm dan, bosh skeleti 42 mm dan kam.

Kichik yumronqozig' – Citellus pygmaeus Pallas
Bizda faqat Ustyurtda uchraydi.

Sonyalar oilasi – Gliiridae

Kichik va o'rtacha kattalikdagi kemiruvchilar hisoblanadi. Yuqorigi va pastki jag'ining har tomonida 4 tadan oziq tishi bo'ladi. Daraxtlarda uya quradi. O'zbekiston faunasida o'ymon olmaxonlari (*Лесные кони) – Dryomys Thomas* urug'i va nominal turi – *Dryomys nitidula Pallas* tarqalgan. Asosan tog'li tumanlardagi daraxtzorlarda va qishloqlardagi bog'larda yashaydi.

Qo'shoyoqlar oilasi (Тушканчиковые) – Dipodidae

Kichik va o'rtacha kattalikdagi kemiruvchi hayvonlar. Sakrab yurishga moslashgan. Oldingi oyoqlari kalta va kuchsiz. Keyingi oyoqlari baquvvat, oldingi oyoqlaridan 4 marta dan ortiq uzun. Dumi uzun bo'lib, uchida, odatda, cho'tkasi bo'ladi.

Qo'shoyoqlar oilasining kenja oilalarini aniqlash jadvali

1 (4) Tanasining uzunligi 80 mm dan ortiq. Bosh ustining oraliq suyagi yaxshi rivojlangan (47-rasm, a,b,d,e,f).

2 (3) Keyingi oyoqlarida 5 tadan barmog'i bor. Yuqorigi jag'ining kurak tishlari pastga va oldinga qaragan.

Besh barmoqli qo'shoyoqlar (*Пятипалые мушканчики*) – *Allactaginae* (181-bet).

3 (2) Keyingi oyoqlari uch barmoqli. Yuqorigi jag'idagi kurak tishlarining uchi pastga ko'p egilgan.

Uch barmoqli qo'shoyoqlar (*Трехпалые мушканчики*) – *Dipodinae* (183-bet).

4 (1) Tanasining uzunligi 80 mm ga yetmaydi. Boshi ustining oraliq suyagi yo'lmaydi yoki yaxshi rivojlanmagan.

Mitti qo'shoyoqlar (*Карликовые мушканчики*) – *Cardiocraniinae* (184-bet).

Besh barmoqli qo'shoyoqlar kenja oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Quloqlari uzun bo'lib, oldinga bukilganda uchi tumshug'ining uchiga yetadi va undan oshadi. Dumining uchida yaxshi rivojlangan cho'tkasi bor Yuqorigi jag'ining har tomonida 4 tadan oziq tishi bor.

Besh barmoqli qo'shoyoqlar (*Земляные зайцы*) – *Allactaga F. Cuvier* (181-bet).


2 (1) Quloqlari kalta bo'lib, oldinga bukilganda uchi tumshug'ining uchiga yetib bormaydi. Dumining uchida yaxshi rivojlangan cho'tkachi yo'q. Yuqorigi jag'ining har tomonida 3 tadan oziq tishi bor.

3 (4) Dumi uzun. O'rtasi bir oz ingichkalashgan. Dumining uzunligi (uchidagi juni hisobga olinmaganda) 120-150 mm. Dumining uchida uncha rivojlanmagan «bayrog'i» bor. Tovonining uzunligi (tirnog'i hisobga olinmaganda) 45-50 mm, keyingi oyog'ining birinchi (ikki) barmog'i beshinchisidan uzun.

Yer tovushqonchalari (*Земляные зайчики*) – *Allactagulus Nehring* MDH va O'zbekiston faunasida bitta nominal turi cho'l zonasida tarqalgan.

4 (3) Dumi ancha kalta (110 mm ga yetmaydi), yo'g'onlashgan. Uchida «bayrog'i» yo'q. Tovonining uzunligi (tirnoqsiz) 45 mm ga yetmaydi. Keyingi oyog'ining birinchi barmog'i beshinchisidan kalta.

Yo'g'on dumli qo'shoyoqlar (*Толстоухосые мушканчики*) – *Pygerethmus Gloger*.



47-rasm. Har xil qo'shoyoqlarning bosh skeleti:
a- jun oyoqli qo'shoyoq; b – fixtsionshteyn qo'shoyog'i; d- besh barmoqli mitti qo'shoyoq; e – turkman qo'shoyog'i; d – taroq barmoqli qo'shoyoq.

Respublikamizning shimolidagi cho'llarda bu urug'ning nominal turi (*Толмоховосмия мушканчук*) – *Pygerethinus platyrus* Licht yashaydi.

Besh barmoqli qo'shoyoqlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (9) Uchta o'rta barmog'ining pastki tomonida uzun junlar yo'q. Dumidagi «bayrog'i» ikki (asosi qora, uchi oq) yoki uch xil rangda, asosi va uchi oq, o'rta qora.
- 2 (8) O'Ichami katta, tanasining uzunligi 120 mm dan, tovonning uzunligi 60 mm dan ortiq, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 330 mm dan ortiq.
- 3 (7) Dumidagi cho'tkasining oldingi qora qismidagi halqada oqish junlar yo'q. Yuqorigi soxta oziq tishi oxirgi haqiqiy oziq tishidan 2-3 marta kichik.
- 4 (8) Qulog'i uzun, oldinga bukilganda uchi tumshug'ining uchiga yetadi va undan oshadi. Tovoni 70 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 32 mm dan ortiq.
- 5 (6) Dumidagi cho'tkasi asosiy qismining pastki tomoni qora. Tovoni 85 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 41 mm dan uzun.

Katta qo'shoyoq (*Большой мушканчук*) – *Allactaga jaculus Pallas*.

Respublikamizdagi cho'l tumanlarda tarqalgan.

- 6 (5) Dumidagi cho'tkasi asosiy qismining pastki qora tomondan ingichka oqish chuziq o'tadi. Tovoni 85 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 41 mm dan kalta.

Seversov qo'shoyog'i (*Мушканчук Северцова*) – *Allactaga severtzovi Vinogradov*.

Ustyurt, Qizilqum, Mirzacho'l, Samarqand, Buxoro va Qarshi cho'llarida va respublikamizning janubida yashaydi.

- 7 (3) Cho'tkasi qora qismining oldida dumining tanasi 3-4 sm masofada oq jun bilan qoplangan bo'lib, oqish halqa hosil qiladi. Yuqoridagi oldingi oziq tishi oxirgi tishi bilan bir xil kattalikda.

Sakrovchi qo'shoyoq (*Мушканчук-прыгун*) – *Allactaga saltator Eversmann*.

O'zbekistonda cho'l zonalarida tarqalgan.

- 8 (4) Qulog'i kalta, oldinga bukilganda uchi tumshug'ining uchiga borib yetmaydi. Tanasining uzunligi 120 mm ga, tovonni 60 mm ga va bosh skeletining kondilobazal uzunligi 30 mm ga yetmaydi.

Kichik qo'shoyoq (*Малый мушканчук*) – *Allactaga elater Licht*

Respublikamizda tekisliklarda tarqalgan.

- 9 (1) O'rta barmoqlarining pastki tomoni qalin qilsimon jun bilan qoplangan. Dumining cho'tkasi bir xilda kulrang.

Bobrinskiy qo'shoyog'i (*Мушканчук Бобринского*) – *Allactaga bobrinskii Kolesnikov*.

O'zbekistonda cho'l zonalarda yashaydi.

Uch barmoqli qo'shoyoqlar kenja oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (2) Dumining uchi qoramtir, cho'tkasi yo'q. Keyingi oyoq barmoqlarining pastki cheti qora rangdagi egilgan siyrak jun bilan qoplangan.

Yemuranchiklar (*Емуранчуку*) – *Scirtopoda Brandt*.

Turi oddiy yemuranchlik (*Емуранчук обыкновенный*) – *Scirtopoda telum Licht*.

O'zbekistonda cho'l zonalarda yashaydi.

- 2 (1) Dumining uchidagi oqish cho'tkasi yaxshi rivojlangan, keyingi oyoq barmoqlarining pastki yuzasi zich va to'g'ri jun bilan qoplangan.

- 3 (4) Qurak tishlarining oldingi yuzasi sariq. Yuqorigi jag'ining ikkala tomonida 4 tadan oziq tishi bor.

Jun oyoqli qo'shoyoqlar – *Dipus Gmelin*.

Turi jun oyoqli qo'shoyoq (*Мохноногий мушканчук*) – *Dipus sagitta Pallas*. Qizilqum va Qarshi cho'llarida yashaydi.

- 4 (3) Kurak tishlarining oldingi yuzasi oq. Yuqorigi jag'ining ikkala tomonida 3 tadan oziq tishi bor.

- 5 (6) Keyingi oyoq barmoqlarining pastki yuzasi mayin jun bilan qoplangan, qulogi 32 mm dan uzun.

Taroq barmoqli qo'shoyoqlar (*Прёбнелые мушканчуку*) – *Paradipus Vinogradov*.

Turi taroq barmoqli qo'shoyoq (*Прёбнелый мушканчук*) – *Paradipus stenodactylus Vinogradov*. Qizilqum cho'llarida yashaydi.

- 6 (5) Keyingi oyoq barmoqlarining pastki yuzasi bir xil ingichka va yumshoq tuk bilan qoplangan. Qulog'i 32 mm dan kalta.

Qum qo'shoyoqlari (Песчаные мушкетеры) – Jaculus Erxleben (183-bet).

Qum qo'shoyoqlari urug'ining turlarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Tovoni 60 mm dan, qulog'i 25 mm dan uzun.
Turkman qo'shoyog'i (Туркменский мушкетер) – Jaculus turkmenicus Vinogradov et Bondar.
- Respublikamizning janubidagi cho'llarda uchraydi.
- 2 (1) Tovoni 55 mm dan, qulog'i 20 mm dan katta.
Lixenshteyn qo'shoyog'i – Jaculus lichtensteini Vinogradov
Qizilqum cho'llarida yashaydi.

Mitti qo'shoyoqlar kenja oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (2) Keyingi oyog'i besh barmoqli. Dum 80 mm ga yetmaydi.
Besh barmoqli mitti qo'shoyoqlar (Пяпмалые карликовые мушкетеры) – Cardioeranius Satunin.
Turi besh barmoqli mitti qo'shoyoq (Пяпмалый карликовый мушкетер) – *Cardioeranius paradoxus Satunin.*
- 2 (1) Keyingi oyog'lari uch barmoqli, dum 80 mm dan uzun.
Uch barmoqli mitti qo'shoyoqlar (Трехпалые карликовые мушкетеры) – Salpingnotus Vinogradov.
Turi uch barmoqli mitti qo'shoyoq (Трехпалый карликовый мушкетер) – *Salpingnotus crassicauda Vinogradov.* Cho'l zonasidan topilgan.

Sichqonlar oilasi (Мышьные) – Muridae

Ko'pchiligi kichik kemiruvchilar bo'lib, oldingi oziq tishlari bo'lib maydi. Yuqorigi va pastki jag'ining har ikkala tomonida 3 tadan oziq tishi bor. O'zbekiston faunasida uchraydigan sichqonlar 4 ta kenja oilaga kiritiladi.

Sichqonlar oilasining kenja oilalarini aniqlash jadvali

- 1 (2) Dumining uzunligi, odatda, tanasi uzunligining 70% dan ko'prog'ini tashkil qiladi. Dum yumaloq va teri tangachalar bilan qoplangan halqa hosil qiladi. Teri tangachalarining oxirida yakka-yakka joylashgan qattiq jumi bor.

Sichqonlar (Мышь) – Murinae (185-bet).

2 (1) Dumining uzunligi tanasi uzunligining 70% ni tashkil qilmaydi. Agar dum uzun bo'lsa, u zich jun bilan qoplangan. Bu junlar teri tangachalarini yopib tutadi (ondatdan tashqari). Dum yumaloq.

3 (4) Yuqorigi jag'ida kurak tishchalarining oldingi yuzasida bitla yoki ikkita egachasi bo'ladi. Dum tanasi uzunligining 70% ni tashkil qiladi, qalin jun bilan qoplangan.

4 (3) Yuqorigi jag'ida kurak tishchalarining oldingi yuzasi tekis. Dum tanasi uzunligining 70% ni tashkil qilmaydi.

5 (6) Yuqorigi jag'ida oziq tishlarining chaynash yuzasi tekis emas, bo'rtmali. Yemirilgan tishlarda ko'ndalang emal halqalar bo'ladi.

Olaxurjuntlar (Хазарские) – Criceinae.

Bu kenja oiladan O'zbekiston faunasida *olaxurjuntlar – Cricetus Milne Edward* urug'i va *kudrang olaxurjunt – Cricetus migratorius Pallas* turi uchraydi. O'zbekistonning shimolida (Ustyurda), Amudaryo vodiysida, Qizilqumda, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida, tog'larda va tog' etaklarida yashaydi.

6 (5) Yuqorigi jag'ida oziq tishlarining chaynash yuzasi yassi, bo'rtmasiz.

Dala sichqonlari (Полевка) – Microtinae (188-bet).

Sichqonlar kenja oilasining urug'larini aniqlash jadvali

- 1 (4) O'lchami kichik, tovoni 25 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 30 mm dan katta.
- 2 (3) Boshining ustidagi suyaklarining oldingi tashqi burchaklarida ingichka o'tkir o'simta hosil qiladi (48-rasm, a).

Uy sichqonlari (Полевая мышь) – Mus L.

Turi *uy sichqoni (Полевая мышь) – Mus musculus Pallas.*

Respublikamizda keng tarqalgan.

3 (2) Boshining ustidagi suyaklarining oldingi tashqi burchaklarida ingichka o'tkir o'simta hosil qilmaydi (48-rasm, b).


O'rmon sichqonlari (Лесная мышь) – Apodemus Kaup.

O'zbekistonda tog'li tumanlarda, o'rmon daryolari sohilida va bog'larda nominal turi – *o'rmon sichqoni (Лесная мышь) – Apodemus sibiricus L.* tarqalgan.

4 (1) O'lchami katta, tovoni 25 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 30 mm dan uzun.

5 (6) Dumining uzunligi tanasi uzunligining 2/3 qismidan oshadi. Chakkasining kengligi bosh skeleti kondilobazal uzunligining 55 % dan kamni tashkil qiladi.

Kalamushlar (Крысы) – Rattus Fischer(186-bet).



48-rasm. Uy (a) va dala (b) sichqonlarining bosh skeleti:
1 - bosh skeleti suyaklarining o'simtasi.

Plastinka tishli kalamushlar (Пластинчатозубые крысы) – Nesokia Gray.

Turi *plastinka tishli kalamush yoki nezokiya – Nesokia indica Gray et Hard.* Zarafshon va Amudaryo vodiylarida yashaydi.

Kalamushlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dumi tanasidan uzun. Dumida 200 dan oshiq tangachali halqalar bor. Keyingi oyog'ining barmoqlari orasida suzgich parda yo'q.
Turkiston kalamushi (Туркестанская крыса) – Rattus rattoides Hoogson.

O'zbekistonda keng tarqalgan.

2 (1) Dumi tanasidan kalta. Dumidagi tangachali halqalar 200 taga yetmaydi. Keyingi oyog'ining barmoqlari orasida suzgich parda bor.

Kulrang kalamush (Серая крыса – nactok) – Rattus norvegicus Berkenhout.

Toshkent atrofida, Angren, Chirchiq, Guliston suv havzalarida yashaydi.

Qumsichqonlar kenja oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Yuqorigi jag'idagi kurak tishlarining oldingi yuzasida uzunasiga joylashgan ikkitadan jo'yakcha bor. Yuqorigi jag'ining oxirgi oziq tishi deyarli ikkinchisiga teng.

Katta qumsichqonlar (Большой нечанус) – Rhombomys Wagner
Turi *katta qumsichqon (Большая нечануса) – Rhombomys opimus Licht.*

O'zbekistonda cho'l zonalarda keng tarqalgan.

2 (1) Yuqorigi jag'idagi kurak tishlarining oldingi yuzasida faqat bittadan jo'yakcha bor. Yuqorigi jag'idagi oxirgi oziq tishi ikkinchisining yarmiga teng.

Mayda qumsichqonlar (Малые нечанусы) – Meriones Illiger(187-bet).

Katta qumsichqonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) O'lchami kichik, tovoni 31 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 34 mm dan kam. Keyingi oyoqlarining tagi zich jun bilan qoplangan.

Tushki qumsichqon (Полуденная нечануса) – Meriones meridiannus Pallas.

O'zbekistonda qumli cho'llarda tarqalgan.

2 (1) O'lchami katta, tovoni 31 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 34 mm dan ortiq. Keyingi oyoqlarining tagi jun bilan qoplangan bo'lsa-da, o'rtasidan junsiz chiziq o'tadi.

3 (4) Orqa oyoqlari tagining o'rtasi qoramtir-qo'ng'ir jun bilan qoplangan bo'lsa, cheti oqish jun bilan qoplangan. Dumi ikki xil rangda: usti qo'ng'ir, tagi oqish.

Tamarisk qumsichqoni (Трещетниковая нечануса) – Meriones tamariscinus Pallas.

Respublikamizda to'qayzorlarda keng tarqalgan.

4 (3) Dumining asosi qizg'ish rangda. Qorim qismi kulrang tusda. Orqa yoqqlarining tagi och kulrang jun bilan qoplangan.

Qizil dumli qumsichqon (Краснохвостая мышька) — Meriones libycus Licht.

O'zbekistonda tog'larda va tekisliklarda tarqalgan.

Dala sichqonlar kenja oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Dumini yon tomondan kuchli qisilgan. O'lchami katta, tovoni 30 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 45 mm dan ortiq.

Ondatra — Ondatra Link.

Turi *ondatra* — *Ondatra zibethica L.* O'zbekistonda suv havzalarida yaxshi iqlimlashtirilgan.

2 (1) Dumini yumaloq. O'lchami kichik, tovoni 30 mm dan, bosh skeletining kondilobazal uzunligi 45 mm dan katta.

3 (6) Yuqorigi jag'idagi kurak tishlarining uchi pastga qaragan, oldingi yuzasi sarik.

4 (5) Dumining uzunligi tanasining yarmiga teng yoki undan uzun. Dumining usti tanasi orqasining rangi bilan bir xil yoki bir oz oqish.

Kulrang dala sichqonlar (Cepse noyeka) — Microtus Schrenk(189-bet).

5 (4) Dumining uzunligi tanasining yarmiga yetmaydi. Dumini ustining rangi tanasining ustiga nisbatan ancha oqish.

Tosh dala sichqonlar (Каменистая мышька) — Alticola Branford

O'zbekiston faunasida kumushrang *dala sichqon (Серебристая мышька) — Alticola roylei Gray* turi uchraydi. U tog'li tumanlarda tarqalgan.

6 (3) Yuqorigi jag'idagi kurak tishlari og'iz bo'shlig'idan oldinga chiqib turadi va oldinga qaragan bo'ladi. Ularning oldingi yuzasi oq.

Ko'rsichqonlar (Сычуговка) — Ellobius Fischer

Bu urug'dan O'zbekistonda *oddiy ko'rsichqon (Обыкновенная сычуговка) — Ellobius talpinus Pallas* turi tarqalgan.

Kulrang dala sichqonlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Bosh skeleti enli, chakkasining eni uzunligining yarmidan ortiq. Ko'zlari orasidagi masofa 3,3 mm dan ortiq.

2 (3) Dumining usti va osti oqish, tanasining usti, odatda, kulrang-oqish. Tovonida 5 ta qadog'i bor.

Jamoatchi dala sichqon (Общественная мышька) — Microtus socialis Pallas.

Respublikamizda tog' etaklarida va daryo sohillarida yashaydi.

3 (2) Dumining usti qoramtir yoki qo'ng'ir tusda, osti oqish yoki sarg'ish rangda. Tovonida 6 ta qadog'i bor.

Oddiy dala sichqon (Обыкновенная мышька) — Microtus arvalis Pallas.

O'zbekistonda tog'li tumanlarda yashaydi.

4 (1) Bosh skeleti ensiz, chakkasining eni uzunligining yarmiga yetmaydi. Ko'zlari orasidagi masofa 3,3 mm dan kichik.

5 (6) Tanasining uzunligi 120-150 mm, dumini 60 mm.

Kaspiy dala sichqoni (Каспийская мышька) — Microtus transcaespis Satunin.

Respublikamizda tog' etaklarida va tekisliklarda tarqalgan.

6 (5) Tanasining uzunligi 115 mm dan oshmaydi, dumini 43 mm ga yetmaydi.

7 (8) Dumini bir xilda oqish, uzunligi 35 mm ga yetmaydi. Bosh skeleti ensa qismining eni uzunligining yarmiga teng.

Afg'on dala sichqoni (Афганская мышька) — Microtus afghanus Thomas.

O'zbekistonning janubiy tumanlarida tarqalgan.

8 (7) Dumining rangi aniq ikki xil. Dumini 35 mm dan uzun. Bosh skeleti ensa qismining eni uzunligining yarmiga yetmaydi.

Archa dala sichqoni — Microtus carruthersi.

Turkiston va Zarafshon tizma tog'larida yashaydi.

YIRTQICHLAR TURKUMI (ХИЩНЫЕ) — CARNIVORA

Har xil kattalikdagi yirtqichlar, oyoqlari 4 yoki 5 barmog'i bo'lib, ilmoqsimon baquvvat tirnoq bilan tugaydi.

Yuqorigi jag'ida 3ta, pastki jag'ida 3 ta yoki 2 ta qoziq tishi bor. Ular yirik va konussimon bo'ladi.

Yuqorigi jag'idagi oxirgi soxta oziq tishi bilan pastki jag'ining birinchi haqiqiy oziq tishi ajralib turadi va yirtqich tishlar deyiladi.

MDH va O'zbekiston faunasida uchraydigan yirtqichlar 5 oilaga mansub.

Yirtqichlar turkumining oilalarini aniqlash jadvali

1 (6) Orqa oyoqlarida 5 tadan barmog'i bor.

2 (5) Dumi tovonidan uzun, tanasining uzunligi 1,5 m ga yetmaydi. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 170 mm dan kam.

3 (4) Dumida ko'ndalang joylashgan qoramtir halqalar yo'q. Barmoqlari ustidan jun bilan qoplangan. Yuqorigi jag'ining har tomonida bittadan haqiqiy oziq tishlari bor.

Susarlar (Кунь) – Mustelidae(191-bet).

4 (3) Dumida ko'ndalang joylashgan qoramtir halqalar bor. Oldingi oyog'ining barmoqlari junsiz, orqa oyog'ining barmoqlari siyrak jun bilan qoplangan. Yuqorigi jag'ining har tomonida ikkitadan haqiqiy oziq tishi bor.

5 (2) Dumi tovonidan kalta. Tanasining uzunligi 1,5 m dan ortiq. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 250 mm dan ortiq.

Ayiqalar (Медвежья) – Ursidae(193-bet).

6 (1) Orqa oyoqlarida 4 tadan barmog'i bor.

7 (8) Boshi yumaloq. Tumshug'i burun teshigiga qadar jun bilan qoplangan. Yuqorigi jag'ining har tomonidagi oziq tishlari 4 tadan ortiq bo'lmaydi.

Mushuklar (Котачья) – Felidae(194-bet).

8 (7) Boshi cho'ziq. Burun teshiklarining tashqi qirrasida junsiz teri chiziq bor. Yuqorigi jag'ining har tomonida 5-6 ta dan oziq tishi bor.

9 (10) Oldingi oyoqlari 5 barmoqli. Tanasining yon tomonida qora chiziqlar yo'q. Yuqorigi jag'ining har tomonida 6 ta dan oziq tishi bor. Pastki jag'ida 6-7 ta oziq tish bo'ladi.

Bo'ri (ti) simonlar (Собачья) – Canidae(196-bet).

10 (9) Oldingi oyoqlari 4 barmoqli. Tanasining yon tomonida qoramtir ko'ndalang chiziqlar bo'ladi. Yuqorigi jag'ining har tomonida 5 tadan, pastki jag'ida 4 tadan oziq tishi bor.

Sirtlonlar (Лисья) – Hyacnidae(193-bet).

Susarlar oilasi (Кунь) – Mustelidae

O'lchami kichik va o'rtacha kattalikdagi, tovonida va yarim tovonida yuruvchi yirtqich hayvonlar hisoblanadi. Oldingi va orqa oyoqlari 5 barmoqli bo'ladi.

Susarlar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Oldingi va orqa oyoqlarining barmoqlari yupqa suzgich parda bilan tutashgan. Yuqorigi jag'ining har tomonida 4 tadan, pastki jag'ida 3 tadan soxta oziq tishi bor.

Qunduzlar (Бобр) – Lutra Brisson

Turi *qunduz (Бобр)* – *Lutra lutra L.* Zarafshon va Surxon-daryodagi suv havzalarida yashaydi.

2 (1) Oldingi va keyingi oyoqlarining barmoqlari suzgich parda bilan tutashmagan. Yuqorigi va pastki jag'larining har tomonida 3 tadan yoki 4 tadan soxta oziq tishi bo'ladi.

3 (4) Quloq suprasi yo'q. Tanasining usti oqish, qorin tomoni qora. Pastki jag'ining har tomonida 4 tadan haqiqiy oziq tishi bor.

Asaxo'rlar (Медоедь) – Mellivora Storr

Turi *asaxo'r* – *Mellivora capensis Schreber*. Qoraqalpog'istonning Turkmaniston bilan chegaradosh qismida ba'zan uchraydi.

4 (3) Quloq suprasi yaxshi rivojlangan. Pastki jag'ining har tomonida 5-6 tadan oziq tishi bor.

5 (6) Boshining yon tomonida burnidan aniq ajralib turadigan qora yoki qora-qo'ng'ir chiziq o'tadi.

Bo'rsiqalar (Qashqirdoqlar – Барсык) – Meles Brisson

Turi *bo'rsiq (qashqirdoq – барсык)* – *Meles meles L.* O'zbekistondagi tog' o'rmonlarida va bog'larda yashaydi.

6 (5) Boshining yon tomonlarida ajralib turadigan qora chiziq yo'q.

7 (8) Yuqorigi labi va tumshug'ining uchi qo'ng'ir yoki jigarrang. Qulog'i 35 mm dan uzun. Quloq suprasi uchburchak shaklda, ko'kragida oqish dog'i bor. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 71 mm dan ortiq. Yuqorigi jag'ining har tomonida 6 tadan oziq tishi bor.

Susarlar (Кунь) – Martes Pinel

O'zbekistondagi baland tog'liklarda (Chotqol, Ko'hitang, Boy-sunda) bu urug'dan tog' susari (*Каменная куница*) – *Martes foina Erxleben* degan turi tarqalgan.

8 (7) Yuqorigi labi va tumshug'ining uchi oq. Quloq suprasi kichik va yumaloq bo'lib, uzunligi 35 mm dan oshmaydi. Ko'kragida oqish dog' yo'q. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 71 mm ga yetmaydi. Yuqorigi jag'ining har tomonida 4 tadan va pastki jag'ining har tomonida 5 tadan oziq tishi bor.

9 (10) Orqasi jigarrang bo'lib, unda mayda sarg'ish dog'lar va chiziqlar bo'ladi. Pastki jag'idagi yirtqich tishining ichki tomonida qo'shimcha bo'rtnasi bor (49-rasm).

Olaqo'zamlar (Переходки) – Vormela Blasius

Turi *olaqo'zan (Перевалка) – Vormela Blasius*. O'zbekistonning cho'l va dasthlarida yashaydi.

10 (9) Orqasi boshqacha rangda, pastki jag'idagi yirtqich tishining ichki tomonida qo'shimcha bo'rtmasi yo'q.

Latchalar (Ласки) – Mustela L. (192-bet).



49-rasm. Olaqo'zanning pastki jag'i:
1-qo'shimcha bo'rtmasi.

Latchalar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (4) Qishda mo'ynasi, odatda, oq rangda bo'ladi, yozda va qishda tanasining orqa qismidagi mo'ynasi jigarrang, qorin tomondagisi oq yoki sarg'ish rangda bo'ladi.

2 (3) Dumi uzunasiga jigarrang, ba'zan faqat uchida qora juni bo'ladi. Dumining uzunligi tanasi uzunligining yarmiga yetmaydi.
Latcha (Ласка) – Mustela nivalis L.
O'zbekistonda tog'larda va tekisliklarda yashaydi.

3 (2) Dumining oxirgi yarmi yoki 1/3 qismi qora, asosi oq yoki jigarrang bo'ladi. Dumining uzunligi tanasi uzunligining yarmiga teng yoki undan ortiq.

Oq latcha – Mustela erminea L.

Respublikamizda baland tog'li tumanlarda yashaydi.

4 (1) Orqa va qorin tomonining juni qishda ham, yozda ham bir xil rangda yoki qorin tomoni orqasiga nisbatan qoramtir bo'ladi.

5 (6) Tanasi orqasining rangi qorin tomonidan keskin farq qiladi. Oyog'i, ko'kragi va cheti qo'ng'ir jun bilan qoplangan. Bosh skeletning eni kondilobazal uzunligining yarmidan ortiq.

Sariq sassiqgo'zan (Смешанн хорек) – Mustela eversmanni Lesson.

Ustyurtda, Amudaryoning quyi oqimida, Qizilqumda va Mirza-cho'lda yashaydi.

6 (5) Tanasi orqa va qorin tomonlarining rangi bir xil qoramtir-qo'ng'ir. Yuqorigi labi qo'ng'ir, pastki labi oq jun bilan qoplangan. Bosh skeletning eni kondilobazal uzunligining yarmiga teng.

Amerika norkasi – Mustela vison Schreber

Maxsus hayvonotchiilik fermalarida boqiladi. Bizda iqlimlashtirilgan.

Ayiqlar oilasi (Медвежьин) – Ursidae

Yirik yirtqichlar bo'lib, dumi juni orasida yashirilgan, kalta tovonida yuruvchi hayvondir. Oyoqlari besh barmoqli, tirnoqlari baquvvat, lekin to'mtoq.

O'zbekiston faunasida *ayiqlar – Ursus L.* urug'i va *qo'ng'ir ayiq (Бурый медведь) – Ursus arctos L.* turi uchraydi, u tog'li tumanlarda tarqalgan.

Sirtlonlar oilasi (Гиеновые) – Hyaenidae

Oldingi oyoqlari keyingilaridan bir oz uzun. Oyoqlari to'rtburchakli. Yirtqich tishlari baquvvat. Tishining formulasi:

$$i \frac{3}{3} c \frac{1}{1} pm \frac{4}{3} m \frac{1}{1}$$

MDH va O'zbekiston faunasida *sirtlonlar – Hyaena Brisson* urug'i va *yo'lyo'l sirtlon (Полосатая гiena) – Hyaena hyaena Brisson* turi uchragan. Bizda faqat Surxondaryo viloyatida uchrashi mumkin.

Mushuklar oilasi (Котнчын) – Felidae

Tishi yumaloq, tumshug'i kalta, barmog'ida yuradigan hayvonlar. Oldingi oyoqlarida 5 tadan, keyingi oyoqlarida 4 tadan barmoqlari bor. Tirnoqlari o'tkir, uchi bukilgan. Tishining formulasi:

$$i \frac{3}{3} c \frac{1}{1} pm \frac{2-3}{2-3} m \frac{1}{1}$$

MDH va O'zbekiston faunasida mushuklar oilasi 3 ta urug'ining vakillari uchraydi.

Mushuklar oilasining urug'larini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasining uzunligi (dumi bilan birga) 175 sm ga yetmaydi. Dumining uzunligi tanasi uzunligining yarmiga teng yoki undan kam. Bosh skeletning kondilobazal uzunligi 16 sm dan oshmaydi.

Mushuklar (Kouku) - Felis (195-bet).

2 (1) Tanasining uzunligi (dumi bilan birga) 200 sm dan oshadi. Dumining uzunligi tanasi uzunligining yarmidan ortiq. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 16 sm dan ortiq.

3 (4) Oyoqlari kalta, baquvvat, timoqlari o'tkir va tortiladigan. Bo'yining yuqori qismida dag'al jundan tashkil topgan yoli bo'lmaydi.

Irbislar (Cuexiene бapcy) - Uncia Gras

O'zbekistonda tog'li o'rmonlarda bu urug'ning *ilivirs (Cuexiene ilivirs)* - *Uncia uncia Schreber* degan turi yashaydi.

4 (3) Oyoqlari uzun va ingichka. Timoqlari tortilmaydigan va to'ntoqroq. Bo'yining ustida dag'al jundan tashkil topgan yoli yo'q.

Gepardlar - Actonyx Brookes

Turi *gepard - Actonix jubatus Schreber*. Bizda faqat Ustyurtda yashagan.

Mushuklar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Dumi boshidan kalta va uchi qora. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 120 mm dan ortiq. Tanasi 90 sm dan uzun.

Silovsin (Pycb) - Felis lynx L.

Turkiston, Hisor va Bobotog' tizmalarida yashaydi.

2 (1) Dumi boshidan uzun. Dumining uchi oqish yoki eng uchi qora bo'ladi. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 120 mm ga yetmaydi. Tanasining uzunligi 90 sm dan oshmaydi.

3 (4) Tanasining usti sariq, qorin tomoni oq. Qulog'ining orqa tomoni qora. Boshining yon tomonlarida qora dog'lar bor. Qulog'ining uchida uzunligi 3 sm dan ortiq keladigan cho'tkasi bor.

Qoraquloq (Kapakazi) - Felis caracal Schreber

Qizilqumning janubida uchrashi mumkin.

4 (3) Rangi boshqacha, qulog'ining uchida cho'tkasi yo'q, bo'lsa ham uzunligi 3 sm ga yetmaydi. Boshining yon tomonlarida qora dog'lar yo'q.

5 (6) Quloq suprasining uchida cho'tkasi bor. Dumi (uchidagi jumi birga) tanasi uzunligining 1/3 qismini tashkil qiladi. Tanasining rangi bir xil. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 104 mm dan ortiq.

To'qay mushugi (Kavstiuosax kouka) - Felis chaus Guedenstaedt

Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchik daryolari va Orol dengizi bo'ylarida yashaydi.

6 (5) Qulog'ining uchida cho'tkasi yo'q. Dumi tanasi uzunligining yarmiga teng. Tanasida qoramir dog'lar va chiziqlar bor. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 104 mm ga yetmaydi.

7 (10) Rangi deyarli bir xil, ba'zan orqasining keyingi qismida qoramir chiziqlar bo'ladi.

8 (10) Dumining uzunligi 25 sm ga yetmaydi. Dumida serbar qoramir halqalar bor. Barmoqlarining tagi junsiz. Qulog'i kalta, deyarli sezilmaydi.

Manul - Felis manul Pallas

9 (8) Dumi 25 sm dan uzun. Dumida qora halqalar yo'q. Barmoqlarining tagi jun bilan qoplangan. Qulog'i yaxshi rivojlangan.

Qum mushugi (Baxxanax kouka) - Felis margarita Loche

Qizilqumda va Termiz cho'llarida yashaydi.

10 (7) Tanasida aniq ko'rinib turadigan qoramir dog'lar va chiziqlar bor. Burun suyaklarining uchi jag' oraliq suyaklarining uchiga yetmaydi.

Yovvoyi mushuk (Daxax kouka) - Felis libyca Forster

Qizilqum, Mirzacho'lda va Sirdaryoda tarqalgan.

Bo'ri (it) simonlar oilasi (Borcyb) - Canidae

Boshi cho'ziq. Barmoqlarida yuradi. Oldingi oyoqlarida 5 ta, orqa oyoqlarida 4 ta barmog'i bor. Timoqlari kalta, to'ntoq. Tishining formulasi:

$$\begin{array}{ccccccc} & 3 & 1 & 4 & 2 & & \\ & i & c & p & m & l & \\ & 3 & 1 & 3 & 3 & 3 & 3 \end{array}$$

Bo'ri(it)simonlar oilasining urug'larini aniqlash

1 (4) Dumining uzunligi (uchidagi jumi bilan birga) tanasining yarmiga yetmaydi. Orqa oyoq barmoqlarining tagida jumi yo'q.

2 (3) Tanasining orqasi va yon tomonlari kulrang, qo'ng'ir-kulrang yoki sarg'ish-kulrang bo'lib, uzunasiga joylashgan qoramir jumi bor. Pastki jag'ining har tomonida 7 tadan oziq tishi bor.

Itlar (Bo'rilar - Borku) - Canis L. (196-bet).

3 (2) Tanasining usti va yon tomonlari sarg'ish-qizil, qora jumi yo'q. Pastki jag'ining har tomonida 6 tadan oziq tishi bor.

Qizil bo'rilar - Cuon Hodgson

Turi *qizil bo'ri - Cuon alpinus Pallas*. Toshkent viloyatidagi tog'larda uchrashi mumkin degan dalillar bor (turli manbalarda).

4 (1) Dumi (uchidagi jumi bilan birga) tanasining yarmidan uzun. Orqa oyoq barmoqlarining tagi jun bilan qoplangan.

Tulkilar (Tlucayba) - Vulpes Oken (197-bet).

Itlar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasi 105 sm dan uzun. Dumi deyarli tanasining yarmiga teng. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 20 sm dan ortiq.

Bo'ri (Bosk) – Canis lupus L.

Respublikamizda keng tarqalgan.

2 (1) Tanasi 105 sm ga yetmaydi. Dumi tanasi uzunligining 1/3 qismini tashkil qiladi. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 20 sm ga yetmaydi.

Shoqol (Chiyabo'ri – Шакал) – Canis aureus L.

O'zbekistonda keng tarqalgan.

Tulkilar urug'ining turlarini aniqlash jadvali

1 (2) Tanasi 65 sm dan uzun. Qulog'ining orqasi qora, dumining uchi oq, uzunligi 40 sm dan ortiq. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 12 sm dan ko'p.

Oddiy tulki (Пусуца) – Vulpes vulpes L.

Respublikamizda keng tarqalgan.

2 (1) Tanasi 65 sm dan kalta. Qulog'ining orqasi boshining usti singari kulrang. Dumining uchi oq emas. Uzunligi 40 sm ga yetmaydi. Bosh skeletining kondilobazal uzunligi 12 sm dan kam.

Qorsak – Vulpes corsac L.

Ustyurtda, Mirzacho'lda, Qizilqumda va respublikamizning janubida tarqalgan.

